

POLISH SCIENCE JOURNAL

INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL

Issue 3(36)
Part 2



POLISH SCIENCE JOURNAL

ISSUE 3(36)

Part 2

INTERNATIONAL SCIENCE JOURNAL

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
2021

ISBN 978-83-949403-4-8

POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 3(36), 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 2 – 157 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny
Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mohyły

Tahirjon Z. Sultanov, Doctor of Technical Sciences, docent

Shavkat J. Imomov, Doctor of Technical Sciences, professor

Sayipzhan Bakizhanovich Tilabaev, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor.
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Temirbek Ametov, PhD

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Dilnoza Kamalova, PhD (arch) Associate Professor, Samarkand State Institute of Architecture and Civil Engineering

Oleh Vodianyî, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, қазақша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն

Science journal are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-4-8

© Sp. z o. o. "iScience", 2021

© Authors, 2021

TABLE OF CONTENTS

SECTION: PEDAGOGY

Abdullayeva Mehribon Rayimberganovna, Karimova Nasiba Amotovna (Urganch, O'zbekistan) BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING TABIATSHUNOSLIK FANIDAN BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI	6
Ahmedov Temurjon Yusubboyevich, Masharipova Feruza Yusubboyevna (Urganch, O'zbekistan) BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI TABIATSHUNOSLIK DARSLARI ORQALI ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA O'RGATISH	9
Akbaraliev Kamoliddin (Akhangan, Uzbekistan) PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF CREATIVE COMPETENCE IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATION.....	12
Allamov Shavkat Sharipovich (Urganch, O'zbekistan) BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI	16
Ismoilova Mahbuba Elamonovna (Qarshi, O'zbekiston) VOKAL IJROCHILIGI DARSLARIDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISH.....	19
Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna, Sharipova Guloy Olimboyevna (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARIDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHNING METODIK JIHLATLARI	23
Atajonova Jumaniyozovna Anorgul, Mamatsoliyeva Firuza Ilhom qizi (Urganch, O'zbekiston) BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING ADABIY TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASAR USTIDA ISHLASHNING METODIK SHARTLARI	27
Rakhmonova Makhfuza Kholmurodovna (Karshi, Uzbekistan) MORAL AND ETHICAL HERITAGE OF THINKERS OF CENTRAL ASIA AND EAST	32
Raxmatova Hamida Ismatillo qizi, Ro'ziqulova Sarvinoz Xushvaqt qizi, Choriyeva Dildora Omon qizi (Termez, Uzbekistan) BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	40
Tangriyeva Umida (Urganch, O'zbekistan) NOSTANDART TESTLAR VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH	44
Tashmuradova Zarina (Samarkand, Uzbekistan) PRIMARY EDUCATION – BASE FOR PERSONALITY SHAPING	48
Tovbayev G'ofur Zulkaynar o'g'li, Nigmatov Asqar Nigmatovich (Guliston, Uzbekistan) MAGISTRATURA TA'LIM TIZIMIDA «KONSTRUKTIV GEOGRAFIYA» O'QUV MODULI O'QITISH HOLATI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI	51

Turabaeva K.E. (Karshi, Uzbekistan) THEMATIC PRESENTATION AS A LEARNING TOOL OF ORAL SPEECH IN A NON-LINGUISTIC UNIVERSITY	59
Turaeva Guzal (Termez, Uzbekistan) PRONUNCIATION IN THE CLASSROOM: TEACHERS AND TEACHING METHODS	62
Utashva Lola Shoturayevna, Khushbokova Mahliyo Akram qizi Termez, Uzbekistan) GAME TECHNOLOGY FOR PRESCHOOL CHILDREN.....	65
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li, Abdullayeva Rayxon Atanazarovna (Urganch, O'zbekiston) MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBİYALANUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	68
Zakirova Maqsuda Atayevna (Urganch, O'zbekiston) ONA TILI TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHNING METODIK JIHATLARI	72
Абдурахимова Ф.А., Каримов А.А., Халилова Х.Э., Бобомуродов Т.Г. (Ташкент, Узбекистан) ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДМЕТА НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ И МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЕЁ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	76
Азимова Н.Э., Насимова Э. Исомиддин кизи (Бухара, Ўзбекистон) KASBIY FANLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ANAMIYATI VA ZARURATI	80
Жуманова Фотима Ураловна, Аллаёрова Сожида Умироқовна (Чирчиқ, Ўзбекистон) БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЛУҒАТ БОЙЛИГИНИ ОШИРИШДА ЛИНГВО - ПЕДАГОГИК АСОСЛАР	84
Бобоқулува Дилфуза Менглибоевна (Денов, Ўзбекистон) БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТЕЖАМКОРЛИК ВА ТАДБИРКОРЛИККА ЎРГАТИШДА ОИЛА БИЛАН ҲАМКОРЛИК ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	89
Иминова Мухайё Асланбековна (Андижан, Узбекистан) ПРОЕКТНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ - КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ УЧЕНИКА.....	95
Қамбарова Дилфуза Солижоновна (Андижан, Узбекистан) ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ТАРБИЯ ТАМОЙИЛЛАРИ БИЛАН БОЙИТИШ	102
Кулмуродова Сайёра Сафаровна, Суярова Лола Гулмуродовна (Самарқанд, Ўзбекистон) ЖАМИЯТИМИЗДА ОИЛАЛАРНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ РОЛИ.....	108
Мамажонов Р., Ахунوف И., Акрамов Ж. (Ташкент, Узбекистан) СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУРНИНГ ЁШ АВЛОДНИ МАЪНАВИЙ - АҲЛОҚИЙ ВА ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДАГИ ФАОЛИЯТИ	111

Музаффарова Л.Н., Турлибаева Г.М. (Навои, Узбекистан) МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ - ЭЛЕМЕНТ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ	114
Рахмонова Замирахон Якубжановна, Рахмонова Шохруза Собиржон қизи (Андижан, Узбекистан) ОЛИЙ ТАЪЛИМДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	120
Сейфуллаев Алланазар Скендербекович (Нукус, Узбекистан) КИТОБХОНЛИК – БУЮК КЕЛАЖАК КАФОЛАТИ	126
Саломова Гулрух Шерали кизи (Карши, Узбекистан) ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ К ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ	129
Тоштемирова Насиба Позиловна (Андижан, Узбекистан) ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ МУЛОҚОТ ЮРИТИШ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.....	132
Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон қизи (Андижан, Узбекистан) ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИДА ШАХСИЙ-КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПОТЕНЦИАЛ ИМКОНИАТЛАРИ.....	137
Худойқулов Хол Жумаевич, Хайитов Абдуқосим (Термиз, Узбекистан) БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА АКМЕОЛОГИК ПОЗИЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	142
Мўминова Нодира Баходировна (Андижан, Узбекистан) БИЛИМ ДАРАЖАСИ ТУРЛИЧА БЎЛГАН АУДИТОРИЯЛАРДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ГУРУХЛАШ СТРАТЕГИЯЛАРИ.....	150
Хидирова Малоҳат Қазақовна, Жўраев Адхам (Гулистан, Узбекистан) ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ.....	154

SECTION: PEDAGOGY

Abdullayeva Mehribon Rayimberganovna
UrDU, o'qituvchi,
Karimova Nasiba Amotovna
24-son maktab, o'qituvchi
(Urganch, O'zbekistan)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TABIATSHUNOSLIK FANIDAN BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

*“...«Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik,
avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu
shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan
marralar qo'yganmiz....”...¹*
Sh. Mirziyoyev

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tabiatshunoslik fani darslarida pedagogik texnologiyalar hamda ta'limiy o'yinlarni qo'llash usullari ko'rsatilgan va yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, tabiatshunoslik, o'qitish metodlari, ta'limiy o'yinlar, bilim samaradorligi, hayotga bog'lash.

Аннотация. В данной статье описывается и иллюстрируется использование педагогических технологий и воспитательных игр на уроках естествознания в начальной школе.

Ключевые слова: начальное, наука, методика обучения, развивающие игры, эффективность знаний, актуальность.

Annotation. This article describes and explains the usage of pedagogical technologies and educational games in elementary school science lessons.

Key words: elementary, science, teaching methods, educational games, knowledge efficiency, relevance.

Boshlang'ich sinflardagi “Atrofimizdagi olam” (1-2-sinf) hamda “Tabiatshunoslik” (3-4-sinf) darslarining vazifasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fanlar va tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tizimga solish, ularning axloqiy ko'nikmalarini boyitish, odamlar hayoti va mehnatiga qiziqish uyg'otish, oila, maktab, jamoat

¹ Sh. Mirziyoyev- “O'zbekiston Respublikasida 1-marta o'tkazilgan O'zbekiston yoshlari forumidagi tantanali marosimdagi ma'ruzasi.” - T. 25.12.2020.

joylarida o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu fanlar orqali o'quvchilarda tabiatga, oila a'zolariga, insonlarga nisbatan muhabbat va g'amxo'rlik, inson mehnati bilan yaratilgan narsalarni ehtiyotlab saqlash, mehnatni qadrlash, jonajon Vatanni sevish, uyda va maktabda ijtimoiy foydali mehnatga qiziqish hislari tarbiyalanadi.

Boshlang'ich ta'limda tabiatshunoslik kursining asosiy negizi bizning maktab, bizning mahalla, ko'chada yurish, tabiatda o'zini tutish qoidalari, kun tartibi, shaxsiy gigiena qoidalari, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, jism va moddalar, madaniy va yovvoyi o'simliklar, o'simliklarning organlari, xona o'simliklari, o'simliklardagi mavsumiy o'zgarishlar, madaniy o'simliklarni parvarish qilish va hosilni yig'ish, uy va yovvoyi hayvonlar, hasharotlar, qushlar, hayvonlarning yashash sharoiti, odamning ichki va tashqi organlari, salomatlikni saqlash, suvning uch holati, tabiatda suvning aylanishi, ob-havo, bulut va yog'inlarni hosil bo'lishi, koinot, yulduzlar, quyosh, yer va uning yuzasining asosiy shakllari, fasllarning hamda kun va tunning almashuvi, o'lkamiz tabiatini o'rganishdan iborat. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar yuqoridagi mavzular haqida dastlabki tushunchalarni oladi.

Tabiatshunoslik fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining sevimli fanlaridan biri hisoblanadi. Agar tabiatshunoslik darslari pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilinsa, o'quvchilar bilim samaradorligi yanada oshishiga erishiladi. Hozirgi kunda 1-2-sinflar uchun "Atrofimizdagi olam" fanidan yaratilgan multimedia ilovalaridan darslarda foydalanish natijasida o'quvchilarning bu fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortib borayotganini alohida aytib o'tish lozim.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini va o'quvchilarni o'qishga qiziqishini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bilimlarini mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda foydalanish malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, o'quvchilar bilim samaradorligini oshirish va darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinflardagi "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarida "T" chizmasi, "Venn diagrammasi", "O'rnini top", "Ortiqchasini top", "Guruhiy aniqqa", "Organayzer", "Baliq skleti", "Assesment texnikasi" kabi metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi. "Ortiqchasini top" metodidan foydalanilganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ziyirlik, topqirlik, tez fikrlash kabi xislatlari shakllansa, dars davomida o'rganilgan mavzuni tez o'zlashtirishini kuzatish mumkin. Masalan, 1-sinf o'quvchilariga "Uy jihozlari", "Uy hayvonlari", "Yovvoyi hayvonlar", "Kun tartibi" mavzularini o'tishda bu metoddan foydalanish samarali natija beradi.

"Organayzer" metodi tarmoqlashning bir turi bo'lib, unda faqat birlamchi ma'lumotlar emas, balki ikkilamchi ma'lumotlar ham yoritiladi. Bu metodda ma'lumotlar berilmagan bo'lib, tarmoqlar ochiq qoldiriladi. O'quvchilar ochiq tarmoqlardagi ma'lumotlarni topishi va tarmoqni to'ldirishi lozim. Bunda ularga o'qituvchi tomonidan yozilgan ma'lumotlar yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarida yuqoridagi metodlardan foydalanishda ta'limiy o'yinlarni qo'shib ketishi ham o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

“Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida pedagogik texnologiyalarga “Davom ettir”, “Nima yo‘qolib qoldi”, “Zanjir”, “Tez javob”, “Bu nima?” kabi ta‘limiy o‘yinlarni uyg‘unlashtirib borish o‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini yanada boyitadi.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘shishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol ta‘lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta‘lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta‘lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta‘lim metodlarini ma‘lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta‘lim beruvchi tomonidan ta‘lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘qish, ona tili, matematika darslari kabi boshqa fanlarni o‘qitishda ham doimo izlanib, ijod qilmog‘i lozim. Chunki o‘quvchilar hayotida har bir fan alohida o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. G‘afforova “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Toshkent – 2011.
2. Q. Yunusov “Ona tili darslarida didaktik o‘yinlar”. Toshkent - 2009
Internet tarmoqlari:
 1. www.ziyonet.uz
 2. www.lex.uz

Ahmedov Temurjon Yusubbayevich
UrDU, o'qituvchi,
Masharipova Feruza Yusupboyevna
24-son maktab, o'qituvchi
(Urganch, O'zbekistan)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI TABIATSHUNOSLIK DARSLARI ORQALI ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA O'RGATISH

"...tabiatda organizmlarning pog'onali rivojlanish tamoyili bo'yicha taraqqiyot hamma vaqt to'g'ri amalga oshavermaydi. Tashqi muhit organizmlarga ta'sir etib, ularning pog'ona bo'yicha rivojlanish rejasini o'zgartirib yuboradi..."

J.B. Lamarck

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktablarda tabiatshunoslik darslarida yangi interfaol metodlardan foydalanib o'quvchilarning atrof-muhitni muhofaza qilishga o'rgatish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada mustahkamlash yo'llari xususida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, o'yin mashqlari, interfaol metodlar, zamonaviy ta'lim, tabiatshunoslik o'qitish usullari.

Аннотация. В этой статье представлена информация о способах обучения учащихся защите окружающей среды с использованием новых интерактивных методов на уроках естествознания в школах и о способах дальнейшего повышения интереса учащихся к науке.

Ключевые слова: проблемное обучение, игровые упражнения, интерактивные методы, современное образование, методы обучения естествознанию.

Annotation. This article provides information on ways of teaching students on the protection of the environment using new interactive methods in science classes in schools, and to further strengthening students' interest in science.

Key words: problem-based learning, game exercises, interactive methods, modern education, science teaching methods.

Atrof-muhit—bu insoniyatni bevosita o'rab turadigan ta'biy va sun'iy yaratilgan muhitdir. Insoniyat yaralganidan buyon u tabiat, atrof-muhit bilan bevosita aloqaga kirishadi, unda to'xtovsiz faoliyat olib boradi. Aynan shu faollik, afsuski, keyingi yuz yillik davomida insoniyat oldida yangicha dolzarb muammoni yuzaga keltirdi, ya'ni odamzod uchun atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvor yo'nalishga aylandi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish—tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman

tabiatni, uning goʻzalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasidir.

Mavzuning dolzarbligi–butun yer yuzi keyingi asr davomida keskin oʻzgarishlarga yuz tutdi, globallashuv jarayonlari inson yashash tarzini tubdan oʻzgartirdi. Lekin tan olish kerakki, odamzod bu oʻzgarishlarga tabiatga katta zarar yetkazish evaziga erishmoqda. Tabiatni asrash, uning yoʻqolib borayotgan qismlarini qayta tiklash borasida koʻplab chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan maʼlum bir insonlar guruhi uni zaharlashda davom etishmoqda. Shu boisdan tabiatshunoslik fani tabiat muhofazasi uchun taʼlim tizimi, ayniqsa boshlangʻich taʼlim tizimiga kiritilgan eng muhim fanlar sirasidan hisoblanadi. Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilar juda faol boʻlishadi, ularning fikrlash tarzi, ongi asta rivojlanish bosqichiga kiradi. Ularning fikrini jamlash va tinchlantirib turish, oʻtiladigan mavzular mohiyatini tasavvurida shakllantirish qiyin kechadi. Xuddi shunday jarayonlarda mavzuni tushuntirishda oʻqituvchilarimiz biroz qiyinchilikka duch kelishadi.

Mazkur maqola boshlangʻich sinflarda Atrof-muhitni muhofaza qilishga layoqatni shakllantirishga qaratilgan.

Mavzuning maqsadi – ekologik jihatdan savodli, ijtimoiy faol, atrof-muhitga nisbatan javobgarlikni his qiluvchi, tabiat boyliklaridan ehtiyotkorona foydalanuvchi maktab oʻquvchisini tarbiyalash.

Mazkur maqola, shuningdek, quyidagi vazifalarni oʻz ichiga oladi:

- Oʻquvchilarni tabiatga nisbatan hatti-harakatlari uchun javobgarlikka oʻrgatish;
- Tabiatda oʻzini tutish madaniyatini shakllantirish;
- Atrof-muhit haqida bilim va dunyoqarashni shakllantirish;
- Tabiat boyliklariga ehtiyotkorona muomalada boʻlish, ulardan unumli foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- Tabiatga muhabbat, uni asrashga intilish kabi hislarni shakllantirish.

Mavzuning qanchalik dolzarbligini tushunish, tabiiyki, uni yaqqol misollar bilan koʻrib chiqishni talab qiladi. Maʼlumki, dunyo yangi asrga qadam qoʻyganda, uning oldida globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlana boshladi, yaʼni texnologiya asri boshlandi. Bu esa, oʻz navbatida tabiat boyliklari uchun kurashni keltirib chiqardi: insoniyatning oʻz faoliyati davomida oxirgi 100 yil ichida tabiatga keltirgan zarari, ungacha boʻlgan 5 asr davomida keltirilgan zarardan oshib ketdi. Agar buni raqamlarda koʻradigan boʻlsak, oʻtgan asrning 80-yillaridan boshlab har yili hayvonot olamining 1 turi yoʻqola boshladi, oʻsimliklardan esa har oyda 1 tur (bugungi kunda oʻsimliklarning 20 000 turi butunlay yoʻqolib ketish xavfi ostida). Bundan tashqari mayda sutemizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yoʻqolib ketish arafasida. Qolaversa har yili 1 mlrd tonna yoqilgʻi yoqiladi va tabiatga: suv yoki havoga tashlanadi. Bu esa, oʻz navbatida havo va suvning zaharlanishiga, bu esa bevosita inson salomatligining xavf ostida qolishiga olib kelmoqda. Zavod va korxonlarning uzluksiz faoliyat olib borishi nafaqat flora va fauna dunyosiga, balki yer yuzasining qattiq zarar koʻrishiga, natijada qishloq xoʻjaligi unumdorligi kamayishiga olib kelmoqda.

Maʼlumki, mamlakatimizda taʼlim tizimi hayotning hamma jabhalarini keng qamragan holda yoshlarimizni tarbiyalashga qaratilgan. Xususan, atrof-muhit masalasi ham taʼlim jarayonining uzluksiz qismi sanaladi. Yaʼni 1-2 sinflarda “Atrofimizdagi olam”, 2-4 sinflarda “Tabiatshunoslik” va yuqori sinflarda “Geografiya” fanlarining majburiy tarzda oʻqitib borilishi

mamlakatimizda tabiatni asrashda chora-tadbirlar yoshlarning ilk davrlaridan boshlanishining yaqqol misolidir. Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda haftasiga 1 soat tabiatshunoslik fani o'qitiladi. Mazkur dars jarayonlarida, har bir bo'lim boshida o'quvchilarga "Atrof-muhitni muhofaza qilish" to'g'risida tushunchalar berib boriladi.

Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda atrof-muhitni muhofaza qilish borasida chora-tadbirlarini ko'rib chiqish, ularni yanada takomillashtirishga qaratiladi. Mazkur tadbirlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- *O'quvchilarni suvni tejashga o'rgatish.* Ma'lumki, bir kunda odam o'rtacha 200 litr suv ishlatadi va bu suvning ko'p qismi keraksiz maqsadlarda isrof qilinadi. Bu kabi isrofchiliklarning oldini olish uchun yoshlarda ba'zi tushunchalarni shakllantirish lozim. Masalan, yuvinganda, tishlarni tozalaganda ma'lum miqdor suvni belgilab berish, va shu miqdordan ortig'ini sarflamaslikka o'rgatish, o'simliklar, daraxtlarni sug'organda, uydagi, maktabdagi yo'lakchalarni yuvganda suv shlanglaridan emas, balki chelakdan foydalanish, bu o'z navbatida, ichimlik suvining anchayin tejashiga olib keladi.

- *O'quvchilarga chiqindilarni tartibga solishni o'rgatish.* Bolaning tanasi, organizmi doimo harakatda bo'ladi. Bu esa ularda energiyaning ko'p talab qilinishiga olib keladi. Dars jarayonlarida o'quvchilar och holatda bo'lmasliklari muhim hisoblanadi. Shu boisdan, o'quvchilar, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari tanaffusda va ko'pchilik hollarda-doimo iste'mol qilishda bo'ladi. Afsuski, ko'p holatlarda ularning chiqindini tashlab yuborishlari qarovsiz qolib ketadi, va bu maktab hududida ifloslik keltirib chiqaradi. Shu boisdan, sinflarda, maktab hududida har bir chiqindi turi uchun maxsus chiqindi qutilari tashkillashtirish lozim (qog'oz, shisha-poliyetelin, ovqat qoldiqlari). Mazkur tadbir maktab sinflarida chiqindilar atrofida havoning buzilmasligiga, turli hasharotlarning to'planmasligiga, shuningdek, o'quvchilarda har-xil kasallik tarqamasligining oldini oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, atrof-muhit muhofazasi masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanib, muammo ijtimoiy tus oldi. Uni hal qilish maqsadli, chuqur o'ylangan chora-tadbirlarni talab qilmoqda. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev farmoni e'lon qilinganligi ham mavzu dolzarbligining misolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 3-sinf "Tabiatshunoslik" o'quv darslik A. Bahramov. SH. SHaripov, M. Nabiyeva
2. 4-sinf "Tabiatshunoslik" o'quv darslik Shavkat SHaripov, Manzura Nabiyeva.

Internet tarmoqlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.lex.uz

Akbaraliev Kamoliddin
The pupil of the 11th class of
the 1st comprehensive school in
(Akhangaran, Uzbekistan)

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF CREATIVE COMPETENCE IN THE PROCESS OF STUDENT EDUCATION

Annotation: *This article provides information on the essence of the content of the definition and development of creative abilities of students and pedagogical-psychological and methodological approaches to the effective use of methods by teachers.*

Keywords: *Creativity, creative ability, talent development, creative thinking, imagination, methodology, self-expression.*

Main body: Due to the nature of pedagogical and psychological services in the education system, the use of it in secondary schools is the study of the inner potential of each student, a wide range of research, it is possible to identify and define the level of creative ability in a particular direction, creating developmental programs that serve to further enrich the creative abilities of students in accordance with the existing situation.

On the basis of all of them there is a special education in the family, in educational institutions, in other spheres of public education. In particular, the worldview, scientific competence, independent and creative thinking should be formed in every student.

One of the best ways to develop creativity is to engage students in productive and professional learning from an early age, to organize lessons creatively, and to make extensive use of a variety of traditional teaching methods.

Based on the above figures, we see that the success of technology education depends on the creative thinking of students in many respects.

The peculiarity of technology lessons is that students acquire the knowledge they need and have a social significance through the development of various theoretical and practical skills in the process of developing technology and technical creativity. Also, the responsibility of technology teachers in secondary schools is to develop students' creative abilities, to study their inner potential, to direct their creative abilities.

The organization of the educational process in technology not only serves to equip students with the skills and competencies in a particular technology, but also to develop their intellectual and creative abilities, as well as their interest in and attitude to the science of technology.

Improving a teacher's skills is one of the most important conditions for successful teaching of students. A well-versed teacher can demonstrate and demonstrate the skill of preparing a product, which ensures that the student understands the basics of technology. This means that the teacher needs to be well-prepared for the situation, and the students need to be prepared for what the teacher needs to do during the practical training, as it may be necessary to use the same methods of preparation during the preparation of the lesson. If

the teacher prepares the products in advance, the students will be taught the methods and techniques of preparation.

Proper communication with the class is very important for the teacher in introducing a new topic to students in the course of theoretical or practical lessons, explaining new material or creating a problem situation method on this topic, as a result of which students become a harmonious team. They think and explore freely in learning. During the dialogue, the teacher's initiative provides an opportunity to find solutions to a number of strategic and tactical problems, both educational and socio-psychological.

The use of modern pedagogical and technological methods in technology lessons depends not only on the success of the educational process, but also on the effectiveness of the methods used. In the theory of education, the application of new pedagogical technologies with teaching plays a key role.

The essence of the new pedagogical technology is the interaction of teachers and students and their active participation. Because in the classroom, if the teacher is the leader, that is, the leader, the students feel a sense of responsibility. This means that they are far from thinking independently, observing, drawing conclusions.

The use of pedagogical technology in the learning process requires from the teacher the initiative and independence of students, the thorough acquisition of knowledge, allows them to develop the necessary skills and abilities, observation, thinking and logical speech, memory and creative imagination.

It would be advisable for the teacher to follow the following guidelines in enhancing the creative competence of the students.

1. The student is able to better understand the problem given by the teacher, to understand the complexities of difficult and complex issues.
2. Offer a variety of ideas, opinions, assumptions, options.
3. To be able to fill in a variety of images, details, to improve the expressed ideas.
4. To pay attention to the standard, antiquity, interestingness of the student's speech.
5. To develop students' ideas and skills, to form ingenuity.
6. Development of emotional interest, curiosity, creative motivation, the presence of needs in the creative activity of the student
7. To develop students' skills and abilities to think and come up with ideas.
8. In the process of applying these methods, try to get as many ideas and thoughts from students as possible.
9. Try to imagine what students are saying.
10. Teach the student to try to think even when there is no correct answer.
11. Encourage the student to think of other possible answers, even if they have found the correct answer.
12. To teach students to express themselves freely in the classroom, among students.
13. To teach students to discuss the ideas expressed by the student.
14. To take into account the opinions of students, even if they can not be applied in practice.

15. To take responsibility for the opinions of students, to learn that certain ideas can be implemented without interruption.

16. Analyze the ideas presented by students without criticizing them as true or false. (Criticism of an opinion or idea in the audience can negatively affect the ability of the reader to give an opinion or idea in the next situation). The teacher's adherence to the above guidelines provides an opportunity to increase students' interest in the lesson and the activity of the audience.

In addition, the teacher not only imparts knowledge to students during the implementation of the above instructions, but also develops their professional knowledge, skills and attitudes, as well as the spiritual outlook of students. To do this, in the teaching of technology - "Problem situation", "Cluster", "Venn diagram", "Think for yourself, search for yourself, find yourself", "Who knows more?", "My creator", "Nature and technology", etc.) you can achieve great results over time.

Thus, the development of creative abilities of secondary school students is a multifaceted, complex pedagogical-psychological process, the effective organization of which requires that the teacher has thoroughly mastered the pedagogical-psychological knowledge, organizationally-technologically and methodologically correct. It is also necessary to thoroughly study the situation in the educational process in the organization of this process, to clearly define the measures necessary for the systematic conduct of practical action in this direction.

Because of creativity is an individual trait, it is necessary to learn that it is present in every student of secondary schools. This is a very complex and serious process and requires the teacher to work on the basis of special organizational and technical training. In this process, it is important to take into account the pedagogical and psychological characteristics that are reflected in the ability.

It is obvious that the use of new innovative pedagogical technologies in the teaching process is of great importance in the education of schoolchildren. At the same time, good and effective results are achieved, especially when teachers use non-traditional methods of teaching in technology science classes. Therefore, special attention should be paid to the organization and conduct of technology classes.

Each lesson, that is, a training session, expands and strengthens the knowledge and skills of students, it should help them develop sustainable positive skills and habits. It would be expedient not only to impart knowledge or skill formation during the course of the course, but also to combine it with the tasks of nurturing and perfecting knowledge. That is why a teacher must know his subject perfectly. This is to help students understand the ideas of ethics based on the information provided in this lesson in preparation for the lesson, and at the same time have a clear idea of how to develop speech, attention, independent thinking, creativity, imagination, willpower, and other such personality traits. expedient. It is also important to explain to students the culture, skills and competencies of technology as a result of repetitive practical exercises, in which the disciplines and sequence of actions established during each training session are explained.

A student who is also intellectually creative must be intelligent, quick-witted, quick-witted, quick-witted, quick-witted.

Students will be able to demonstrate their creative abilities, take a new approach to education, express themselves fluently, read a lot of fiction and scientific literature, be creative in their approach to the product, understand national values, products based on our national values, love the country, must be able to think freely, have a strong intellectual pursuit, intelligence, resourcefulness, attention span, quick information retrieval, memorization of information, responsiveness, deep thinking, breadth of imagination, possess all knowledge, skills and abilities.

In conclusion, it can be said that in the educational process for the development of students' thinking, creativity, creative thinking - creativity, creative ability and power, with the use of new pedagogical technologies, which further develop knowledge, skills and abilities, it is necessary to develop, first of all, broad-mindedness, willpower, self-awareness, activism, hard work, goal-orientation. Such educational goals can be achieved in full. Teachers and students need to be able to demonstrate their creative abilities and talents in order to achieve their goals, to realize their natural potential.

REFERENCES:

1. N.A. Muslimov, Q.M. Abdullaeva, O.A. Qo'ysinov, N.S. Gaipova. "Theory and technology of formation of pedagogical competence of future teachers".- Tashkent - 2014.
2. O.A. Kuysinov, V.N. Sattorov, H.S. Yakubova Methodical manual "Methods of organizing practical training in labor education." Toshkent- 2011 y.
3. Sh.S. Sharipov, N.A. Muslimov Methodical manual "Technical creativity and design". Tashkent - 2007

Allamov Shavkat Sharipovich
UrDU, o'qituvchi
(Urganch, O'zbekistan)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda turli xil metodlardan foydalanishning umumiy tushunchalari ko'rib o'tilgan. O'qitishda qo'llaniladigan ayrim interfaol usullar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Metod, dars, natural son, kuzatish, taqqoslash, tasvirlash, o'yin vositalari.

Аннотация. В этой статье представлен обзор использования различных методов обучения математики в начальных классах. Изложены несколько интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: метод, урок, натуральное число, наблюдение, сравнение, описание, игровые инструменты.

Annotation. This article provides an overview of the use of various methods of teaching mathematics in primary grades. Several interactive teaching methods are outlined.

Key words: method, lesson, natural number, observation, comparison, description, game tools.

Metod aslida yunoncha «metodas» so'zidan olingan bo'lib, "bilish va tadqiqot yo'li", "nazariya" va "ta'limot" kabi ma'nolarni bildiradi.

Metodika biron ishni bajarish, amalga oshirish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot-tarbiya berish metodlari yo'llari va vositalari haqidagi fandır.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini yaxshi bilish o'quvchilarga matematika fanini o'rgatish yo'llari va vositalarini o'rgatadi. Matematika fanini o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan bog'liq. O'qitishda fanlararo bog'liqlikni to'g'ri amalga oshirishga etibor qaratish kerak. Bizga ma'lumki, matematika metodikasi-pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchi o'zi dars berayotgan xar bir o'quvchi bilan shularni xisobga olgan xolda ish olib borishi kerak. Matematika fani ona tili, tabiatshunoslik, rasm, mehnat va boshqa fanlar bilan bevosita bog'liq.

Maktabda matematika darsini tashkil qilishning ko'p yillik tajribalarda sinalgan va davlat ta'lim standartiga javob beradigan shakli dars xisoblanadi. O'quvchilarni fan sirlaridan ogoh bo'lishlarida nafaqat metodni to'g'ri tanlanishigagina emas, balki o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilinganiga ham bog'liqdir.

Dars deb, dastur bo'yicha belgilangan, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgarmas soni bilan tashkil etilgan o'quv jarayoniga aytiladi. Dars o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ilm o'rinish jarayoni hisoblanadi. Dars vaqtida o'quvchilar

mtematikadan nazariy ma'lumotga, hisoblash malakasiga, masala yechishga, har xil o'lchashlarni bajarishga o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda matmematika bilimlarini shunday puxta poydevorini qo'yish kerakki, bu poydevor ustida bundan keyingi matematik talimni uzluksiz davom ettirishi mumkin. Buning uchun I–IV sinflardagi matematika o'quv materiallarini bilan V–VI sinf o'quv materiallari orasida uzilish bo'lmasligi kerak. Boshlang'ich sinf matematikasi davomi bo'lib yuqori sinf matematikasi davom etishi kerak.

IV -sinfni tugatib V -sinfga qadam qo'yg'an o'quvchi mateatika fanini yangi sirlari bilan tanisha boshlaydi. Bilim dunyosining yangi eshiklari ochiladi. Ana shu jarayonda V-sinfning 1-bobi "*Natural son*" mavzularini o'rgana boshlaydi. O'quvchi natural sonlar bilan Boshlang'ich sinfda tanishgan bo'lib, bilim va ko'nikmaga ega. Bu yerda natural son tushunchasi kengaytiriladi, chuqurroq va yangi tushunchalar bilan boyitilgan holda o'rgatiladi. Masalan: natural sonlarning bo'linish belgilari, EKUB va EKUK, manfiy sonlar, kasr sonlar va ularga oid misollar yechish, tenglama, tengsizliklar va boshqalar. Shu o'rinda yuqori sinf matematika o'qituvchisi va boshlang'ich sinf matematika o'qituvchisi o'rtasida ijodiy xamkorlik yo'lga qo'yilsa samarali natija beradi, deb o'ylaymiz

Boshlang'ich sinf uchun mo'ljallangan 1-sinf matematika darsligida quyidagi topshiriqlarga duch kelamiz: "*rasmda nechta yuk mashinasi bo'lsa bir qatorga shuncha katak bo'ya, rasmda nechta avtobus bo'lsa 2-qatorga shuncha katakni bo'ya*".

Bunday topshiriqlarni bajarish bolalarni ko'rsatilgan elementlar orasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatishga undaydi bu esa natural son tushunchasini shakllantirishda juda muhim hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot metodlari–qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarini olish usullaridir.

Kuzatish, tajriba, maktab hujjatlari bilan ishlash, o'quvchilar ishlarini o'rganish va taxlil qilish, suhbat va so'rovnomalar o'tkazish ilmiy–pedagogik tadqiqot metodlaridan hisoblanadi. Quyida boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodlaridan bir nechasini ko'rib chiqamiz.

O'quvchilar bilan matematik faqtlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega, natural sonlarning xossalari, arifmetik amallarning xossalarni, geometrik figuralarning xossalarini kuzatish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Arifmetik amallar va sonlarning ko'pgina xossalari boshlang'ich sinflarda kuzatish usuli bilan o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan 1-sinf o'quvchilari qo'shishning o'rin almashtirish xossasini kuzatish orqali tez bilib oladilar.

$$4+5=, 5+4=, \dots$$

1-sinf o'quvchilari bunday misollarni hisoblaganlaridan so'ng yechimlarni tenglashtirishni suraladi.

$$5+4=9 \text{ va } 4+5=9.$$

O'qituvchi bir xilda qo'shish amali bajarilganligi va qo'shiluvchilarni o'rin almashgani bilan natija o'zgarماسligi haqida ma'lumot beradi, o'quvchilar esa bu haqida dastlabki tushunchaga ega bo'ladilar.

Pedagogik tadqiqotda suhbat metodidan ham foydalanish mumkin. Bu metoddan foydalanish kuzatish metodidan olingan ma'lumotlarni to'ldiruvchi va aniqlovchi materiallar

olish, topshiriqlar bajarish imkonini beradi, metodning muvaffaqiyatli tomoni shundaki bolalar bilan aloqa o'rnatilishi, ular bilan bemalol erkin muloqot o'rnatish imkoniyatini orttiradi. Ushbu metoddan ota-onalar orqali xam foydalanish mumkin. Bu esa ota-onalarga o'z farzandi haqida to'liq ma'lumot olishiga yordam beradi.

Masalan: 100 ichida raqamlashni o'qitishda o'quvchiga qanday sonlar bir xonali va qanday sonlar ikki xonali ekanligini, undan keyin ikkita raqam bilan ifodalangan ikki xonali sonlar deyilishini tushuntirib o'tilishi lozim. Suhbat jarayonida nol raqami haqida to'liq ma'lumot berishga harakat qilish kerak.

1dan 9 gacha nechta son, 10 dan 99gacha nechta son borligini bayon qilish kerak.

Bayon qilish metodi ikki turga bo'linadi.

a) *Ko'rgazmali bayon qilish.* Bunda o'qituvchi yangi bilimni bayon qilish bilan birga uning haqiqiyilgini misollar orqali doskada tushuntiradi.

b) *Muammoli bayon qilish usuli,* o'qituvchi mavzuning muammosini qo'yadi va uni yechib ko'rsatib beradi. Masalan: 2-sinf matematika darsligida sonlarni ko'patirishni o'rgatishda ko'paytirishning o'rin almashtirish qonuni o'rgatiladi. Ko'paytuvchining o'rn almashib qolsa ko'paytma qanday o'zgaradi. Bu muammoni tushuntirishda ko'rgazmalardan foydalaniladi.

$$3 \times 4 = 12 \text{ yani } 3+3+3+3=12 \text{ yoki } 4 \times 3 = 12 \text{ yoki } 4+4+4=12.$$

Demak, o'qituvchi o'quvchiga ko'payuvchining o'rn almashirilgani bilan natija o'zgaraydi degan xulosaga kelishlari kerak.

Matematika o'qitish metodikasida mashq metodidan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'qituvchi yangi mavzu bilan o'quvchilarni tanishtirib, ularda bilim, ko'nikmasini mustxamlashda mashqlar tizimi, ya'ni ma'lum topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Mashqlar darslikda berilgan yoki o'qituvchi tomonidan tayyorlangan bo'lishi mumkin. Mashqlar mavzudan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin:

- ifodining qiymatni toping, taqsimlash, tenglamalar yechish, masalalar yechish va boshqa topshiriqlar berilishi mumkin. Ayniqsa turli didaktik o'yin sifatida tayyorlansa o'quvchilar qiziqishi ortadi.

Biz yuqorida taxlil qilgan bir qator metodlardan samarali foydalanilsa darsdan ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Darsdan kuzlangan natijaga erishishda mavzuni yoritishda ishlatiladigan ko'rgazmali qurollarni, o'qitishning innovatsion metodlarini tanlash, o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga ham bog'liq.

Matematika darsida faqat bilim beribgina qolmasdan o'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyalikni, atrofga tanqidiy qarashni, o'qishda tashabbuskorlikni, masuliyatli bo'lishni to'g'ri so'zlashni, muammoni yechimini topishga intilishni, hayotda o'z o'rnini topishga intilish kabi xislatlarni ham tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov M. va b. Birinchi sinf darsligi metodik qo'llanma «SHarq» 2005-y.
2. Bikbayeva N. Y. Ikkinchi sinf matematika darsligi Toshkent 2005-y
3. Jumayev M. E. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi» 2005-y.
4. Jumayev M. E. «Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi» Toshkent 2005-y.

Ismoilova Mahbuba Elamonovna
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Qarshi Davlat universiteti
(Qarshi, O'zbekiston)

VOKAL IJROCHILIGI DARSLARIDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISH

STUDYING ALISHER NAVOI'S WORKS IN VOCAL PERFORMANCE CLASSES

Annotatsiya. *Ushbu maqolada vokal ijrochiligi darslarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy g'azallari asosida yaratilgan romans va qo'shiqlardan keng foydalanish, talabalarning ovozi rivojlantirishga katta yordam berishi va Alisher Navoiy ijodini o'rganish natijasida talabalarda milliy qo'shiqlarni kuylashga qiziqishini oshirish borasida metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Romans, qo'shiq, musiqa, g'azal, klassik ashula, professional musiqa, nota yozuvi.*

Annotation. *This article provides songs based on the ghazals of the great thinker Alisher Navoi in vocal performance classes and methodological advice on the use of romances, the development of students' voices and the interest of students in singing national songs as a result of studying the works of Alisher Navoi.*

Key words: *Romance, song, music, ghazal, classical singing, professional music, note writing*

Ma'lumki jamiyat taraqqiyotining tub burilishida ilm-fan yuksak mavqe egallaydi. Shu bois bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda o'tmish madaniy merosimizni to'liq o'rganishga kirishilgan. Yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish, shu bilimlarni amaliyotga qo'llanish ko'nikmalari va mahoratini hosil qilish, ularning dunyoqarashini shakllantirish faqat faol faoliyat ko'rsatish natijasidagina amalga oshadi.

Mustaqil O'zbekistonimizni dunyoga tanitish, ertangi kunimizni yanada nurafshon qilish uchun bilim olib izlanayotgan yoshlarga ko'rsatilayotgan sayi-harakatlar albatta bir kun o'zining mevasini beradi. Respublikamiz Prezidenti va hukumatimiz rahbariyati xalq ta'limini rivojlantirishini yuqori bosqichlarga ko'tarish, yosh avlodni musiqiy iqtidorini yuksaltirishda dunyo tajribalarini o'rganish, hamda, ota – bobolarimiz boy madaniy merosiga tayanish, uni kengroq qo'llash borasidagi harakatlarni yanada yaxshilashga intilmoqda. Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri – o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlantirgan insonni yetishtirishdir. Shu o'rinda prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning ta'lim tarbiya haqidagi quyidagi fikrlarini eslab o'tishni lozim topdik. "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [Mirziyoyev Sh. 2017: 22]. Shunday ekan yurtboshimiz barcha pedagoglarga yosh avlodni bugungi zamon talablari asosida tarbiyalashni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Biz oliygohimizning 2-kurs talabalari uchun vokal va zamonaviy musiqa fanidan “She’riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiy ijodi”ga bag’ishlangan 2 soatlik dars mashg’uloti rejasini tuzib chiqdik. Mashg’ulot uchun o’zbek klassik musiqa merosimizdan Alisher Navoiy g’azali, Doni Zokirov musiqasi bilan “Ko’rmadim” romansi tanlandi.

Bunda asarning nasriy bayoni, g’oyaviy mazmuni, musiqiyiligi, ohang tuzilmasida o’zbek klassik musiqasiga xos qoida daromad, avj, chuqur avj, ritmik guruhlanish, shuningdek tasviriy vositalar, g’azaldagi misralar, so’zlar, bo’g’inlararo mutanosiblik, har bir unli tovushlarda talqin qilinadigan murakkab, yoqimli qochirim va sayqallarni aniqlash hamda tahlil qilish, shu tariqa talabalarda zarur axloqiy estetik sifat ko’nikmalarni shakllantirish maqsad qilib qo’yildi.

Ushbu qo’shiq - romans, xalq ichida sevib aytiladigan asarlardan bo’lib, kuylash vokal-musiqiy qobiliyati yetuk (professional) darajadagilarga tavsiya etiladi. Romans shoshilmasdan, yumshoq, yoqimli ovoz bilan (ayniqsa “daromad” qismida) ijro etilib, sekin – asta ovoz quvvatini oshirib avj qismiga o’tiladi va yana daromad qismiga o’xshashlik bilan tamomlanadi. Uzlaksiz ovoz bilan nafasni tejab nola va qochirimlardan foydalanib kuylamoq lozim. [Qahhorov N. 2008: 118]

Mashg’ulotimiz talabalarning maxsus tayyorgarligi romans kuyining hamda g’azalining muallifi hayoti, u yashagan ijtimoiy siyosiy hayot, musiqa haqidagi tasavvur va bilimlarni nazarda tutgan holda olib boriladi. Biz quyida Alisher Navoiy g’azali bilan aytilgan “Ko’rmadim” romansini qanday qo’shiqchilarimiz kuylab o’tishgani va mashg’ulotni o’tkazish uchun qanday tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish lozimligini bayon qilamiz.

1. Adabiy – musiqali ko’rgazma:

a) Navoiyning lirik devonlari “Qaro ko’zum”, “Topmadim” va besh tomlik “O’zbek xalq muzikasi” kitobi tomlari.

b) Talabalarning Alisher Navoiy asarlariga chizgan suratlari.

v) Navoiy bo’lgan joylar xaritasi.

2. Mashg’ulot rejasini.

a) O’qituvchining kirish suhbatini (klassik adabiyot va professional musiqa ijodiyoti haqida).

b) Ashulani eshittirish.

v) G’azalni o’qish, tekst ustida ishlash va mazmunini o’rganish.

g) Romansdagi badiiy, musiqiy, tasviriy vositalarni aniqlash.

d) Romansni badiiyiligi va xalqchilligi.

e) Romansni takroran eshittirish.

3. Mashg’ulotning maqsadi.

a) Romans mazmunini o’rganish.

b) Talabalarda ushbu qo’shiqni o’rgatish asosida lirik tuyg’ularini hamda musiqani idrok etish hissini rivojlantirish.

4. Mashg’ulot materiallari.

a) Qo’shiqni birinchi o’qituvchining o’zi fortepiano jo’rligida jonli ijro etib beradi, so’ngra gram yozuvda Halima Nosirova ijro etgan ushbu qo’shiqni talabalarga tinglatadi.

b) G’azal teksti, vazni, lug’at va izohlar, ashulaning nota yozuvi, undagi bezak elementlari videoproektor orqali namoyish etiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Navoiy g'azallari yuzasidan savol javoblar qilingach, talabalardan biri shoir g'azali bilan kuylanadigan "Aylagach", yoki "Sharob" singari birorta qo'shiqni kuylab bersa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi yangi mavzuni kirish so'zi bilan boshlab, buyuk bobimiz Alisher Navoiy XV-asr ijtimoiy muhitida kamol topganligi, ulkan mutaffakir va gumanist olim sifatida o'z asarlarida insonning mehnatsevarligi, axloqliligi va donishmandligini yuqori baholaganligi, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni, do'stlikni, sof sevgi-muhabbatni ulug'laganligi, inson go'zalligini xalqparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etganligini qisqacha hikoya qilib beradi. Alisher Navoiy o'zi yashagan davr musiqa ilmining bilimdonlari, sozandalari, Hofiz Qozoq (mohir qonunchi), Pahlavon Muhammad, Ustoz Said Ahmad (xushshubat g'ijjakchi), Mutaxxari Udiy va Qulmuhammad Udiy (ud cholg'u asbobini benazir ijrochisi), Ustod Shayx Noiylar (naychi) bilan yaqindan muloqotda bo'lganligi, "Mahbub-ul-qulub" ("Ko'ngillar sevgani"), "Farxod va Shirin", "Layli va Majnun" asarlarida insonning quvonchli va hasratli lahzalarini musiqiy ohangda mahorat bilan tasvirlanganligi, musiqa san'atini insonning ma'naviy kamolotida hal qiluvchi vositalardan biri deb bilganligini bayon qiladi. Bulardan tashqari "Sabbai sayyor" asarida Diloromni go'zal va sohibjamol, sadoqatli mahbuba, mohir sozanda hamda xushovoz xonanda sifatida gavdalandirish buyuk mutaffakir musiqa ilmining chuqur bilimdoni bo'lganligini ko'rsatishini alohida ta'kidlab o'tadi.

O'zbek klassik ashularining musiqiy qurilmasi g'oyat hayotiy, ular mashg'ulot tarzida ijro etilganda ham insonning ichki hissiyotiga ma'nalan ta'sir eta oladi. Binobarin Navoiyning "Ko'rmadim" romansida ifodalangan shoirning his-tuyg'ulari voqea va hodisalar haqidagi tasavvurimizni qaytadan tiklab qalbimizda yangi bir go'zallik olami yaratish qudratiga ega ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Mashg'ulot qisqacha so'z bilan yakunlanadi. Mazkur qo'shiq insoniy tuyg'ularga boyligi, hayotiyiligi, haqqoniyiligi, badiiy tafakkurining teranligi, mukammalligi bilan Navoiy ijodining emas balki ko'p asrluk she'riyatimizning, musiqamizning eng nodir namunalaridan biri ekanligi va hali ko'p zamonlar qo'shiq muxlislarini o'ziga rom etishini uqtirib o'tiladi. Mashg'ulot 2-kurs talabalarini klassik musiqa madaniyatimiz durdonasi bilan yaqindan tanishishga, ularda ilgari surilgan mazmun ifoda vositasida fidoiylik, odamiylik, poklik kabi insoniy fazilatlarni namoyon qilishga ko'maklashadi. Shunday qilib yoshlarni musiqa va qo'shiq san'ati asosida tarbiyalash murakkab izchillik talab qiladigan ish. Biroq bu ishni to'g'ri yo'lga qo'ymay turib yoshlarni barkamol ruhda tarbiyalab bo'lmaydi. Kuy qo'shiq inson ma'naviyatini yanada boyitadi, uni go'zallik, muhabbat, yaratuvchanlik olamiga chorlaydi. Qo'shiqni qudrati beqiyos. U faqat shoir, bastakor, xonanda va sozandaning shaxsiy o'y fikrlarini emas balki xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini ifoda etadi.

Shunday qilib, yosh avlod qalbida musiqa san'atiga, ayniqsa qo'shiq kuylashga bo'lgan qiziqishini qondirish, vokal pedagoglari oldida mas'uliyatli fazifani qo'yadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi alohida o'rin tutadi. Shu bois vokal ijrochiligi darlarida talabalar ovozi rivojlantirishda Hazrat Alisher Navoiy g'azallari asosida yaratilgan qo'shiqlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining

- 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. Toshkent, "O'zbekiston". 2017 yil. 22-bet.
2. Qahhorov N. Vokal asoslari. Darslik. Toshkent, "Iqtisod - moliya" 2008 yil, 118- bet.
 3. Ismoilova M.E. Vokal o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Musiqqa" nashriyoti 2011-yil. -65 bet.

Jumaniyozova Muhabbat Xo‘sinovna
UrDU dotsenti, f.f.n.,
Sharipova Guloy Olimboyevna
UrDU Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang‘ich ta‘lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistri
(Urganch, O‘zbekiston)

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHNING METODIK JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy asar matni ustida ishlash va uning metodik jihatlari haqida so‘z boradi. Unda badiiy matn ustida ishlashda e‘tiborga olinadigan metodik jihatalar belgilab beriladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish darsi, badiiy asar, badiiy matn, matn ustida ishlash, ifodali o‘qish, og‘zaki qayta hikoyalash, sahnalashtirish.

Аннотация. В статье рассматривается работа над текстом художественного произведения в начальной школе и ее методологические аспекты. Выявлены методологические аспекты, которые следует учитывать при работе над художественным текстом.

Ключевые слова: начальное образование, урок чтения, художественное произведение, художественный текст, работа над текстом, выразительное чтение, устный пересказ, постановка.

Annotation. This article discusses the work on the text of the work of art in elementary school and its methodological aspects. It identifies methodological aspects that should be taken into account when working on a literary text.

Key words: primary education, reading lesson, work of art, literary text, work on the text, expressive reading, oral retelling, staging.

Boshlang‘ich sinflardagi ona tili ta‘limi sohasining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda og‘zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o‘stirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni o‘stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yengib olish qobiliyatlarini o‘stirish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar tabiat va jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning o‘tmishi, hozirgi yashash tarzi haqidagi asarlar bilan tanishadilar. O‘quvchilarga tabiat, ob-havo, tabiiy boyliklar, hayvonot va o‘simliklar dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim olish jarayonida munosabat uyg‘otiladi. Bilim berish bilan o‘quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. Sinfda o‘qish darslarida ta‘lim- tarbiya vazifalari chambarchas holda hal qilinadi.

O‘quvchilarning ijobiy sifatleri shakllantiriladi. Ular aqliy va estetik jihatdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar. Bularning hammasiga boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklarida berilgan turli janrdagi va hajmdagi, turli mavzu

va mazmundagi asarlarni o'qish jarayonda erishiladi. Shu bois bu asarlarni o'qib-o'rganish jarayonini to'g'ri tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ayniqsa, badiiy asar namunalarini juda sevib o'qiydilar. Badiiy asarni o'rganish hayotni obrazlar orqali anglashga yordam beradi, bolalar qalbida chuqur iz qoldiradi. Badiiy asar bolalarni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ularning axloqiy va estetik tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi.

She'r, hikoya, masal, ertak, topishmoq kabi turli janrlardagi badiiy asarlarni o'qish o'quvchilarda adabiyot va ona tiliga muhabbatni o'stiradi.

Adabiy asardagi obrazlar xarakterini, shu asarning ruhini tushunishni istagan har bir kitobxon uning to'liq mazmuni bilan tanishib chiqishi lozim bo'ladi. Shuningdek, badiiy asarni tushunishi uchun uni tahlil ham qila bilishi muhim sanaladi. Binobarin, boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasida badiiy asar ustida ishlash, uning matnini tahlil qilish masalasi dolzarblik kasb etadi.

O'quvchilar ongida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvur va tushunchalarini to'g'ri shakllantirish uchun ularning yoshi va bilim saviyasi hisobga olinishi talab etiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qilgan matnning mazmunini mustaqil ravishda tushunish malakasi yana ham kuchaytiriladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklaridagi materiallar tevarak-atrofdagi hayot, kishilarning o'zaro munosabatlari, respublikamiz kishilari ma'naviy qiyofalari, ularning ona-Vatan hamda borliq haqidagi tushuncha-tasavvurlarini kengaytirish orqali bolalarning bilim va ko'nikmalarini har tomonlama taraqqiy ettirish, saviyalarini kengaytirishni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari matn ustida ishlashda quyidagi malakalarga ega bo'lmog'i lozim:

- o'qilgan asar namunasidagi voqeaning izchillik bilan rivojlanib borishini kuzatish;
 - matn qismlarining mazmunan bir-biriga bog'lanishni belgilay olish;
 - o'qilgan matn mazmuniga mos reja tuzish;
 - kitobdan o'qilgan matnda ishtirok etuvchilar haqida so'zlash uchun material tanlash;
 - matn qahramonlarining xatti-harakatiga baho berish;
 - o'qilgan matn qahramonlari haqida hikoya tuzish;
 - matn mazmunini mustaqil tuzilgan reja asosida qisqacha so'zlay olish;
 - matndan asosiy fikrni mustaqil ravishda ajrata olish;
 - matnda uchragan so'z ma'nosidagi farqni ajrata bilish;
 - tabiat va kishilarni xarakterlash uchun zarur bo'lgan obrazli so'z va iboralarni matndan tanlash;
 - o'qilgan ertak, masal, hikoya, she'rlar haqidagi tushunchalarini umumlashtira olish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qilgan matnning mazmunini mustaqil ravishda tushunish malakasi yana ham kuchaytiriladi.

Asar matni bilan tanishtirishning bir necha usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi (ba'zan asar matni magnitafon orqali ham eshittirilishi mumkin). o'quvchilar matn mazmuni bilan tanishtirilgach, o'qituvchi ularga boshlag'ich taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi. Masalan, «Hikoyaning qaysi o'rni sizga yoqdi?», «Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?»,

«Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz?» kabi va h. Kirish suhbat, birinchidan, asarning o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini bilish, ikkinchidan, bolalarni asar matnini tahlil qilishga qiziqtirish, darsda o'quvchilar faolligini oshirish maqsadini ko'zda tutadi.

2. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga o'qitish. O'quvchining oldindan o'qituvchi o'qish yo'llari bilan tanishtiradi va uning o'qishini o'zi kuzatadi, xato va kamchiliklarini bartaraf etadi. Shundan so'g tayyorlangan o'quvchi sinf jamoasiga o'qib beradi.

3. Og'zaki qayta hikoyalab – so'zlab berish. Bu o'qituvchidan alohida tayyorgarlikning talab etadi. Chunki asar matniga yaqinlashtirib, badiiy vositalarini to'liq saqlagan holda hikoyalash zarur, aks holda o'quvchilarning badiiy asarni o'qishga bo'lgan qiziqishi susayadi.

4. Yoddan ifodali aytib berish. She'riy asarlar yoddan aytib berish orqali tanishtirilsa, o'quvchi o'qituvchining mahoratini yuqori baholaydi. O'zida ham yod olishga qiziqish paydo bo'ladi.

5. Asarning muhim dialogli o'rinlarini yoki butun asarni sahnalashtirish orqali tanishtirish.

6. Asarning bir qismini (muammoli o'rniga) o'qituvchi o'qib beradi. Qolgan qismini o'quvchilar ichda mustaqil o'qiydilar.

7. Asar musiqa sadolari ostida o'qib berilishi ham mumkin. Bu asarning ta'sirini kuchaytiradi, o'quvchilarning estetik didini tarbiyalaydi, ularni toliqishdan saqlaydi.

Umuman, asarning janriy xususiyati hisobga olingan holda u bilan tanishtirishning o'ziga xos usullarini tanlash lozim.

Dastlabki bosqichda matnni yaxlit idrok etish orqali asarning umumiy mazmuni bilan tanishadi, muayyan sujet chizig'i o'rganiladi, asarning emotsional ta'siri aniqlanadi. Keyingi bosqich esa tahlil jarayonini boshlab beradi. Uning mazmuni quyidagi talqinni o'z ichiga oadi:

1. voqealar rivojidadagi imkoniyat, sabab va natija orasidagi bog'lanishni belgilash;
2. asardagi timsollarning axloqiy fazilatlarini va nuqsonlarini aniqlash;

• asar kompozitsiyasi (ekspozitsiya, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, yechim)ni ochish;

• asarning g'oyaviy mazmunini tasviriy vositalar ishtirokida tahlil qilish va obrazlar xulq-atvorini baholash.

So'nggi bosqich o'quvchilarda erkin fikrlash, asardagi shaxslar- ning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, ularni taqqoslash va baho berish, asarning g'oyaviy yo'nalishini aniqlash, badiiy bo'yoqlarda hayotiy voqealarning suratlanishini anglash, ma'lum muammolarni hal etish kabi tushunchalarni paydo qiladi.

O'rganilayotgan badiiy asarni idrok etish uchun o'qituvchi matn ustidagi yakunlovchi ishlarni o'quvchi ham hayotiy tajribasi bilan bog'laydi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini aniqlaydi, fikr-mulohazalarini teranlashtiradigan usulga murojaat qiladi. Chunonchi, o'qituvchi Safar Barnoyevning «Bobonur» hikoyasini (3-sinf) o'qish-o'rganishdan awal o'quvchilar bilan qisqacha suhbat o'tkazadi va Vatan osoyishtaligi, askarlik burchi, rizq-nasibaga doir milliy udumimiz haqida so'zlab, Niginaning askar akasidan kelgan xat va uning ichidagi rasmdan suyunganligi sababini tushuntiradi. Hikoyadagi Sabriya bibining nasiba uzilmasligi, rizq butun saqlanishi uchun patir yopib, yaxshi niyat bilan Bobonurga tishlatgani,

mamnun askar Samarqandga harbiy xizmat o'tayman, deb ketganligi o'quvchilarda faxr tuyg'usini uyg'otadi. Kitobxon nima uchun Sabriyaning chehrasi yorishganini, bibi qishloq yigitlariga yopgan patirini uzatib: «Mana, buni issiqligida tishla, bolam, nasibang doimo butun bo'lsin!» degan samimiy tilagini aniq his qiladilar, yurtimiz mustaqilligi mustahkamlanib borishi to'g'risidagi hikoya g'oyasini teran anglashga muyassar bodadilar.

O'qish darslarida o'rganilayotgan badiiy asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o'quvchilar faollashadi, madaniy-ma'rifiy saviyasi rivojlanib, fikri boyiydi va:

a) badiiy asarda tasvirlangan faktlarni hayotiy kuzatishlari bilan bog'lay olishga o'rganadi;

b) yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqadi, boshqa asarlarini topib o'qishga intiladi;

d) asarning emotsional ta'sirini ilg'ab oladigan bo'ladi;

e) nutq odobi shakllanadi hamda so'z qodlashda uning leksik ma'nosiga ahamiyat berishi kuchayadi.

Darhaqiqat, o'quvchi uchun badiiy asar tahlili ijodiy jarayondir. Bu jarayon uning axloqiy sifatlarni mukammallashtiradi. Komil tarbiyaga erishishda asosiy omillardan biri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
3. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent, «O'qituvchi», 1992.

Atajonova Jumaniyazovna Anorgul
UrDU dotsenti, f.f.n.,
Mamatsoliyeva Firuza Ilhom qizi
UrDU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistri
(Urganch, O'zbekiston)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING ADABIY
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASAR USTIDA ISHLASHNING METODIK
SHARTLARI**

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asar ustida ishlash orqali o'quvchilarning adabiy tushunchalarni shakllantirish masalasi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, o'qish darsi, adabiy tushuncha, badiiy asar, badiiy matn, tahlil qilish, badiiy til vositalari, nutq o'stirish.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается вопрос формирования у учащихся литературного понимания, работая над произведением искусства в начальной школе.*

Ключевые слова: *начальное образование, урок чтения, литературная концепция, художественное произведение, художественный текст, анализ, средства художественного языка, развитие речи.*

Annotation. *This article addresses the issue of shaping students' literary understanding by working on a work of art in primary school.*

Key words: *primary education, reading lesson, literary concept, work of art, literary text, analysis, means of artistic language, speech development.*

Hozirgi davrda yosh avlodga davr talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya berish eng dolzarb vazifalardan biridir. Chunki hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini yosh avlodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday deb ta'kidlagan edi: "Biz yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunni yangi tahrirda qabul qildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda". Bu dolzarb vazifani amalga oshirishning birdan – bir yo'li ta'lim standart tizimini tinmay takomillashtirish orqali yosh avlodni ilm – fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy – axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiy rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar boshlang'ich sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda boshlang'ich sinfda o'quvchilar adabiy tushunchalarini

shakllantirib borishni metodik jihatdan takomillashtirib boorish muhim hisoblanadi. Shu bois takroriy bayon qilish mashqlarini kamaytirish, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlarni ko'paytirish, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlashga e'tibor qaratish, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi orttirish, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta'limda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanish dolzarb sanaladi. Ma'lumki, sinfda o'qish metodikasining taniqli rus metodist-olimlari T.G. Ramzayeva, M.S. Vasilyeva, V.G. Goreskiy, K.T. Golenkina, L.A. Gorbushina, M.I. Omorokova, E.A.Nikitina, N. S. Rojdestvenskiy, o'zbek olimlaridan A. Zunnunov, K. Qosimova, Q. Abdullayeva, S. Matchonov, M. Yusupov, M. Umarova, X. G'ulomova kabil bir qator vakillari bor, ular ishlab chiqqan metodlar takomillashtirilib, ulardan ijodiy foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, sujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faol lashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfda o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boriladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir

turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning nutqini o'stirish ham muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq bilan birga badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a bilan ham amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlaniriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir sujetligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

- Sinf «O'qish kitobi»da keltirilgan «Hakka bilan tulki» ertagida «Tulkiga xuddi urib ezilgan go'shtday nasib etsin», «Uch o'rtoq» ertagida «U jon achchig'ida ma'rab yubordi» kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar juda ko'p. Ular ustida ishlash o'quvchi nutqini o'stirish bilan birga ularni fikr yuritishga, mulohaza qilishga ham o'rgatadi.

Ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

- sinf «O'qish kitobi»dan o'rin olgan «Ayamajiz» (Qudrat Hikmat) she'rida «Bo'ralar qor kapalak», «Bog'lar sokin mizg'ishar, Misoli oq kapalak», «Muz oynalar sovuq yeb» misralarida o'xshatish, jonlantirish; «Saxiy ona tabiat», «quchog'ida havo sof» misralarida metafora; «Ayamajiz izg'iydi, Ko'chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog'izdek yutoqib» kabi misralarda jonlantirish va o'xshatishlar qo'llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- *Shoir qorni nimaga o'xshatadi? (oq kapalakka).*
- *Ayamajizni nimaga o'xshatadi? (Yalmog'izga).*
- *«Muz oynalar sovuq yeb» misrasini qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotadimi?*

Darslikning «Kumush qish» bo'limida «Qish» matni berilgan. Ushbu matnda ham ko'plab jonlantirishlar qo'llangan. Masalan, «hamma yoqda sovuq izg'irin kezadi», «Ingrar og'riq kabi qari tol, oynalarni bezar qish – gulkor», «Daraxt kurtaklari rohatlanib uxlamog'ida», «hozir umg'lar tinch uyquda» kabi. Matn tahlilida «Matnning birinchi qismini o'qing. Unda qaysi so'z o'z ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llangan?» yoki «Matnning ikkinchi qismida jonsiz narsalar jonlidek tasvirlangan o'rinlarni topib o'qing. Boshqa ma'noda qo'llangan so'zlarni o'z ma'nosida qo'llab gap tuzing. Bu so'zlar qanday ma'noda qo'llanganda ta'sirchan bo'ladi?» kabi savol- topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Maqol janrida ham ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi. Misol uchun «Yurt boshgici ish tushsa, Er yigit hozir» maqolida boshiga so'zi metafora yo'li bilan ma'nosi

ko'chgan, o'quvchilarga lining ma'nosi qanday usul bilan ko'chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma'noda qo'llanganligi o'z ma'nosi bilan taqqoslangan holda o'quvchilarga o'rgatiladi.

Topishmoqlarda ham jonlantirish va o'xshatishlar juda ko'p. Masalan, «Ayoz bobo novvot sotdi, Olgan edim, qo'lim qotdi» topishmog'ida o'xshatish, «Chiq-chiq» ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi» topishmog'ida jonlantirish qo'llangan.

«O'jar toshbaqa» masallarida ham badiiy til vositalari mavjud. Xususan, unda «O'g'irlik mol aylar jonsarak», «Bola ko'nglin ko'tarar», «Kosang joningga huzur», «Senga qalqon usti-bosh», «Parcha go'sht bo'lib yurar», «Jish Toshbaqa» kabi ibora, birlikma va gaplar uchraydiki, ular ustida ishlashda «Bunday majorolar qachon va kimlar orasida bo'lib o'tishi mumkin?», «Ularga hayotdan misollar keltiring» kabi topshiriqlar berish, ulardagi ma'noni boshqacha yo'sinda bayon ettirish, o'zaro taqqoslash, ta'sirchanligidagi farqni aniqlatish katta ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Masalan: «Bola ko'nglin ko'tarar» – Bolasiga yaxshi gaplar gapirar, «Kosang joningga huzur» – Kosang joningni, sog'lig'ingni asraydi» kabi.

O'qish kitoblarida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Istalgan asarning obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, dalillar va ularning bir-biriga ta'siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi. O'quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

O'qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o'rganishni aniqlashi.
5. O'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Ko'rinadiki, o'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi hamda o'quvchilarning adabiy tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi (22-dekabr 2017-yil). - Toshkent:“O‘zbekiston”, NMIU, 2018.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent, «Nosir», 2009
3. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

Rakhmonova Makhfuza Kholmurodovna
candidate of pedagogical sciences
Karshi State university
(Karshi, Uzbekistan)

MORAL AND ETHICAL HERITAGE OF THINKERS OF CENTRAL ASIA AND EAST

Abstract. *The article substantiates the spiritual foundation of our people - the spiritual heritage left by our ancestors, which in itself is priceless. A conscious understanding of the work and with the pedagogical heritage of the great thinkers of the East leads to the spiritual revival of the people, the development of culture, science and education. The rich heritage of scientists and thinkers of the East is also revealed, which is the basis for the formation of the professional level and culture of the future teacher. Great figures of the East - al-Kharazmi, al-Farabi, al-Beruni, Firdovsi, Avicenna, Yusuf Khas Hajiba, Kaikus, A. Yugnakiy, Amar Khayyam, Amir Temur, Ulugbek, Navoi, Jami, Kashifi, Babur, Uvaisiya, Nadira, Kashgari, Behbudi, Avloni, Furkat, Mukimiy, on the ways and means of education and vocational training.*

Key words: *Popular enlightenment, spiritual treasures of ancestors, folklore, folk sayings, proverbs, stories, retellings, traditions, legends, fairy tales, edification, proverbs, sayings, high morality, human moral code*

Рахмонова Махфуза Холмуродовна
кандидат педагогических наук
Каршинский государственный университет
(Карши, Узбекистан)

МОРАЛЬНО- ЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ И ВОСТОКА

Аннотация. *В статье обосновывается духовная основа нашего народа - духовное наследие, оставленное нашими предками, которое само по себе бесценно. Сознательное понимание работы и с педагогическое наследие великих мыслителей Востока ведет к духовному возрождению народа, развитию культуры, науки и образования. Также раскрывается богатое наследие ученых и мыслителей Востока, которое является основой формирования профессионального уровня и культуры будущего учителя. Великие деятели Востока – аль-Харазми, аль-Фараби, аль-Беруни, Фирдовси, Авиценна, Юсуф Хас Хаджиба, Кайкаус, А. Югнакий, Амар Хайям, Амир Темур, Улугбек, Навои, Джамии, Кашифи, Бабур, Увайсия, Нагира, Кашгари, Бехбуди, Авлони, Фуркат, Мукумий, о путях и средствах образования и профессиональной подготовки.*

Ключовые слова: *Народное просвещение, духовные сокровища предков, фольклор, народные поговорки, пословицы, рассказы, пересказы, предания, легенды, сказки, назидания, пословицы изречения, высокая мораль, моральный кодекс человека*

Introduction

It is accepted among the people that the mental development of children is put forward as an important measure of spirituality (remember the Uzbek fairy tale "The mind is already happiness"). Folklore is always aimed at the intellectual development of the younger generation (fairy tales, riddles, tongue twisters, etc.). Folk pedagogy and the physical development of children cannot be separated (how many games, fun, sports, national sports - wrestling, horse racing, etc.). In folk literary works, there is great concern for the health of the younger generation, a hymn to physical strength, endurance, stamina, etc.

The idea of improving the human personality is an important goal of public education. Since man is "the highest, most perfect and most excellent creation", he is capable of self-improvement, and this is the highest value of human nature. The idea of harmonious personal improvement, according to Russian pedagogy, is rooted in the very nature of man and in the nature of his activities with a sense of beauty. In oral folk literature, the heroes are characterized by precisely these aspects of the personality, testifying to the wealth of human nature. So, in the folk works of the Uzbek people, the heroes are given capacious characteristics ("smart - beautiful", "smart, beautiful, hardworking, honest, modest"). And national dignity is always emphasized ("Be so that you are judged"...); The idea of international rapprochement is also laid here.

The beauty of the human personality of the ideal hero of Uzbek folk tales is unforgettable and strongly influences the child. It is known in Uzbekistan that the commandment of such wonderful human qualities, born of the works of national literature: good intentions, kind words, good deeds, living in every family today, is the main guideline in the upbringing of schoolchildren at school. In upbringing, as in the whole process, complex measures of influence on children and a complex of forms of organization of their life, work and activity were used. For example: the main purpose of the puzzles is mental education; proverbs and songs - moral and aesthetic education; fairy tales - mental, moral and aesthetic education (synthetic means). The game is a practical pedagogy.

Research Goal.

These genres of folklore are united and interconnected within the framework of the entire upbringing and development of the younger generation and represent a powerful educational complex. The solution to the problem of the general development of the personality, especially of the future teacher, is impossible without an attitude to the spiritual treasures of the people. Therefore, in the empirical part of the study of folklore, in domestic pedagogy as a whole, a certain attention and a corresponding role is given to the development of the personality of the future teacher.

It must be emphasized that without the study and application of national pedagogy, there can be no full-fledged upbringing of the individual, because in national pedagogy there are ideas about a perfect person, about universal human values, about the humanistic heritage of national culture. Historical research of the moral and aesthetic education of domestic pedagogy is aimed at meeting social needs and understanding the role of the masses in the pedagogical process.

The identification of transient pedagogical values created by people is necessary both for pedagogical science and for pedagogical practice. When studying domestic pedagogy,

pedagogical science learns its roots and itself through the comparison of scientific and elementary-empirical pedagogical knowledge; pedagogical practice receives the means, methods, forms of education, etc., verified by historical experience. This practically assimilated pedagogical heritage of the past is an integral part of the national education system and, in revenge, the rich heritage of Eastern scientists and thinkers underlies the formation of the professional level and culture of the future modern personality.

Great thinkers of the East - al-Kharazmi, al-Farabi, al-Beruni, Ferdowsi, Avicenna, Yusuf Khas Hajiba, Kaikus, A. Yugnakiy, Amar Khayyam, Amir Temur, Ulugbek, Navoi, Jami, Kashifi, Babur, Uvaisiya, Nadira, Kashgari, Behbudi, Avloni, Furkat, Mukimi, and many others left their unshakable mentors regarding pedagogical judgments and principles, including those concerning personality, teacher and student, methods and means of education and training for centuries.

In the worldview of Eastern thinkers there is tremendous spiritual strength, vitality of concepts, continuity of principles, fields of pedagogical thinking, high humanism, patriotism, truthfulness and peacefulness.

Abu Nasr al-Farabi, in his works, talk about the upbringing of a comprehensive developed personality and the improvement of a person. His philosophy is to bring up the perfect man. He explores a wide range of issues of training and education, the role of the teacher in the educational process. (Al-Farabi, 1970, p. 135).

The main provisions of Farabi's pedagogical teaching:

- moral education and intellectual qualities in many ways guarantee the achievement of the highest perfection;
- correct moral education begins with the education of noble traits and qualities;
- the student achieves this with the development of obvious moral norms of behavior and practical skills in mastering the art (craft), in which moral examples of behavior and actions are of great importance;
- this education depends on the environment, the will and desire of educated people, as well as the social orientation of educational activities; In this case, the following methods are used:

- teaching theoretical concepts and education of ethical virtues, the method of persuasion (words), affecting the feelings, as well as an individual approach.

The teacher must have such qualities as: absolute perfection of the senses, logic, phenomenal memory, subtle observation, brilliant speech, love of knowledge; abstinence from food and drinks, indifference to money;

- justice, courage;
- virtue.

The pedagogical views of Abu Nasr al-Farabi, implemented in the process of developing the personality of the future teacher.

- on the upbringing of the personality of the future teacher:

1. Comprehensive development and improvement of the human personality, future teacher:

- moral education (obvious moral norms of behavior); positive (noble) properties and qualities;

- spiritual needs that determine the main character trait;
- intellectual development;
- theoretical knowledge, the need for them;
- practical skills necessary in life, training;
- an example of the behavior and actions of a socially significant person (including the teacher too);
- desire, will and environment in the upbringing of the individual;
- socially purposeful educational activity to obtain certain positive qualities person;
- an individual approach to personality education.

1. Methods: verbally - persuasion.

2. Requirements for the teacher:

- logic, phenomenal memory, observation, brilliant speech, love of knowledge, justice, virtue. Abu Ali Ibn Sina (Abu Ali Ibn Sina, 1980, p. 109. Selected works) His pedagogical views are based on the following questions:

- belief in human abilities (all-round development);
- education of a perfect, full-fledged person;
- a creative approach to pedagogy;
- the content of upbringing, education and training;
- pedagogical and didactic principles;
- educational process, the principles of this process;
- collective learning;
- education (moral, mental-intellectual, aesthetic, physical, labor), its principles, system, goal, objectives, content;
- morality (high moral qualities of the younger generation) is the main subject of education and a significant result, its purpose, content;
- upbringing, development and formation of high human qualities in the younger generation, including friendship and camaraderie;
- raising children in a family;
- an individual approach to educated and learning;
- methods of teaching and upbringing;
- requirements for the teacher.

Ibn Sino paid great attention to the role of a teacher and educator (for a person who is educated from the age of 6). He argued that a teacher should be honest, wise, fair, accurate, and polite.

Ibn Sino's requirements for teachers:

- Moderation in dealing with children;
- student's attention to the implementation of teaching - knowledge;
- using a variety of methods and forms of work with children;
- taking into account the individual characteristics of each child;
- children's interest in their (pedagogical) activities;
- so that the teacher's thoughts are available to all students – accompany every word with the help of facial expressions and gestures, so these techniques cause emotional experiences in children.

Pedagogical provisions from the works of Abu Ali ibn Sinaserve as methodological guidelines in solving the problem of the development of the personality of the future teacher.

On the education of the teacher's personality:

1. Raising the ideal person:

- using the capabilities of the individual;
- focused on the constant study of science, striving for excellence;
- to accept and implement the principle: to live not only for oneself, but also for others;

- creative approach to their work;

- high moral qualities.

1. Methods: conversation, especially in private with the student; sentence; example of a teacher.

2. Requirements for the teacher:

- to know the nature of the child, his soul, individuality, to see him as a person;
- to believe in the child's abilities and to reveal them to the limit;
- moderation in relationships; subtlety and tenderness;
- humanism and confidence in the upbringing of a full-fledged personality;
- remember that morality is the main subject of education;
- to observe the implementation of the knowledge gained by the student;
- apply a variety of methods and forms of work with children; to interest children in their activities;

- be accessible to students (use words, facial expressions, gestures).

Omar Khayyam (Abbasova O. 1985. p. 251. Antalogy of pedagogical meaning in Uzbekistan) The goal of education was to form for him a sane person with a shrewd mind; able to think - in this he saw, first of all, the mental and intellectual potential of the individual. He considered it necessary to form the positive qualities of a person, gradually, consistently argued that if a person does not have good qualities, he must work them out on his own, and from negative ones - with the help of willpower.

For Omar Khayyam, habits, thinking, understanding - the main thing in education. He is for correct, clear thinking and intelligence, discipline and constant work on oneself; nurturing willpower to achieve positive results In our study, we consider the following pedagogical positions of Omar Khayyam:

- the formation of a reasonable teacher;
- formation and self-education of positive qualities (future teacher);
- discipline and the inclusion of willpower in the process of self-education to achieve the goal;

- In upbringing, the main thing is understanding, thinking, habits.

Alisher Navoi. (A.Navoi, 1968. p.234 Nazmul-Javohir) The main pedagogical ideas of Navoi are as follows:

- humanism, respect for the individual;
- internationalism - respect not only for oneself, but also for other people;
- nature as a means of improving human health;
- enlightenment;

- knowledge is a decoration of a person;
- the main thing is cognitive abilities - to comprehend reality;
- the need for knowledge and understanding of the reality of sensations, reason (thinking) and - sensory data, which reflect sensations and reason;
- knowledge - for others;
- to educate positive personality traits (charity, kindness, politeness, courtesy, modesty, restraint, generosity, disinterestedness, lack of envy, hard work);
- requirements for the teacher.

A significant place in the pedagogical work of Alisher Navoi is requirements for the teacher. Such a statement of the great thinker can serve as the main epigraph: "Knowledge and wisdom adorn a person." However, Navoi emphasizes the following: mastering the sciences and crafts is not an end in itself: "They should be useful to the people, because the one who received knowledge and did not apply it is like a peasant who plowed a field, but did not sow." Unconditional, according to Navoi, love for students: "The main thing is love for children. Ignorance of the teacher is a big trouble for the school. A teacher should not only perfectly know his subject and have deep knowledge, but also understand the needs of people, set an example for them themselves." And this is absolutely true, since Navoi believes that the main thing is respect for a Person, who is the highest and most valuable gift of nature: friendliness to him (giving rise to a feeling of friendship, duty), politeness, respect (weaning from ridicule and bullying) - all these qualities give birth to HUMANISM from capital letters.

Navoi for moral and labor education, but with the appropriate knowledge of the teacher: "... a teacher should not... try to teach what he himself does not know,... should not do what is not allowed. Otherwise, he is not a teacher... ". So, the teacher is obliged to perfectly know his subject, his work, and the duty of the school is to give students versatile knowledge.

Alisher Navoi's pedagogical ideas, which are included in the methodological basis for solving the problem of integral development of the personality of a future teacher in the process of vocational training.

1. Requirements for the personality of the Teacher:

- respect for man - for the highest and most valuable gift of nature (humanity);
- enlightenment;
- impeccable knowledge of their profession, the need to use the acquired knowledge;
- respect for all peoples.

2. Professional requirements for a teacher:

- love for children;
- deep knowledge of your subject;
- respect for students, benevolence, politeness;
- attention to moral and labor education; fostering positive qualities in students;
- do not use coercive methods;
- to be an example in everything.

Mahmudhoja Behbudi. (Pedagogical encyclopedia, 1968, p. 251).

He believed that the meaning of national progress lies in the upbringing of a comprehensively educated citizen, in the economy and education, the future of Turkestan - in new cadres, specialists and educated youth. And therefore, new teaching methods need endorser trained teachers. To solve this problem when studying the following ideas of Mahmudkozha Bekxbudi are highlighted:

- all-round development of the future teacher;
- full-fledged education of a specialist;
- training of new teaching staff;
- search for new methods of teaching and upbringing.

Abdulla Avloni (O. Abbasova 1985. p. 251. Antology of pedagogical meaning in Uzbekistan.) Raises and considers the following issues of pedagogy:

- training and education, their indissoluble unity;
- moral education; ethics;
- mental abilities of the child, their improvement;
- knowledge as a high and sacred property of man.

A. Avloni's pedagogical attitudes, which coincide with the concept of our research.

About the personality of the future teacher:

- the unity of training and education;
- the moral character of the future teacher;
- pedagogical ethics of a future specialist in the field of education;
- knowledge is a great power in work and personal life.

Regarding the professional requirements for a future teacher:

- improving the moral education of the child;
- the formation of good character in children (familiarity with ethics);
- development, improvement and training of the child's mental abilities and his memory;
- teaching not only reading and writing, but also correct understanding

the essence of every thing, distinguishing good from bad, permitted from forbidden, pure from impure.

Ahmad Yugnaki (Tillaev, X 1989, p. 145) promotes the advantages and prestige of education.

Proclaims the harm of illiteracy. It creates a system of personality formation and development, in which important conditions are: education and harmonious development, especially moral education, including the culture of behavior and communication, as well as learning, and in its process, primarily mental development. Yugnaki gives cognitive tasks - in an unforgettable and original poetic form, relevant today and containing an idea of a full-fledged personality.

In the upbringing of positive personality traits, he offers, first of all, such qualities as: justice, modesty, tolerance, tact, generosity. We unconditionally accept the concept of Ahmad Yugnaki and use it in the theoretical and practical part of our research.

Findings.

The legacy of the great thinkers of the East, their philosophical doctrines about man, personality, pedagogical views, ideas, judgments, principles and guidelines and recommendations, requirements for a teacher are relevant today and are the methodological basis of our research. This is first and foremost;

- reliance on the philosophical and pedagogical concept of comprehensive, harmonious development and improvement of a person, his personality, complete in all respects, in particular, in professional and social relations of needs;

- course on humanization and humanization in the target, essential and procedural orientation of the study;

- a creative approach in the studied pedagogical process;

- attention to the development of the spiritual image of the future teacher,

his interests, needs and abilities, primarily in the process: aesthetic and moral education (by means of nature and art), the formation of elementary ethical culture (pedagogical ethics), the acquisition and enrichment of knowledge (primarily professional), intellectual development (especially pedagogical thinking);

- an individual approach to the full development of the personality of the future teacher;

- the accumulation of a "bank" of requirements for the teacher acceptable in modern conditions of education and upbringing of the younger generation;

- search for new methods, techniques and means of full-fledged development of the personality of the future teacher.

Thus, as a basis for the comprehensive development of the personality and future modern teacher from the heritage of the great thinkers of the East, the corresponding ideas, principles and guidelines concerning the personality of the teacher (his development), the educational process, the requirements for the teacher, coach and educator are taken.

REFERENCES:

1. Anthology of pedagogical thought in Uzbekistan / S ost
2. Al-Farabi, 1970. S. 135.
3. Abu Ali Ibn Sina, 1980, p.109. Selected works.
4. Al Farabi. Philosophical treatises. – Alma Ata, 1970.-135 p. Page 18 of 18
5. A. Navoi. 1968. p. 234 Nazmul Javohir.
6. Ahmad Yugnaki (Tillaev. X 1989, p. 145).
7. Pedagogical encyclopedia.- M.: Sov. Encyclopedia. 1968.- 251p.
8. O. Abbasova 1985.S. 251. Antalogy of pedagogical meaning in Uzbekistan..
9. S. Radjabov, 1985, p. 104, 195,251. Antalogy of Uzbek pedagogy.
10. Tillashev Kh.Kh. General pedagogical and didactic ideas of encyclopedic scholars of the Near and Middle East of the Middle Ages. -Tashkent: Fan. 1989. - 145 p.

**Raxmatova Hamida Ismatillo qizi, Ro`ziqulova Sarvinoz Xushvaqt qizi,
Choriyeva Dildora Omon qizi
Termiz davlat universiteti
(Termez, Uzbekistan)**

BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Anotatsiya: *Kitob- axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli, badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Maqolada bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishning yo'llari, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda pedagogikaning o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Kitob va uning tarixi, kitobxonlik, oila kitobxonligi, kitobga qiziqtirish yo'llari.*

Kitob va uning tarixi. Kitob- axborotlarni, g'oya, obraz va va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasidir. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda kitob deyish qabul qilingan.

Kitobning paydo bo'lish tarixi yozuvning yaratilishi va shakllanish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Yozuvning tuzilish xususiyatlari (belgilar tizimi, ularning joylashish tartibi), yozuv materiali va qurolining o'ziga xos tomoni va boshqa ma'lum darajada kitob tuzilishini ham belgilab berdi. Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim va O'rta Osiyoda kishilar tosh, palma daraxti barglari, spol va boshqa materiallarga yozib izoh etganlar. Har bir kitob o'nlab shunday materiallardan tayyorlangan plitalardan iborat bo'lib, og'irligi bir necha kg bo'lgan. Yozuv materiallari sifatida papirus o'simligi ishlatilishi (miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklarda) bo'lgan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda O'rta Osiyoda xususan, Xorazmda miloddan avvalgi 1- ming yillikning 1- yarmida vujudga kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitoblaridan Avestoning qadimgi nusxasi 12 ming qora mol terisiga bitilgan.

Qog'ozning kashf qilinishi kitob tarixida yangi davrni ochdi. Tarix kitoblarining xabar berishicha 650 yillardayoq Samarqandda qog'ozli kitoblar bo'lgan. 13- asrdan Yevropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qoldi. Bu esa kitobning ko'payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyat ochdi. Keyinchalik kitob san'ati alohida bir san'at turiga aylandi. 14- 15 asrlarda Movarounnahrda kitobat san'ati o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Olim-u fuzalolardan Sultonali Mashhadiy, Nizomiy, Hofiz, Sa'diy, Alisher Navoiy va ko'plab davlat arboblari kitobat san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. [1]

Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog'on etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh yetib, ma'naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to'g'ri yo'lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o'qish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. So'ngi yillarda mamlakatimizda yoshlarning intellektual salohiyatini, ong-u tafakkurini yuksaltirish, ona Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydiga barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan 2017-2021 yillarda

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, avvalo, xalqning ijtimoiy turmushini yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurni yuksaltirishga, barchaga birdek go'zal va farovon hayotiy muhit yaratishga qaratildi. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobning va kitobxonlik madaniyatining rivojlanishiga asosiy masala sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida" gi PQ-32-71- son qarori asosida, yurtimizning barcha ta'lim sohasida, kitobxonlikni rivojlantirish asosida bir qancha chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi fikrimning yorqin isbotidir. Prezidentimiz "Bugun bitta kitob o'qigan bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqaradi" deydi. Albatta bu gaplar bejizga emas. Bu so'zlarda kitobning qay darajada bola ongini, tafakkurini rivojlantirishi va yuksaklarga eltuvchi sirlil kuch ekanligini anglashimiz mumkin. Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz merosiga nazar soladigan bo'lsak, ularning ichida eng qadimiy va noyob sanaladigan buyuk meros bu kitob bo'lib, insonlarni ezgulikka chorlaydigan ma'naviy xazina sifatida tilga olinadi. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ong-u tafakkuri bilan belgilanadi. Barchamizga ma'lumki mamlakatimiz istiqbol, yuksak ma'naviyatli jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali, yuksak ma'naviyatli raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ma'naviy immuniteti kuchli bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash muammosi bilan bog'liqdir. [2]

Kitobxonlik- bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'g'itlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'lini dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobdan yangilik topish, ma'naviy dunyosini yoritishdan iborat. Kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa, uni o'qimaslik johillikka, ma'rifatsizlikka olib kelib, natijada bolada ma'naviy qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa- kitobxonlikni inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruriyatga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, e'tibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga bo'lgan munosabatini o'zgartirish mumkin emas.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalarning zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-ona, maktab o'qituvchilarining o'zi ham yuksak didga ega, ma'naviyatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdiridagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy va estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyinchalik o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni

hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, bola hayotining ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qilgan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Demak, bolani kitobga qiziqtirish, kitob haqidagi tasavvurlarni paydo qilish, unda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish oiladan boshlanar ekan. [3]

Oila kitobxonligi bu- oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim bolalarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanish tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi. Ota-ona unga turli ertaklar aytib berganda, bolada mardlik, jasurlik, ahillik, mehr-muhabbat tuyg'ulari shakllanib boradi. Bu jarayon ota-ona tomonidan maktabga ilk qadam qo'yguncha davom etirilib, maktabga kelganda kitoblarni o'zi o'qishga harakat qila boshlaydi. Bu davr bola psixologiyasining eng nozik davri bo'lib, bu yoshda bolalar ongiga kitob insonning eng yaqin do'sti ekanligini, uningsiz bu hayotda hech qanday yuksak marralarni egallab bo'lmastligini doimiy ravishda singdirib borish zarurdir.

Bolalarda kitobxonlikni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

1. Bolalarda kitob o'qish ishtiyogini shakllantirish. Bu masala juda murakkab masala bo'lib bolalarning kitobga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerakki bugungi yoshlarda kitobxonlikka bo'lgan qiziqish qoniqarli darajada emas. Buning oldini olish uchun esa ota-ona hamda maktab o'qituvchilarining yordamga kelishidir. Bunda bola uyda bo'lganda ota-ona nazoratida bo'lishi kerak. Maktabda esa o'qituvchi nazoratni o'z zimmasiga oladi. O'z navbatida kitobga bo'lgan ishtiyoqni amalga oshirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi zarur.

a) Avvalambor, kitobga bo'lgan ishtiyoqni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda ish yuritish kerak. Masalan: Bola kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'ynashni xohlaydi. Bunday vaziyatlarda kompyuter va planshetdan foydalangan holda elektron, rasmi, video tasvirli, audio kitoblardan foydalanish kerak.

b) Mutolaa burchagini tashkil qilish lozim. Bu burchak bolani chalg'itmaydigan, tashqi shovqin-suronlardan holi, kitob o'qish uchun barcha qulay sharoitlar bo'lishi, devorlariga turli ertakdagi qahramonlarning suratlarini tushirilishi kerak. Bu esa bolalarning haqiqiy ertaklar olamiga tushib, kitobga bo'lgan ishtiyogini oshiradi.

2. Kitob tanlashda bolaning ma'naviy darajasiga e'tibor qaratish. Ota-onaning bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo'lish kerak. Sababi ota-ona bolaga kitob tanlayotganda o'zi ham o'sha kitob haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bunda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak.

a) Oilada kitoblar tez-tez suhbatingiz mavzusiga aylaniib, uning mazmun-mohiyati haqida bahslashib turing. Hayotda sodir bo'layotgan voqealarni asardagi voqealarga bog'lashga harakat qiling. Bu esa bolaning ma'naviyatini shakllantirishga yordam beradi.

b) Tanlangan kitob bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak. Masalan, 4-7 yoshdagi bolalarga rasmiy kitoblar, 8-11 yoshdagi bolalarga esa ijtimoiy-maishiy ertaklar tavsiya qilinadi.

3. Oilada bolaning kitob o'qishini muntazam ravishda nazorat qilish va uni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo'lgan kitobxonlik bilan ko'proq qiziqishi kerak. Shu ma'noda bolalar kitobxonligini monitoring qilib borish maqsadga yetishishning samarali jihatlardan biridir.

- Ota-onalar farzandlarida kitobxonlikning uzviyligini ta'minlashi, ya'ni bir kitobni o'qib bo'lgandan so'ng, uning o'rniga albatta yangisini olib berishi kerak. Bu esa bolalarning bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishiga va doimiy ravishda kitobxonlik bilan shug'ullanishiga yordam beradi.

- Bola kitobni o'qib bo'lgandan so'ng, albatta uni ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish, ya'ni moddiy jihatdan o'zining yoqtirgan narsalarini olib berish, ma'naviy jihatdan turli kitob do'konlari va kutubxonalarga olib borish lozim.

Bolada o'qish ishtiyoqini oshirish va kitobga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otish uchun maktabda quyidagi metodlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Haftada 1 soatdan kam bo'lmagan kitobxonlik soatarini tashkil qilish;
2. Chorak oxiriga kelib turli ertaklar yuzasidan teatr va sahna ko'rinishlari o'tkazish;
3. Har 2 oyda kitobxonlik tanlovlari tashkil qilish;
4. Faol kitobxonlarni rag'batlantirish. [4]

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirgi globallashuv zamonida bola ongingi qadryatlarimiz ruhida tarbiyalash va rivojlantirish uchun albatta ularda kitobga bo'lgan mehri kuchaytirish bugungi zamonning talabi. Zero Prezidentimiz aytganlaridek "Kitob o'qimagan bolaning ham, millatning ham kelajagi yo'qdir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M. Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan quramiz". Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017
2. SH.M. Mirziyoyev "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Xalq so'zi, 2017-yil 14-son-N184
3. Malla Ochilovning "Muallim qalb me'mori". Toshkent "O'qituvchi" 2001.
4. U. Mahkamov, N. Tilabova, Sh. Tillaboyeva - "Pedagogik mahorat". O'quv qo'llanma - Toshkent: TDTU. 2003. 88-bet.

Tangriyeva Umida
UrDU akademik litseyi, o'qituvchi
(Urganch, O'zbekistan)

NOSTANDART TESTLAR VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada nostandart testlar va ulardan akademik litseylarning ona tili ta'limida foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan. Unda nostandart testlarning o'ziga xos xususiyatlari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ona tili ta'limi, test, nostandart test, nutq madaniyati, taqqoslash, umumlashtirish, bilimlarni tekshirish, ta'lim samaradorligi.

Аннотация. В статье показаны нестандартные тесты и способы их использования при обучении родному языку в академических лицеях. Также описана специфика нестандартных тестов.

Ключевые слова: Обучение на родном языке, тест, нестандартный тест, культура речи, сравнение, обобщение, проверка знаний, эффективность обучения.

Annotation. This article shows non-standard tests and how to use them in the teaching of the native language of academic lyceums. It also describes the specifics of non-standard tests.

Keywords: Native language education, test, non-standard test, speech culture, comparison, generalization, knowledge testing, educational effectiveness.

Globallashuv davrida dunyoda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilgan bo'lib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" [1] dolzarb vazifa sifatida ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, o'rta maxsus ta'lim tizimida ham ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, akademik litsey talabalarining o'quv-bilish faoliyatini ta'lim mazmunidan kelib chiqqan holda o'qitish vositalari hamda metodlarini maqsadga muvofiq tarzda tanlab olgan holda tashkil etish juda muhimdir.

Blum taksonomiyasi (bilish, tushunish, amaliyotga qo'llash, tahlil, sintez, xulosalash)ga ko'ra talabalar bilimni aniaqlashda test topshiriqlaridan ham unumli foydalaniladi. Talabalarining muayyan mavzu bo'yicha bilim, ma'lumot, axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashda, ayniqsa, nostandart testlarning ahamiyati katta. Nostandart testlarning turli shakllari bo'lib, ular talabaning mavzu bo'yicha obyektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashi, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, obyekt yoki

voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Zero, bularni standart testlar orqali amalga oshirib bo'lmaydi.

Nostandart testlarning turlari va qo'llanilishini akademik litseylarda o'qitiladigan "Ona tili" fanining "Nutq madaniyati" modulini o'qitish misolida ko'rib chiqaylik. U talabalarga notiqlik san'atining mohiyatini ochib berish bilan birga, ularda nutq madaniyatini hamda mutolaa madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Talabalarning fan yuzasidan olgan bilimlarini tekshirishda, ularni haqqoniy baholashda nostandart testlarning quyidagi turlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. «Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notiqlikning alomatidir». Ushbu fikr muallifi kim va jumla nutqning qaysi sifati bilan bog'liq?

1. Navoiy, nutqning aniqligi. 2. Kaykovus, nutqning aniqligi. 3. Kaykovus, nutqning to'g'riligi. 4. Beruniy, nutqning mantiqiyliqi. 5. Ibn Sino, nutqning sofligi **Javobi: 2.**

2. Quyidagi asarlarning qaysi birida nutq masalasiga e'tibor qaratilgan? 1.Ibn sinoning «Tib ilmi» asarida. 2. Beruniyning «Hindiston» asarida. 3.Beruniyning «Geodeziya» asarida. 4. Navoiyning «Hiloliya» qasidasida. 5. Yusuf Xos Xojibning «Qutad'g'u bilik» asarida. 6. A.Navoiyning «Mahbul-qulub» asarida. 7. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida. 8. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida. **Javobi: 3, 5, 6, 8.**

3. Qaysi gap tarkibida varvarizmlar qo'llangan?

1. Yoshulli saning qizing bunda gapirilmagan. Ova, yoshulli. (Mirmuhsin)
2. So'kib – net, -dedi, kema durrak, poshul (Muqimiy)
3. Sut ko'r qilgur haromi Gitler oqpadar farzandning qadrini qaerdan bilsin?
4. Ayrim kishilar demak, xo'sh kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar
5. Mana shu zayavleniyaga podpis qo'yib berarkansiz
6. Sen bizga xiyonat qilding, it uvli! **Javobi: 2, 5.**

4. Usulnlarning turlarini ularning xususiyatlari bilan juftlang.

1	Publitsik uslub	A	Nutqning aniqligi, dalil va ma'lumotlarga boyligi, qisqa va lo'nda ifodalanilishi, ta'rif va qoidalarining keng qo'llanilishi	
2	So'zlashuv uslubi	B	Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarini jo'shqinlik bilan aks ettiruvchi uslub	
3	Badiiy uslub	C	Nutqning elliptik xarakterga egaligi, ya'ni bayonotning ma'lum qismi nutqda qoldirilib ketishi	
4	Ilmiy uslub	D	Ta'sirchanlik qaysi uslubning muhim belgilaridan biri hisoblanadi	
Javob:	1 -	2 -	3 -	4 -

Javobi:

Javob:	1 - B	2 - C	3 - D	4 - A
---------------	--------------	--------------	--------------	--------------

5. 1) tushunarlilik; 2) estetik ta'sir yetish; 3) soddalik; 4) mantiqlilik; 5) ta'sirchanlik; 6) aniqlik; 7) erkinlik. Yuqoridagi xususiyatlardan qaysilari publitsistik uslubga tegishli?

Javobi: 1, 3, 6

6. Tilga oid ta'riflarni juftlang

1. Tilning qaysi jarayonida normativ grammatika qoidalariga, so'zlarning talaffuz normalariga u qadar e'tibor berilavermaydi ?	A. Insonlar orasidagi munosabat; aloqa quroli,
2. Til bu -	B. Umumxalq tili
3. Obrazli, emotsional, umumlashgan tip	C. Adabiy til,
4. Matbuot, fan, adabiyot, kitob, radio, televidenie, teatr tili bu -	D. badiiy asar tili
Javob; 1-B, 2-A, 3-D, 4-C	

7. To'g'ri javoblarni aniqlang. Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini yozing. "Maxsus leksik qatlamlar"

1. Neologizmlar	8. Ijtimoiy-siyosiy so'zlar
2. Kompyuterga oid so'zlar	9. Sinonimlar
3. Bosh harflar bilan yoziladigan so'zlar	10. Varvarizmlar
4. Dealiktizmlar	11. Teatr, kino, matbuotga oid so'zlar
5. Onamastika	12. Antonimlar
6. Jargon so'zlar	13. Sud-huquqga oid so'zlar
7. Omonimlar	14. Kasb-korga oid so'zlar

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
ha	yo'q	yo'q	ha	yo'q	ha	ha	yo'q	ha	ha	yo'q	ha	yo'q	ha

8. To'g'ri javoblarni aniqlang. Javoblar jadvaliga "ha" yoki "yo'q" so'zlarini yozing. "Tavsiflash vositalari"

1. Neologizmlar	8. Portret
2. Monolog	9. Sinonimlar
3. Rasmi ko'rinishlar	10. Mimik-pantomimik harakatlar, imo- ishoralar
4. Dialektizmlar	11. Detal
5. Dialog	12. Antonimlar
6. Jargon so'zlar	13. Tush
7. Polifoniya	14. Kasb-korga oid so'zlar

Javob:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
yo'q	ha	yo'q	yo'q	ha	yo'q	ha	ha	yo'q	ha	ha	yo'q	ha	yo'q

9. Quyida berilgan misollarni soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlariga ajrating hamda mos raqamlarni jadvalning javob raqamlari qismiga yozing: 1) *past, baland*; 2) *chiroyli, goʻzal*; 3) *barmoq, bormoq*; 4) *tut, ter, oʻt*; 5) *sabr, toqat*; 6) *yer, osmon*; 7) *asr, asir*; 8) *aqlli, dono*; 9) *tush, moy, tom*. **Javobi:**

Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari	Javob raqamlari
Omonim soʻzlar	4, 9
Sinonim soʻzlar	2, 8
Antonim soʻzlar	1, 6
Paronim soʻzlar	3, 7

Koʻrinadiki, yuqoridagi kabi nostandart test topshiriqlari talabalarning oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma hamda malakalarini aniqlashdan tashqari, ularni miqdor va sifat jihatdan ham tahlil qilishga, oʻz-oʻzini nazorat qilishga ham yordam beradi. Shunday ekan, bunday testlarni taʼlim jarayonida qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 6 p. 26.P.
2. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya.- Toshkent, 2017.
3. Bekmirzayev N.N. Notiqlik sanʼati asoslari.-Toshkent: Yangi nashr, 2008.

Tashmuradova Zarina
student of the 210th group of primary education
pedagogical faculty of Samarkand State University
(Samarkand, Uzbekistan)

PRIMARY EDUCATION – BASE FOR PERSONALITY SHAPING

Abstract: *The article discusses the implementation of innovative technologies in primary education for the development of figurative and logical thinking in primary school pupils.*

Key words: *primary education, innovations, pedagogical technologies, figurative thinking, logical thinking, modular system, task.*

As noted by the first President of Uzbekistan I.A. Karimov, “It goes without saying that in the creation of a new state of fundamental and decisive importance is the issue of training a new generation, educated in the spirit of national and universal values, capable of solving complex and large-scale tasks of modernizing the state and building a modern democratic society”.

In Uzbekistan 11 years of education are compulsory and free, beginning with 4 years at primary school, and followed by 2 phases of secondary education taking 5 and 2 years respectively. Primary school begins at age 6 and there is no specific leaving examination after the 4 years are complete. The next 5 years are spent at general secondary school from ages 10 to 15. Following that, there is a choice of between 2 to 3 years of upper education at either general or technical vocational schools. The former provides a certificate of completed secondary education and the opportunity to enter university, the latter a diploma of specialized secondary education, through a network of secondary vocational institutions.

Uzbekistan has a long enough tradition of teaching foreign languages to young children. The evidence to support the idea dates back from the “Great Silk Road” period when the present day territory of Uzbekistan used to be a center for world trade, science and culture. Uzbek merchants were fluent speakers in distinctively different languages such as Persian, Arabic or Chinese because bilingualism or monolingualism always had practical concern to study, to make business and for intercultural communication. In the 19th century Central Asia (Kazakhstan, Turkmenistan, Tajikistan, Uzbekistan, Kirgizstan, and Afghanistan) used to be the territory of three kingdoms (the Khiva Kingdom, the Kokand Kingdom and the Bukhara Emirate) whose administrative principle cities were all located within the territory of today’s Uzbekistan. Even though everyday communication was carried in different Turkish dialects, Arabic and Persian were still in use for trade, religion and administration. During the Second World War millions of war victims from Russia, Belorussia, The Ukraine, and North Korea were evacuated to the country. This caused a further variation of the country’s ethnic makeup and Russian became a language for communication.

These tasks include:

- Study of ongoing changes in education, implemented and implemented innovations, achieved successes and identified problems;

- analysis of the peculiar aspects of the educational system in the implementation of its goals and objectives, their implementation in accordance with the requirements of the time;
- generalization of the achieved successes and experience in the implementation of the Law "On Education" and the National Program for Personnel Training;
- renewal and modernization of the educational industry, generalization and analysis of best practices;
- study of the mechanisms of linking the practical, useful aspects of foreign experience in the field of education with the national model of education;
- development of conclusions, practical proposals and recommendations aimed at further development of the educational sphere.

The Law "On Education" and the National Program for Personnel Training, which are consistently implemented at the initiative of the President of the country, have made it possible not only to radically change the appearance of general education schools, academic lyceums and vocational colleges, higher educational institutions, but also to strengthen their material and technical base and improve learning conditions... The quality of education has risen to the level of world standards. The introduction of general compulsory free 12-year education according to the 9 + 3 scheme has become a reliable factor for young people to gain deep knowledge, choose a profession in accordance with their interests, opportunity and potential, and take a worthy place in society.

As you know, primary education is the foundation of general secondary education, and their future success and development largely depends on the quality of primary education. This education forms the initial skills of reading, spelling, counting of students, elements of theoretical thinking, the foundations of speech and culture of behavior, lays the foundation for ensuring personal hygiene and a healthy lifestyle. In primary education, learning is mainly carried out through the inculcation of figurative thinking as the forerunner of logical thinking. Figurative thinking is considered as the main form of thinking of young children and is taken into account in the preparation of school textbooks, teaching aids, didactic, handouts. The development of figurative and logical thinking is closely related to the development of speech in children. This property of primary education was taken into account when determining the content and scope of such areas of education as mathematics and the mother tongue.

In primary education, literacy is given in the form of a description, information presentation; in the process of preschool education, it also plays the role of a clarifier, systematizer and enrichment of acquired knowledge. The expected results from primary education, of course, depend on textbooks, teaching aids, methodological recommendations based on the ideas reflected in the principles, the concept of primary education and its organization, methods and ways of organizing primary education, innovative ideas, modern pedagogical and information technologies, new generation teaching aids.

Primary education, which includes grades 1-4, requires great care and responsibility from teachers. As the proverb says, "The knowledge gained in youth is the same as the carvings on a stone," what knowledge a person will receive from youth and his future is determined accordingly. This means that a person should get a strong knowledge in the primary school.

The importance of introducing innovation in primary education is aimed at improving the essence, content and form of ongoing reforms in the field of education in general. Factors of the scientific and technical process, the democratization of our society, the expansion of the sphere of information have a positive effect on the personal qualities of the child, in particular, they develop ingenuity, imagination and thinking, mental abilities. It is not a secret for anyone that the students' interest in world outlook has increased dramatically. The main task of modern education is to meet the child's need for knowledge.

The educational system and the school are faced with the goal of educating a comprehensively developed personality. Updates introduced to the primary education system necessitate revising and fixing its content and structure of methods. This includes the currently used modular system, rating assessment, pedagogical technologies, and tests.

The modern student should be with a broad outlook, with free thinking, with a sharp mind, strong will, in short, have high intellectual strength. To do this, it is imperative to introduce innovations into the system. Through the use of pedagogical technologies, it is possible to achieve a high-quality and effective mastering of knowledge, skills and qualifications by students. Therefore, we future primary school teachers should study the experience of pedagogical technologies, achieve their implementation through a creative approach, improve their use in the classroom, be in constant search, do not forget that the name "mentor" contains deep content, priceless kindness, work and accomplishments, our future hopes and dreams are growing and improving.

REFERENCES:

1. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. Toshkent: O'zbekiston, 1997. 387 b
2. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии // Педагогика. 1993. № 5..
3. Safarova R., Bikboeva N. Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi // Boshlang'ich ta'lim. 6-son. 1998. B. 2-9.

Tovbayev G'ofur Zulkaynar o'g'li
2-bosqich magistratura mutaxassisligi talabasi,
Nigmatov Asqar Nigmatovich
Geografiya fanlari doktori professor
Guliston Davlat Universiteti
(Guliston, Uzbekistan)

MAGISTRATURA TA'LIM TIZIMIDA «KONSTRUKTIV GEOGRAFIYA» O'QUV MODULI O'QITISH HOLATI VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Anotatsiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Aynan ushbu davlat siyosatidan kelib chiqqan tarzda «Konstruktiv geografiya» fan dusturida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 5A 110501 – Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) magistratura mutaxassisligi uchun muqobil «Konstruktiv geografiyani o'qitish metodikasi» o'quv kredit-modul dasturi taklif etilmoqda.

Kalit so'zlar. Konstruktiv geografiya, magistratura, modul, kredit-modul, o'quv reja, oliy ta'lim mutaxassisliklari klassifikatori, o'quv fanlari bloki.

Аннотация. Согласно «концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847, до 2030 года планируется поэтапный переход 85% вузов страны на кредитно-модульную систему. Исходя из этой государственной политики, в целях устранения недостатков, выявленных в учебной программе «конструктивная география», предлагается учебная кредитно-модульная программа 5A110501-методика преподавания точных и естественных наук(география) для аспирантуры по специальности» методика преподавания конструктивной географии».

Ключевые слова. Конструктивная география, магистратура, модуль, кредит-модуль, учебный план, классификатор специальностей высшего образования, блок учебных дисциплин.

Annotation. According to the "concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 No. UP-5847, a phased transition of 85% of the country's universities to the credit-modular system is planned by 2030. Based on this state policy, in order to eliminate the shortcomings identified in the curriculum "constructive geography", the educational credit-module program 5A110501-methods of teaching exact and natural sciences(geography) for the master's degree in the specialty "methods of teaching constructive geography" is proposed.

Key words: Constructive geography, master's degree program, module, credit

module, curriculum, classifier of higher education specialties, block of academic disciplines.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy tabiiy fanlar sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'limning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash, jahon ta'lim tizimiga qo'shilish, shuningdek oliy ta'limning o'quv-metodik va normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi [1].

Ushbu Qarorning 3-bandida oliy ta'limning magistratura mutaxassisliklari klassifikatori, malaka talablari, o'quv fanlari bloki, o'quv reja, o'quv fani, o'quv smestri, o'quv fani dasturi kabi tushunchalarga ta'riflar berib o'tilgan (1-jadval). Qarorining 5.2-bandida esa **magistratura mutaxassisliklarining o'quv reja va fanlar dasturi** mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik, jumladan «Konstruktiv geografiya» bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantirish belgilangan.

Magistratura mutaxassisliklari o'quv reja va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda **umummetodologik, mutaxassislik va ilmiy faoliyat** talabalar nuqtai nazardan ishlab chiqishni nazarda tutadi.

2019-2020 o'quv yilida «Konstruktiv geografiya» o'quv fani - Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) OTMning magistratura bosqichi talabalari uchun mutaxassislik fanlaridan biri sifatida tayanch OTM – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan kiritilgan. Lekin, O'zbekistonda geografiya sohasida kadrlar tayyorlash «Oliy ta'lim mutaxassisliklari klassifikatori»ga binoan gumanitar bilim sohasining ikki ta'lim sohasida olib boriladi: pedagogika va tabiiy fanlar (2-jadval).

1-jadval

Oliy ta'limning magistratura ta'lim mutaxassisliklariga tegishli tushunchalar va ularning izohi

T/r	Tushuncha nomi	Tushuncha izohi
1.	Magistratura	Bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim
2.	Oliy ta'lim mutaxassisliklari klassifikatori	Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati
3.	Malaka talablari	Uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar
4.	O'quv fanlari bloki	O'quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi
5.	O'quv reja	Oliy ta'limning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat

6.	O'quv fani	Ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi
7.	O'quv semestri	Oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi
8.	O'quv fani dasturi	Ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat

Shuning uchun ham pedagogika ta'lim sohasidagi «Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya)» mutaxassisliklari uchun o'quv fanining nomini «Konstruktiv geografiyani o'qitish metodikasi», tabiiy fanlar ta'lim sohasida esa «Konstruktiv geografiya» deb berish davlat talablariga mos tushgan bo'lar edi.

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi magistrleri «Konstruktiv geografiya» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida

2-jadval

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori

Bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nomi	Kod
	Magistratura mutaxassisliklari
	5A-bosqich
GUMANITAR SOHA (bilim sohasi)	
Pedagogika (ta'lim sohasi)	
Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya)	5A110501
Tabiiy fanlar (ta'lim sohasi)	
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha)	5A140601
Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha)	5A140602

amalga oshiriladigan masalalar doirasida **magistrant**: konstruktiv geografiyaning geografik fanlar tizimidagi o'rne, maqsadi va vazifalari; konstruktiv geografiyaning nazariy va metodologik asoslari, tadqiqot usullari; inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli muammolarining geografiya fanidagi o'rne va ahamiyati, jamiyat rivojlanishidagi mavjud muammolarni echimida geografiya fanining o'rne, turli miqyosdagi global va mahalliy geoeologik muammolarning keskinlashuvi va ularni hal qilishning geografik jihatlari to'g'risida bilimga ega bo'lishi; konstruktiv geografiya va geografik tadqiqotlarning maqsadli yo'naltirilishi va ularning hududiyiligi; konstruktiv geografiyaning inson faoliyati bilan bog'liqligi; konstruktiv geografiya va O'zbekistonda vujudga kelgan tabiiy geografik - muammolar va u bilan bog'liq vazifalarni tushunishi; tabiiy va iqtisodiy geografiyada konstruktiv yo'nalishning rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ko'nikmaga ega bo'lishi; sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy geografik muammolarni tahlil va tasnif qilish, O'zbekistonda mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik muammolarni aniqlash, tahlil qilish, guruhlashtirish va amaliy xulosalar chiqarish; geografiya fanining xulosalaridan amaliy konstruktiv maqsadlarda foydalana olish; mahalliy tabiiy geografik va iqsodiy geografik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularning

echimi bo'yicha konstruktiv tavsiyalar ishlab chiqish **malakalariga** ega bo'lishi kerak, deb berilgan. Lekin, unda «Konstruktiv geografiyani o'qitish metodikasiga dior birorta ham bilim, ko'nikma va malaka talablari kiritilmagan.

Mazkur magistratura bosqichining geografiya o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalariga «Konstruktiv geografiya» o'quv fani 1–2 semestrlarga qo'yilgan bo'lib, jami hajmi 190 soatni tashkil etgan. Bunda o'quv yuklama pedagog uchun ma'ruza (54 soat) va amaliy mashg'ulot (54 soat) jami 108 (56%) soat ajratilgan bo'lsa, magistrning mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun 82 soat (44%) ajratilgan. Magistrlar uchun mazkur fanga ajratilgan soat miqdori juda ko'p. Shuning uchun ham «Konstruktiv geografiya»ga va uni o'qitish metodikasiga tegishli bo'lmagan mavzular hisobiga kamaytirish va 2-semestrning o'ziga joylashtirish maqsadga muvofiq.

Dasturda keltirilgan ayrim ta'lim metodikalari berilgan mashg'ulot mavzulariga deyarli mos kelmaydi yoki uni qo'llash uchun tegishli mazmun va mohiyat masalalari ma'ruza mashg'ulotlarida yoritilmay qolingan. Masalan, 1-semestr 3-amaliy mashg'ulot mavzusi «Konstruktiv geografiya va O'zbekistonda vujudga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning yechish yo'llari»ning yechimini topishda klaster tuzish kerakligi aytib o'tilgan. Lekin ma'ruza mashg'ulotida Konstruktiv geografiyaning aniq bir ob'ekti va predmetini aniqlamay turib, uning tasniflanish qoidalarini bermay turib qanday qilib klaster metodini magistrlar aniqlab olish yo'llarini ko'rsatish mumkin.

«Konstruktiv geografiya» namunaviy o'quv dasturida berilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar mazkur fanning mazmuni va mohiyatini ochmaydi hamda namunaviy dasturlarga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi. Hattoki Konstruktiv geografiyani ilk bor fanga olib kirgan yirik geograf olim, akademik I.P. Gerasimovning birorta ham ilmiy yoki o'quv asari tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan joy olmagan.

Xulosa qilib aytganda, 2019-2020 o'quv yili uchun mo'ljallangan «Konstruktiv geografiya» o'quv fani - Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) OTMning magistratura bosqichi talabalariga javob bermaydi. Shuning uchun ham tegishli magistratura mutaxassisligi, ularga qo'yiladigan davlat taloablaridan kelib chiqqan tarzda qayta ishlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMning 85 foizi 2030 yilgacha **bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan** [2]. Masalan, 2020/2021 o'quv yilida mamlakatimizdagi 33dan ortiq yirik OTMlar, xususan GulDU ham kredit-modul tizimiga o'tkazildi. Mazkur OTMlarda asosan ECTS kredit-modul tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 2-bandida kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalarga ta'rif berib o'tilgan [3]. (3-jadval).

3-jadval

Oliy ta'lim magistratura mutaxassisligi kredit-modul tizimiga oid asosiy tushunchalar

Nº	Tushuncha	Tushuncha izohi
1.	Kredit	Ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba (magistr) tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Qoidaga ko'ra kreditlar butun yoki kasr sonlarda ifodalanishi mumkin.
2.	Kreditlarni berish	Malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba (magistr) yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni.
3.	Kredit to'plash	ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash.
4.	Talabani shaxsiy ta'lim traektoriyasi	Talaba (magistr) tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim traektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim traektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin.
5.	Magistratura ta'lim dasturi	Magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui.
6.	Magistratura ta'lim dasturi katalogi	Oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot.

Kredit-modul tizimi geografik oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kiradi. Unga ko'ra, «Konstruktiv geografiya» fani endilikda undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, Konstruktiv geografiya o'quv modulidan o'rtacha 4 va 5 yoki 4,5 va 5,2 kreditlarda aks etishi mumkin. Magistr esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga magistr darajasi beriladi.

ECTS kredit-modul geografik ta'lim tizimidagi bir yillik kreditlar miqdori 60 kreditni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrda iboratligini hisobga olsak, talaba o'qishi davomida har semestrda 30 kredit to'plab borishi kerak bo'ladi. Magistratura dasturi 2 yilligini hisobga olinsa, magistr ushbu darajani qo'lga kiritish uchun jami 120 kredit to'plashi talab etiladi.

Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit magistr bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bildiradi. ECTS kredit-modul tizimida 3.2.1-rasmda berilgan «Konstruktiv geografiya» o'quv modulidan 1 kredit o'rtacha 30 soatlik o'qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar Konstruktiv geografiya fan «4» kreditli fan bo'lsa, magistr ushbu fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 120 soatlik o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi (30 soat x 4 kredit=120 soat).

Albatta, Kosntruktiv geografiya bo'yicha 1 kredit o'qish yuklamasi (25-30 soat

oralig'ida) aynan necha soat bo'lishini odatda har bir OTMning ichki qoidalarida belgilaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o'qish yuklamasi Konstruktiv geografiya fanini o'rganish uchun sarflanadigan jami harakatlar jamlanmasi bo'lib, unga nafaqat dars vaqti, balki magistrning fanni o'rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti kabi uni o'zlashtirish uchun sarflagan barcha tizimli harakatlar vaqtini qamrab oladi.



4 kredit = 120 soat o'qish yuklamasi

(40 % auditoriya soatlari, 60 % mustaqil ta'li soatlari)

1-rasm. Konstruktiv geografiya kredit o'quv modulining o'quv yuklamalari

Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to'g'ri keladi. Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilagan bo'lsa, undan 12 soati auditoriya soati, 18 soati esa magistrning mustaqil o'qish soatiga to'g'ri keladi (1-rasmga qarang).

Yuqoridagi qoidalardan shuni tushunish mumkinki, ECTS kredit-modul tizimida talabanning bilim olish vaqti dars vaqti bilan cheklanib qolmasdan, balki magistrning o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda bilimning manbayi faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi va unga o'qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki magistr nuqtai nazardan yondashiladi. Bu degani, endilikda magistr ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z yelkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda Konstruktiv geografiyani o'zlashtirib borishi kerakligini ham bildiradi. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan pedagogchining mas'uliyatiga, ya'ni ularga darsdan tashqarida ta'lim olish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish uning vazifasidir. Bizning holatda magistrlar uchun Konstruktiv geografiyadan sifatli o'quv-me'yoriy hujjatlarni yaratish, ularni ekspertizadan o'tkazish va tegishli adabiyotlar ta'minlashni taqozo etadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil 14 avgustda 3-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan Toshkent davlat pedagogika universiteti «Geografiya va

iqтisodiy bilim asoslari kafedrası pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan magistratura mutaxassisligi 5A 110501 – Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) «Konstruktiv geografiya» fan dasturi ham aksariyat kamchiliklardan holi emas. Masalan:

1. «Konstruktiv geografiya» modulning nomi «Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya)» magistratura ta‘lim mutaxassisligi mos tushmagan.

2. Endilikda «Konstruktiv geografiya» fan dasturi emas, balki kredit o‘quv moduli sifatida qaralmagan.

3. Mazkur modul yaxshi bir, ya‘ni 3-semestrga qo‘yilgan. Lekin nima uchun aynan 3-semestr qo‘yilganligi noma‘lum.

4. Soatlar taqsimoti yangi ishlangan dasturda auditoriya mashg‘ulot soati mustaqil mashg‘ulot soati bilan teng ikkiga bo‘lingan. Vaholanki, kredit-modul tizimi bo‘yicha ularning nisbati 40x60 foizda bo‘lishi kerak edi.

5. Dasturdagi I.Fanning mazmunidagi «Fanining vazifalari» stilistik xato, ya‘ni nimaning vazifasi degan savolga javob bermaydi.

6. Ma‘ruza mavzulari juda murakkab va O‘zbekiston uchun yangi bo‘lgan «Konstruktiv geografiya»ning ilmiy-nazariy asoslarini ochib bermaydi.

7. Namunaviy dasturda berilgan mavzulardan ishchi dasturni ishlab chiqish va magistratlarni ushbu modulni mustaqil o‘zlashtirishlari uchun na asosiy va na qo‘shimcha birorta ham adabiyotlar keltirilmagan.

8. Mustaqil ta‘lim mavzulari umumiy o‘rta ta‘limning 9-sinfi «Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi» fanida berilgan mavzularni takrorlamoqda va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi 6155-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy ta‘lim vazirligi va Xalq ta‘limi vazirligiga «Hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirishni... amalga oshirish» orqali «Iqtidorli yoshlarning ilmiy g‘oyalarini rag‘batlantirishni...tashkil etish» vazifasi qo‘yilgan.

Aynan ushbu davlat siyosatidan kelib chiqqan tarzda «Konstruktiv geografiya» fan dasturida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mazkur dissertatsiyada 5A 110501 – Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) magistratura mutaxassisligi uchun muqobil «Konstruktiv geografiyani o‘qitish metodikasi» o‘quv kredit-modul dasturi taklif etilmoqda. Unda:

- dastur nomini «fan dasturi» emas, balki «kredit o‘quv moduli» sifatida berilgan;
- auditoriya soatlari bilan mustaqil ta‘li soatlari 40/60 foiz nisbatga olib kelingan;
- ma‘ruza, amaliy va mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlar mavzulari qaytarilmagan, balki bog‘lovchi mavzular bilan boyitilgan;
- tegishli yo‘nalishdagi maktab va bakalavriyat o‘quv dasturlariga tegishli mavzular olib tashlangan;
- mustaqil ta‘lim mavzulari magistratura mutaxassisligidan kelib chiqib tarzda berilgan;

- *tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati o'quv moduliga mos ravishda yangi manbalar bilan boyitilgan va h.k.*

Agar taklif etilayotgan «Konstruktiv geografiyani o'qitish metodikasi» o'quv kredit-modul dasturi GulDU misolida amaliyotga to'liq joriy etilsa:

- ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarning milliy ta'limni isloh qilishga qartilgan innovatsion harakatlari inobatga olinadi;

- o'quv jarayoniga qo'yilayotgan fanlarning mutaxassisligiga tegishli qismlariga doir ta'lim berilayotganini inobatga olgan tarzda «FAN» atamasi o'rniga «KREDIT O'QUV MODULI» atamasini dastur shakliga joriy qilish maqsadga muvofiq;

- OTMlar uchun yangi kredit-modul tizimi real ta'sir kuchiga ega bo'ladi va u o'z samadorligini amalda ko'rsatadi;

- mutaxassislikka va zamon talablariga mos ravishda ta'lim jarayoni yo'lga qo'yiladi;

- ishchi dasturlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan tarzda ishlab chiqishga imkon beradi;

- bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan OTMning ta'lim menejmenti shakllantiriladi;

- OTMda o'qish jarayonining shaffofligiga erishiladi;

2. В большинстве учебных заведений с вышеуказанным недостатком успешно справляются: учебным пособием для проведения практических занятий по начертательной геометрии является «Рабочая тетрадь». Она составляется таким образом, чтобы студенты выполняли решения непосредственно в рабочей тетради и не тратили дополнительного времени на перечерчивание графического условия. Кроме того, исключается возможность неверного решения вследствие искажения графического условия при перечерчивании.

3. Задачи, задаваемые студентам для самостоятельной домашней работы, чаще всего бывают очень сложны, целью которых является не научить студента отдельным приемам начертательной геометрии, а испытать его на сообразительность или проверить его на наличие накопленных навыков. [2, 3]

Перечисленные выше проблемы легко решаются методическими приемами с использованием современных компьютерных технологий; например, так: все задания для практической домашней работы по начертательной геометрии даются студентам в электронном виде в заранее оговоренных графических программах (AutoCAD, Компас-3Б); условия задач оформлены так, чтобы студент мог без дополнительной подготовки приступить к необходимым построениям, непосредственно связанным с решением задачи.

Крайне важный подход для получения эффективного результата при выполнении домашних практических работ: эти работы не контроль и не экзамен, а планомерный познавательный процесс, целью которого является формирование и закрепление у студента устойчивых знаний и практических навыков. Представляется, что любое задание для домашней практической работы должно состоять не из 4-7 сложных задач по темам учебного плана, а из значительно большего количества предельно простых вопросов, каждый из которых был бы логическим и дидактическим продолжением предыдущего. После определенной череды элементарных задач должна следовать комплексная задача, требующая понимания алгоритмов предыдущих вопросов. Например: весь изучаемый материал дисциплины состоит из 5 разделов; по каждому разделу дается 3-5 элементарных задач и одному комплексному вопросу. Таким образом, в этой работе будет присутствовать 15-25 промежуточных задач и 5 задач комплексных по разделам.

Подобный метод формирования домашней практической учебной работы можно образно сравнить с движением к вершинам знаний и мастерства по удобной пологой лестнице с промежуточными площадками, на которых можно остановиться и

оглядеться; двигаться по такой лестнице гораздо сподручней, чем пытаться сразу запрыгнуть на верхний этаж или нанимать подъемный кран.

Подводя итог, хочется сказать, что дисциплина начертательная геометрия крайне важна для подготовки высококлассных специалистов инженерных направлений, а эффективность ее освоения в учебных заведениях во многом зависит от разумного использования, как проверенных методик обучения, так и от методик новых, связанных с использованием современных информационных технологий.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Греков Е. О, Федышена О. М. и др. Компьютерные технологии: создание тестов по начертательной геометрии, Мурманск, МГТУ, 2012г.
2. Иванов А. А, Картузов В. П, Добербаум В. П. Методическое обеспечение практической подготовки студентов по начертательной геометрии и инженерной графике. 2011г.
3. Крылов Н. Н. Начертательная геометрия, М, Высш. школа, 2002г.
4. Фролов С. А. Начертательная геометрия, М, Машиностроение 1983г.
5. Фролов С. А, Бубенников А. В. и др, Начертательная геометрия. Инженерная графика. Методические указания, М, Высш. школа, 1990г.

Азимова Н.Э.
доцент,
Насимова З. Исомиддин кизи
магистр
БУХДУ
(Бухара, Ўзбекистон)

KASBIY FANLARNI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga etishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». SHu sababli ham birinchi navbatda ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo'ljallangan vazifalarini hisobga olish va hal etish qobiliyatiga yuksak umumiy va kasbiy madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo'nalish ola bilish mahoratiga ega bo'lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi».

Kadrlar tayyorlash sohasida hozirga qadar amalga oshirilayotgan o'zgarishlar faqat mavjud ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan edi. U shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlari bilan kasbiy tayyorgarlikning amaldagi tizimi o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishni ta'minlamas edi. Xalqaro tajribani, mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli va muammolarini tahlil qilish asosida uning printsip jihatidan yangi modeli ishlab chiqildi.

Kadrlar tayyorlash tizimi yangi modelining mohiyati va o'ziga xos xususiyati unga asosiy tarkibiy qismlari sifatida quyidagi komponentlar kiritilganligidadir:

- shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti, ta'limga oid xizmatlarning iste'molchisi va ularning yaratuvchisi;

- uzluksiz ta'lim – kadrlar tayyorlashning poydevori asosi;

- fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ularning iste'molchisi;

- ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojning istiqbolini belgilashni, ularning tayyorgarlik darajasi sifatini baholashni, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimini qisman moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashni amalga oshiruvchi asosiy buyurtmachi;

- davlat va jamiyat – kadrlarning tayyorgarligi sifatini nazorat qilish va baholashni amalga oshiruvchi, kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning bosh kafillari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» umumiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi hayotga moslashtirish, kasb-korga va taʼlimga oid dasturlarni ongli ravishda tanlash hamda keyinchalik roʻyobga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila va jamiyat, davlat oldidagi oʻz masʼuliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal surʼatlar bilan kirib borish jarayoni Respublikamiz aholisi uchun taʼlim darajasini oshiruvchi omillardan biri boʻlib hisoblanadi. Bu birinchi navbatda bozor munosabatlarining rivojlanishiga bogʻliq boʻlib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalar ustuvor boʻlgan va xalq xoʻjaligining rivojlangan tarmoqlariga, taʼlim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bogʻliq boʻladi.

Kadrlar tayyorlash muammosining samarali echimi birinchi navbatda bugungi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologiya, madaniyat, huquqshunoslik va shunga oʻxshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga, har tomonlama chuhur bilimga ega boʻlgan uqituvchi kadrlar tayyorlanishi bilan bogʻliqdir. «Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari oʻz ustida ishlamasa, oʻz sohasi boʻyicha chet mamlakatlarga ilmiy safarlarga borib kelmasa, tajriba almashtirilmasa, albatta bunday ahvol uquv jarayoniga va uning samarasiga salbiy taʼsir qiladi».

Oliy taʼlim tizimida faoliyat koʻrsatayotgan oʻqituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, taʼlim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va oʻqitiladigan fanlar boʻyicha sifatli bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilishni taʼminlovchi pedagogik usullarni qoʻllay bilishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini oʻrganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan maʼlumotlar, amaliy yoʻllanmalar ishlab chiqishi, ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻzlashtirganidan soʻng, uni taʼlim tizimiga joriy eta olishi kerak.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayoni, jamiyatning tez oʻzgarib borayotgan turmush sharoiti, taʼlim tizimiga taʼsirchanlik va tezkorlik xossalarining berilishini, yaʼni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berish, shaxs qobiliyati va isteʼdodini hisobga olish imkoniyat va shart-sharoitlarini yaratishni taqozo etadi.

Oʻquv-tarbiya dasturlarining taʼsirchanligi va tezkorligini taʼminlash taʼlim jarayonini differentsiatsiyalash muammosi bilan uzviy bogʻliq. Hozirgi sharoitda, soʻzda emas, ishda uzluksiz taʼlim tizimiga taʼlimni differentsiyalash printsip va mexanizmlarini joriy etish kerak.

Taʼlimni differentsiatsiyalash zamonaviy taʼlim tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. U oʻquvchi-talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatlari, qiziqishlari, kasb tanlashidan kelib chiqqan holda turli koʻrinishda bilim olish imkoniyatini beradi.

Oʻquv-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha subʼektlarning oʻzaro samarali taʼsirini taʼminlovchi mexanizmlar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirish zarur. Umuman olganda, ushbu tizimning barcha tarkibiy qismlari – oila, uzluksiz taʼlim, mahalla, jamoat birlashmalari, jamgʻarmalar mavjud. Biroq, birinchidan, ularning oʻz ichidagi samaradorlik faoliyatini koʻtarish, ikkinchidan, samarali taʼsirchanlik, yaʼni uzviyligi, bir-biriga chambarchas bogʻliqligidan kelib chiqib ularning faoliyatini takomillashtirish lozim.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini ijtimoiy institutlar sifatida tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda, maktab, litsey, kollej, institutlarni nafaqat ilm-fan maskani, balki haqiqiy madaniy-ma'rifiy markazlarga aylantirish kerak. Ular mahalla, oila, jamoat birlashmalari bilan yaqindan aloqada bo'lishlari shart. Ushbu maskanlarda ijod qilish ruhi, ijtimoiy faollik, shaxsiy ishtirok, o'zaro hamkorlik muhitining yaratilishi, bir tarafdin, mustaqil fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalashga, ikkinchi tarafdin, yangi ijtimoiy muhit, tafakkurning shakllanishiga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Modulli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuziladi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy ishlab, mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadga erishadilar.

Modul dasturlari o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturlar mazmun va mohiyatiga ko'ra, talabalarning individual, ikkita talaba birgalikda va kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlariga ajratiladi. Modul dasturlarning didaktik maqsadidan kelib chiqib, o'quv-tarbiya jarayonidan o'z o'rnida foydalanish yuqori samara beradi.

O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir talabaning ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Hozirgi kunda juda ko'p metodist va pedagog olimlar «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» talaba-o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qaralmoqda. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarishda boshqaruvchidan katta kuch talab qilinmaydi. Maxsus texnologiyaning o'zi qo'yilgan maqsadga to'la erishishni kafolatlaydi. Ammo bu nazariyani pedagogik texnologiyada to'laligicha qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha uni inkor qilishi mumkin. SHuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan pedagog ko'zlangan maqsadga erishishning bosh

kafolatchisi bo'ladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uning asosiy negizi bo'lgan axborotlar texnologiyasini ta'lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish pedagogning tayyorgarlik darajasini birinchi o'rinda hal qilish bugungi kun «Pedagogika» fanining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uquv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or pedagogik tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish; darslik, o'quv qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlarini tayyorlash, ilmiy-metodik ishlarda, uquv-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni rivojlantirish, ularni axborot vositalari bilan ta'minlash hamda kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash eng muhim vazifa hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirish, uning ishtirokchilari – o'qituvchi va talaba-magistr faoliyatini «sub'ekt-sub'ekt» imkoniyatlari asosida tashkil etish zarurati bugun barcha oliy uquv yurtlarida pedagogika va psixologiya fanlarini uquv rejasiga kiritish lozimligini isbotladi. Endigi vazifa esa, bu fanlarni uqitishga alohida e'tibor qaratish, pedagogik faoliyatning siru sinoatlarini tadqiq qilish asosida amaliy xulosalarni qo'lga kiritishdir.

Shunday qilib, mamlakatimizda shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va printsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga, ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda qo'ymoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji – uquv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasi bilan belgilanar ekan.

Жуманова Фотима Ураловна
“Педагогика ва менеджмент” кафедрa мудири, педагогика фанлари номзоди,
доцент в/б. Илмий раҳбар,
Аллаёрова Сожида Умирзоқовна
“Педагогика психология” йўналишидаги магистрант
Чирчиқ давлат педагогика институти
(Чирчиқ, Ўзбекистон)

БОШЛАНҒИЧ СИНОФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЛУҒАТ БОЙЛИГИНИ ОШИРИШДА ЛИНГВО - ПЕДАГОГИК АСОСЛАР

Аннотация: Ушбу мавзуда бошланғич синф ўқувчиларини луғат бойлигини оширишда лингво-педагогик асосларини очиб беришга ҳаракат қилинган. Унинг ўзига хос томонлари лингводидактик воситалар орқали коммуникатив қобилият, антропоцентрик луғатлар билан, лингвометодика, педагогик лексикография, компьютер лингвистикаси, тилшунослик, монологик, диалогик, оғзаки ва ёзма нутқнинг шаклланиш жараёни кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: тилшунослик, лингводидактик воситалар, коммуникатив қобилият, антропоцентрик луғатлар, лингвометодика, педагогик лексикография, компьютер лингвистикаси, корпус лингвистикаси, амалий тилшунослик, монологик, диалогик, оғзаки ва ёзма нутқ.

Жаҳон тилшунослигида тилдан амалий фойдаланиш кўникмаларини ошириш, тилни тасвирлаш билан бирга уни тез ва осон ўқитиш мақсадини бирлаштирган лингводидактик воситаларга эътибор кучаймоқда. XX аср бошларига келиб кўпгина ривожланган давлатларда нафақат тил ўрганиш, балки интеллектуал салоҳияга эга, юксак маънавиятли, умуммиллий ва умуминсоний кадриятларга содиқ шахсни тарбиялашнинг муҳим воситаси деб ўқув луғатлари тан олинди. Замонавий шахснинг муҳим кўрсаткичи ҳисобланган коммуникатив қобилиятини ўстирувчи антропоцентрик луғатларни яратиш ва уларни электронлаштириш зарурати лингводидактика, лингвометодика, педагогик лексикография, компьютер лингвистикаси, корпус лингвистикаси каби амалий тилшунослик соҳалари тараққиётини бугунги давр тақозо қилмоқда.

Ушбу мавзусининг долзарблиги унинг Республикамиз мактабларида турли фанларни ўқитиш соҳасидаги замонавий таълим тизимининг энг муҳим ижтимоий ва педагогик муаммолари сонига бевосита алоқадорлиги билан белгиланади. Тилни ўқитишнинг замонавий назарияси кенг қамровли илмлар томонидан берилган таълим жараёнининг барча янги қирраларини ўз ичига олади. Кичик мактаб ўқувчиларининг сўз бойлигини бойитиш бўйича ишлар бошланғич синфлардаги барча дарсларда олиб борилади, аммо она тили дарслари етакчи рол ўйнайди, шунинг учун ўқитувчи ушбу дарсларни болалар учун қизиқарли ва тушунарли ўтказиши лозим.

Бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ фаолиятини шакллантириш муаммосига доимо алоҳида эътибор бериб келинган. Ҳозирги вақтда кичик мактаб ўқувчиларининг

сўз бойлигини оширишнинг умумий тенденциялари яратилди, нутқни ривожлантириш муаммолари аниқланди, мактаб ўқувчиларининг тил қобилиятини шакллантиришнинг мумкин бўлган усуллари аниқланди, нутқнинг монологик ва диалогик шакллари таҳлил қилиш амалга оширилди ва кичик мактаб ўқувчиларида оғзаки ва ёзма нутқни шакллантиришнинг педагогик - психологик хусусиятлари аниқланган ва асосланган.

Мавзу бўйича бир неча адабиётлар таҳлил этилди:

Шу пайтгача бошланғич мактабда минимал лексик сўзларни танлашнинг объектив кўрсаткичлари аниқланмаган;

- лингвистик луғатни кичик ўқувчининг сўз бирикмаларига киритиш усули ишлаб чиқилмаган;

- лексик кўникма ва малакаларни ривожлантиришда самарали бўлган лингвистик материал аниқланмаган.

Ўқув луғатларини илмий асосда ўрганиш XIX асрда биринчи инглиз лексикографи С. Жонсон, француз тилшунослигида Ж. Дюбуа, К. Дюбуа, Г. Маторе, Б. Кюмада, Америка тилшунослигида К.Д. Бак, испан тилшунослигида Ж. Малкил, рус тилшунослигида П.Н. Денисов, Л.А. Новиков, В.В. Морковкин, С.Г. Бархударов, А.Е. Супрун, Л.Г. Саяхов, Т.А. Кадирбайева каби тилшунос ва педагогларнинг ишларидан бошланган бўлса, XX аср охири XXI аср бошларида жаҳоннинг АҚШ, Буюк Британия, Франция, Германия, Россия, Украина каби илғор мамлакатларида ўқув луғатларининг замонавий авлодларини яратиш бўйича, мавжуд луғатларни электронлаштиришнинг назарий ва амалий масалалари юзасидан илмий изланишлар олиб борилди. Жумладан, В.В. Дубичинский, С.В. Лебедова, И.Л. Воронцова, Е.Ю. Балалайева, А.К. Сулейманова, Т.И. Кобякова, И.Н. Савченкова, Е.А. Румянцева, У. Нурмухамедовнинг педагогик асарларида жуда яхши маълумотлар келтириб ўтилган. Шунингдек, Марказий Осиё давлатларида ҳам ўқув луғатчилигининг назарий масалаларига бағишланган тадқиқотлар олиб борилди. Хусусан, Г.И. Бобойеванинг икки тилли ўқув луғатларини яратиш масалаларига бағишланган ишларини мисол сифатида келтириш мумкин. Ўзбек тилшунослигида ўқув луғатчилигининг назарий ва амалий масалалари монография кўламда ўрганилмаган бўлса-да, собиқ Шўро даврида миллий мактабларда рус тилини самарали ўқитиш мақсадида яратилган икки тилли русча-ўзбекча ўқув луғатлари М.Х. Тўхтаўжайева, Л.М. Одинаева, С.Ф. Ақобиров, К.А. Шарофиддинова кабиларнинг ишларида учратиш мумкин. Истиқлол йилларида А. Нумонов, Ҳ. Неъматов, А. Мадвалийев, М. Миртожийев, Р. Сайфуллаева, З. Ҳамидов, Е. Қиличов каби тилшуносларнинг ишларида ўзбек тилшунослигида лексикографиянинг ўқув луғатчилиги тармоғи пайдо бўлгани таъкидланади. Б. Менглийев, С. Каримов, Б. Юлдошев, Н. Улуқов каби тилшуносларнинг мақолаларида она тили – ўзбек тилини ўқитиш воситаларига ёрдамчи ахборот манбаи бўлган замонавий лингводидактик луғатларнинг назарий ва амалий масалалари олиб чиқилган ва миллий лексикография соҳасида олиб борган тадқиқотларида йўл-йўлакай луғатларнинг ўқув мақсадида фойдаланиш учун яратилган турларига ҳам мавжуд эканлиги кўзга ташланади.

Бошланғич мактаб учун она тили дастури фонетика, грамматика, имло ва нутқни ривожлантириш бўйича тўрт йил давомида шаклланиши керак бўлган бошланғич мактаб ўқувчиларининг нутқ қобилиятлари доимий кенгайганлигини амалий иш

жараёни белгилайди. Мактабга келганларида, болалар кундалик нутқни яхши билишади, лекин уларнинг сўз бойлиги кўпинча камбағал, мактаб жараёнида қабул қилган барча ғоялари ва тушунчаларини ифода этиш учун етарли емас. Катта лексик захирани ўзлаштириш ўз-ўзидан содир бўлиши мумкин эмас. Мактабда нутқни ривожлантиришнинг муҳим вазифаларидан бири бу сўз бирикмаларини тартибга солиш, унинг асосий йўналишларини таъкидлаш ва уларни асослаш, мактаб ўқувчиларининг сўз бойлигини бойитиш жараёнини бошқаришдир. Шунинг ҳам ёдда тутиш керакки, бола сўзларни ва ибораларни тушуниши мумкин, ammo уларни нутқда ишлатмайди.

Адабиётни ўрганиш, дастурлар ва дарсликларни таҳлил қилиш, болалар томонидан сўз бойлигини ўргатиш ҳолати ва нутқ кўникмаларини ўзлаштириш сифатини таҳлил қилиш, лингвистик сўз бойлигини тушуниш даражаси, бошланғич синф ўқитувчилари ҳал қилишда дуч келадиган қийинчиликларни аниқлашга имкон берди. Бу кўрсатадики бошланғич синф ўқувчиларини луғат бойлигини оширишда лингво - педагогик жараёнлар айна пайтда долзарб муаммолардан биридир.

Шу пайтгача бошланғич мактабда минимал лексик жараёнлар учун сўзларни танлашнинг объектив кўрсаткичлари аниқланмаган;

- лингвистик луғатни кичик ўқувчининг сўз бойлиги ва бирикмаларига киритиш усули ишлаб чиқилмаган;

- лексик кўникма ва малакаларни ривожлантиришда самарали бўлган лингвистик материал аниқланмаган.

Бизнинг ишимизда умумий қабул қилинган белгиларга риоя қилган ҳолда, яъни луғат материаллари сўзлашувда сўзларнинг ва уларнинг грамматик шаклларининг лингвистик частотасини ҳисобга олган ҳолда танланади;

- лексик бирикларнинг бошқа сўзлар билан бирикиш қобилияти;

- уларнинг ушбу ёшдаги болалар учун мавжудлиги, сўзларнинг амалий заруриятидир.

Юқорида айтилганларнинг барчаси дарсларида лингвистик материаллардан фойдаланган ҳолда бошланғич синф ўқувчиларининг сўз бойлигини бойитиш жараёнини ўрганиш долзарблигини аниқлади. Мавзусининг долзарблиги, шунингдек, она тили дарсларида лексик ишларнинг илмий асосланган тизимини яратишнинг амалий зарурати билан белгиланади.

Мактабда она тилини ўқитишда бир неча муҳим ва ўзаро боғлиқ жиҳатлар мавжуд. Улардан **биринчиси** болалар нутқини яратиш механизмининг тушуниш билан боғлиқ бўлса, **иккинчиси** аслида ўқувчиларга грамматика, имло, сўз бойлигини ва нутқни ривожлантиришни ўргатиш билан боғлиқ, **учинчиси** ўқувчиларнинг маданий нотиклик ваколатлари билан боғлиқ.

Амалиёт шунинг кўрсатадики, машғулотларда энг яхши натижаларга ушбу жиҳатларнинг ўзаро таъсири тузатилганда эришилади. Ушбу мавқега эришишда пухта тайёрланган ва энг мақбул танланган ўқув материаллари, биринчи навбатда, лексик аҳамиятга эга. Унинг ядроси сўз бойлиги бўлиши мумкин, бу, биринчидан, ёш ўқувчига мазмуни ва ҳажми бўйича кириш имкониятига эга;

- иккинчидан, юқори самарали лексик ишларни оқилона ташкил этиш учун имкониятлар очади ва ёш ўқувчининг сўз бойлигини бойитишга ёрдам беради;

- учинчидан, бу таълимнинг кейинги босқичларида болалар томонидан фанларни муваффақиятли ўзлаштириш учун мустаҳкам ва ишончли асосни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари; 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сон “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 декабрдаги 989-сон “Давлат тилини ривожлантириш департаменти тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақидаги”, 2020 йил 29 январдаги 40-сон “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чора тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари ҳамда бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга ушбу мақоланинг илмий натижалари маълум даражада хизмат қилади.

Мавзунинг мақсади бошланғич синф ўқувчиларининг сўз бойлигини лингвистик материаллар билан бойитиш мақсадида методик тизим яратиш ва унинг самарадорлигини экспериментал натижаларга биноан асослашдир.

Мавзунинг предмети: бошланғич синф ўқувчиларининг сўз бойлигини бойитиш учун дидактик материалнинг мазмуни ва услубий ташкил этилиши ҳисобланади.

Мавзунинг объекти: лингвистик материаллардан фойдаланган ҳолда бошланғич синф ўқувчиларининг сўз бойлигини ошириш жараёни ҳисобланади.

Мавзунинг вазифалари:

- ўрганилаётган муаммо бўйича педагогик, лингвистик, услубий адабиётларни таҳлил қилиш;

- лексик иш қобилиятлари ва қобилиятлари даражасини аниқлаш учун бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув жараёнини ўрганиш;

- маърифий мақсадлар учун лексик лингвистик бирликларни танлаш (луғатлар, маданиятшунослик материаллари асосида) ва лексик минималлаштириш;

- лингвистик лексик материалдан фойдаланган ҳолда экспериментал машғуллотлар ўтказиш ва ишлаб чиқилган тизим самарадорлигини текшириш.

Мавзу асосида қуйидаги илмий янгиликларни кутамиз:

- ўрганилаётган муаммо бўйича педагогик, лингвистик, услубий адабиётларни таҳлил қилинади;

- лексик иш қобилиятлари ва қобилиятлари даражасини аниқлаш учун бошланғич синф ўқувчиларининг ўқув жараёнини ўрганилади;

- маърифий мақсадлар учун лексик лингвистик бирликларни танлаш (луғатлар, маданиятшунослик материаллари асосида) ва лексик минималлаштирилади;

- бошланғич синф ўқувчиларининг сўз бойлигини бойитиш учун луғат ишлаб чиқилади;

- лугат устида ишлаш ёш ўқувчининг сўз бойлигини шакллантириш учун адаптив технологиялар элементларидан фойдаланишни ўз ичига олган асосли тизим амалга оширилади.

- лингвистик лексик материалдан фойдаланган ҳолда экспериментал машғулотлар ўтказилади ва ишлаб чиқилган тизим самарадорлиги текширилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Юқорида айтилганларнинг барчаси дарсларида лингвистик материаллардан фойдаланган ҳолда бошланғич синф ўқувчиларининг сўз бойлигини яратиш жараёни таҳлил этилган, она тили дарсларида лексик ишларнинг илмий асосланган тизимини яратишнинг амалий зарурати батафсил белгилаб берилган.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 997-сонли қарори. – Электрон манба: lex.uz/docs/4097073.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. // – Тошкент, 2020. 27-б.
3. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасининг 2017-2021 йилларда ривожланишнинг бешта устивор вазифалари “Ҳаракатлар стратегияси”. – Т.: Ўзбекистон. 2017 й.
4. Мирзиёев Ш. “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сонли Фармони. – Электрон манба: lex.uz/docs/3412785.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 й.
6. Абдуллаева Қ. ва бошқалар. Бошланғич мактаб дарслиklarини яратиш мезонлари. - Т., “Ўқитувчи”, 2014.
7. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М., 2008.
8. Крижанская Ю.С., Третьяков В.П. Грамматика общения. – Л., 1998.
9. Қосимова Қ, Неъматова А. 2-синфда она тили дарслари. - Т., “Чўлпон”, 2018.
10. Маъқулова В, Саъдиева С. Синфдан ташқари ўқиш машғулотлари. -Т., “Ўқитувчи”, 1997.
11. Матчонов С ва бошқалар. Бошланғич синф ўқиш дарсларини педагогик технологиялар асосида ташкил этиш. - Т., “Янгийўл полиграф сервис”, 2018.
12. Умарова М., Ҳакимов Ш. Ўқиш дарслари. Т., “Чўлпон”, 2018.
13. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. - Т.: ТДПУ. 2015 й.
14. Худойқулов Х.Ж.Тарбиявий ишлар методикаси. - Т.: Инновация –Зиё.2020 й.
15. Ғуломова Х, 4-синфда она тили дарсларида лўғатдан фойдаланиш. - Т., “Ўқитувчи”, 2013.

Бобоқулува Дилфуза Менглибоевна
Денов тадбиркорлик ва педагогика инситутути “Мақтабгача ва бошланғич таълим”
кафедрасининг мустақил тадқиқотчи
(Денов, Ўзбекистон)

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТЕЖАМКОРЛИК ВА ТАДБИРКОРЛИККА
ЎРГАТИШДА ОИЛА БИЛАН ҲАМКОРЛИК ТЕХНОЛОГИЯСИ

Аннотация: Кичик ёшдаги ўқувчиларга иқтисодий билимлар билан қуроллантириш оила билан ҳамкорлик қилиш бугунги куннинг долзарб муаммоси ҳисобланади. Бугунги кун, кечаги кун билан шуниси билан фарқ қиладики биз бозор иқтисодиётига асосланган даврда яшайпмиз. Демак, бизнинг болаларимиз ҳаётга кириб келар экан, оила тарбияси орқали берилётган бозор иқтисодиётига мос кўникмаларни шакллантириш мавзунинг асосий мазмунини ташкил этади.

Калит сўзлар: Бошланғич синф, тежамкорлик, тадбиркорлик, оила, технология, метод, тарбия, ота-она, ишлаб чиқариш, бозор қонунлари, оилавий муносабатларда даромад, меҳнат, ишбилармонлик, хасислик, пишиқлик, саҳийлик, ҳалоллик.

Бозор иқтисодиётига ўтилаётган бир пайтда бошланғич синф ўқувчиларида иқтисодий тафаккурни тарбиялаш айниқса муҳимдир. Аввало, иқтисодий тарбия ҳақида мукамал тушунчага эга бўлмоқ даркор. Иқтисодий тарбия ўқувчиларда тежамкорлик, меҳнатсеварлик, ташаббускорлик, ишбилармонлик, иқтисодий ҳисоб-китоб ва айни шу қабилар ҳақида фикрлай олиш қобилиятини камол топтиришдир. Иқтисодий тарбия мазмуни Шарқ мутафаккирлари томонидан мунтазам бойитиб келинди. Абу Наср ал-Фаробий инсонга яшаш учун жуда кўп нарсалар кераклиги ва уларни вужудга келтириш йўлида бошқа шахсларга мурожаат қилишни эътироф этади. Бу ўринда олим иқтисодий алоқа заруриятини кўрсатиб ўтган эди.

Дарҳақиқат, инсон учун энг зарур бўлган иқтисодий алоқани ўрнатиш учун одамлар, давлатлар, жамиятлар интеграция йўлида ҳамкорлик қиладилар. Ҳозирги пайтда бу фикр нечоғлик тўғри эканлигини Европа амалиёти мисолида кўриб турибмиз. Иқтисодий интеграция давлатларга фақат бойлик келтираяпти. Ал-Фаробий "Бахт-саодатга эришув ҳақида" асарида шундай ёзади: инсон ўз маблағини қандай сарфланишини билиши керак. Пул сарфлашда қизғанчиқлик қилиш хасисликка олиб келади. Пулларни режасиз ишлатиш эса инсонни бебошликка етаклайди". Кўриниб турибдики, ўтмиш мутафаккирлари мактаб ва оила шароитларида болаларни иқтисодий тафаккурини кенгайтириш, уларни ҳамкорликка, ишбилармонликка, иқтисодий ҳисоб-китобга ўргатишни ҳаётий тажриба асосида амалга ошириш лозимлигига эътибор қаратганлар. Болага иқтисодий тарбия бериш оиладан бошланади. Ҳар бир киши буғдой, гуруч, меваларни сақлаш йўлларини билиши керак. Эҳтиёжни яроқли нарсаларга тежамкорлик билан муносабатда бўлиши лозим. Ота-она увол қилиш гуноҳлигини фарзандига ёшлигиданоқ насиҳат йўли билан ўргатади.

Тежамкорлик хусусиятлари кишиларда уларнинг мажозий хислатларига мувофиқ равишда шаклланади ва хасислик, пишиқлик, саҳийлик, ҳалоллик тарзида

кўзга ташланади. Хасис кишилар ўз имкониятларини тежамкорликга доимо интиладилар, аммо ўзгаларнинг ва жамият манфаатини ҳимоя қилишга мойил бўлмайдилар, ундайлар шахсий манфаат, бойлигини кўпайтириш жазавази билан ёниб, инсоф, мурувват ва одамийликни унутиб яшайдилар. Бундай кишилар ҳар хил мевамиз бозорига, сутимизнинг қаймоғи ҳаридорга, нонимизнинг мазалиси, кўрпатўшакнинг янгиси, хонамизнинг чиройлиси меҳмонга, ўзимиз сифатсиз неъматларни тозалаб еб, лаби учган идишлар ишлатсак ҳам, яшасак ҳам бўлаверади, деб тушунадилар. Бу билан обрў орттиришга интиладилар.

Улар "Топганиндан етарлисини еб-ичиб, кий, саломат, тетик, беармон яша", деган ғояга қарши иш тутиб, фаровонлигимизнинг асл мазмунига путур етказадилар: яшаш ва даромад қилишнинг виждонга, тарбияга хилоф усулларини қўллаб, баъзан кўпчиликнинг нафратига дучор бўладилар, ўз хасисликлари, ясама хушомадлари, ёлғон мулозаматлари билан турмуш кечириш, меҳмон кузатиш ва фарзанд тарбиялаш маданиятига доғ туширадилар.

Пишиқлик даромад ва ҳаражатни тўғри режалаштириш, исрофгарчиликка йўл қўймаслик, хўжасизликнинг олдини олиш манбаидир. Рўзғорда ёки хўжалиқда бор нарсани қизғанмаслик, инсон қадрини моддий жиҳатдан рағбатлантириб бориш сахийлик аломатидир. Сахийлик кишиларда камтарлик, соддалик, кўнгилчанлик, рахмдиллик, самимийлик, меҳмондўстлик, муҳтожни қўллаш, берилган ёрдамни таъна қилмаслик хусусиятлари устун бўлади. Сахийлик юксак даражадаги инсонпарварликдир. Шу билан бирга сахийлик, тежамкорлик руҳи билан суғорилмоғи керак. Ёшларга даромад ҳажмини белгилаш ва ҳаражатнинг меъёрини барқарорлаштириш, бошқача айтганда, неъмат яратиш ва уни тасарруф этиш режасини ишлаб чиқиш ва унга қатъий амал қилиш кўникмаси сингдирилиши даркор.

Ишни топшириш билан чекланмай, бола уни қандай бажараётганини назорат қилиб туриш, лозим бўлса, маслаҳат, кўмак бериши, ғайратбахш сўзлар айтиб ота-она томонидан руҳлантириб туриши мақсадга мувофиқдир. Бола мустақил топшириқни бажариш жараёнида режадаги ишни уддалаш учун сарф этиладиган хом ашё, маблағ, вақт, куч, кайфият, ҳажмини аниқлаш, керакли ускуналарни тайёрлаш, сошлаш малакалари такомиллашади. Матбуот, радио, телевидение хабарлари, ўқитувчилар, тарбиячилар томонидан берилган тежамкорликка оид маълумотлар, ота-оналар ҳамда кексаларнинг бу тўғридаги маслаҳатлари, танбёхлари ҳам болада мазкур тушунчанинг кенгайишига ижобий таъсир этади. Дарҳақиқат, тарбиянинг самарадорлигини ошириш кўп жиҳатдан оила, мактаб, жамоатчилик ва меҳнат жамоаларининг баҳамжиҳат куч-ғайрат сарфлашларига ва ўқувчиларга нисбатан қўйиладиган талаблари бир хил бўлишига боғлиқ. Мактаб шароитида иқтисодий тарбиянинг хилма-хил вазифалари бир неча фан бўйича дарсларда амалга оширилади. Масалан, табиий фанлар, математика, ўқувчиларга иқтисодий ривожланиш ички кучларга эътибор беришни ўргатадилар.

Бугунги кунда умумий таълим мактабларининг бошланғич синфларида ўтиладиган барча фанлар замирида иқтисодий тушунчаларни ёшлар онгига сингдириш орқали уларни ҳаётга тарбиялаб бориш йўлга қўйилмоқда. Бошланғич таълимда ўқувчиларга сингдирилиши лозим бўлган тушунчалар нафақат дарс жараёнида балки дарсдан ва мактабдан ташқари машғуллотларда ҳам ҳар хил ўйинларни ўтказиш

жараёнида ўқувчилар онгига сингдириб борилади. Шунини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки ўқувчиларда иқтисодий тарбиянеи юксалтиришда меҳнатнинг ўзига хос таъсир этиш кучи бор. Шунинг учун ҳам ўқувчида иқтисодий тарбияни шакллантиришда меҳнат тарбияси билан интеграциялаш муҳим аҳамият касб етади.

Бизга маълумки, қадимдан ота – боболаримизнинг кундалик ҳаётига бўлган эҳтиёж кун сайин ошиб борган. Шу сабали ҳам улар яшаш учун курашганлар. Бунда ота - боболаримиз ўзларидаги табиий эҳтиёжни табиат қонунлари доирасида қондириб бориш жараёнларида айрим тўсиқларга дуч келганлар. Мисол учун, бундай тўсиқлар қаторига табиатда юз бериб турадиган табиий офатлар ҳамда ҳайвонларнинг мавсумга қараб ўз жойларини ўзгартириб туришлари, уларни яшаш учун курашишлари кўрсатилган. Шунинг учун ҳам уларда табиий эҳтиёж билан бир қаторда моддий эҳтиёжлари кучайиб борганлиги сабабли ҳам ўзлари учун керакли бўлган озуқаларни ғамлаш, сақлаш, керакли жойларга олиб бориш, табиий офатлардан сақланиш воситаларини ихтиро қилган. Улар совуқдан сақланиши учун иссиқ пана жойлар излаши натижасида, ғорлар, уйлар, ясаганлар. Кейинчалик эса, уни иситиш воситаси зарурлигини сезиб, қуёш тафтини қумсаганлар. Хом озуқаларини пишириш эҳтиёжлари кучайган, натижада олов кашф қилган.

Бошланғич синф ўқувчиларида иқтисодий тарбияни йўлга қўйиш 1-синфдан бошлаб математика дарсларида амалга оширса мақсадга мувофиқ бўлади. Чунки математика дарслари орқали ҳисоблаш жараёнларида иқтисодий фикрлаш қобилиятлари ривожлантирилади. Мисол учун: 1-синф математика дарсида ҳисоблаш орқали ўқувчиларда иқтисодий фикрлашни ўстириш. Дарс жараёнида ўқувчилар диққатини, фикрлаш қобилиятини ўстириш баробарида уларни тежамкор бўлишга ва тадбиркорликка ҳам ўргатиб борилади. Она табиатни асраш, авайлаш лозимлигига алоҳида эътибор қаратилади. Ундан ташқари мактабда олган билимларини амалда қўллашга ҳам йўналтирилади

Бола шахсини камолга етказиш учун курашда оиладаги тарбиявий жараёни педагогик маданият асосида ташкил эта олиш жуда муҳимдир. Педагогик маданият нима? Педагогик маданият – болани классик ва замонавий педагогик билимларни билган ҳолда замон талаби асосида тарбиялашдир. Ота-онада педагогик маданият ўз-ўзидан ҳосил бўлмайди, балки унга тарбия билан жиддий шуғулланиш, изланиш, ўқиш, тажриба орттириш орқали эришилади. Оилада бола тарбиясини режимдан бошлаш, режимни боланинг ёшига қараб белгилаш лозим; режимга ўрганган болада тартиблилик, интизомлилик хислатлари табиий равишда ривожланади; шунинг учун энг биринчи болани тозалликка ўргатиш керак. Бу тарбиявий омилларни амалга оширишда боланинг жисмоний ривожланишига, чиниқишига ҳам эътибор, бериб бориши лозим. Бола озода, интизомли, одобли қилиб тарбияланса-ю, замонавий социал-психологик ва тараққиёт талаблари ҳисобга олинмаса, унинг келажагига, бахтига зомин бўлиб қолиш мумкин. Шунинг учун ота-она ижтимоий тарбия муассасалари билан ҳамкорликда болаларнинг касб-хунарни, компьютер саводхонлигини, тилларни, бадий адабиётни, илмни ўрганишга спортга интилишини рағбатлантиришлари билан бирга, ҳисоб-китобни билиши ҳам жуда муҳим ва зарур. Бунинг учун ота-она болага тарбия жараёнида тежамкорлик тушунчаларини сингдириши лозим:

Бозор иқтисодиёти оила тарбиясида кенг қўлланиб келинган миллий қадрият сифатидаги тажрибаларига суянишни ҳам тақозо этади. Масалан, ўзбек оилаларида болаларни тежамкорлик руҳида тарбиялаб келганлар, исрофгарчиликка йўл қўймаганлар.

Маълумки, «иқтисод» сўзининг маъноси кенг бўлиб, чуқур мазмунга эга. Кўп ўринди бу сўз халқ ичида «тежамкорлик» сўзининг синоними сифатида қўлланилади. Тежамкорлик ҳақида сўз кетганда исрофгарчиликка йўл қўймасликки тушунамиз. «Иқтисод» тушунчасига, машҳур ўзбек муалими Абдулла Авлоний қуйидагича таъриф беради: «Иқтисод деб пул ва мол каби наъматларнинг қадрини билмакка айтилуру. Мол қадрини билувчи кишилар ўринсиз ерга бир тийин сарф қилмас, ўрни келганда, сўмни аямас. Саҳоватнинг зидди баҳиллик ўлдиғи каби иқтисоднинг зидди исровдур. Аллоҳ. Таоло исроф қилувчиларни суймас»³.

Ота-боболаримизнинг ўз фарзандларини тежамкор бўлишга ундаганларини халқ оғзаки ижоди мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Масалан, тежамкорлик мавзуи халқ мақолларида ҳам ўз аксини топган. Зеро, бу мақоллар юз йиллар давомида авлоддан-авлодга ўтиб, халқнинг дилида сақланиб келган.

Мақоллар кишиларнинг тарихий тажрибаси сифатида кўпгина синовлардан ўтиб шаклланади ва чуқур маъно касб этади. Мана уларнинг айримлари: «Тежаган-бирга бирни қўшар, тежамаган бирини ҳам бой берар», «Пул топиш учун куч-қувват керак, тежаш учун фаҳму-фаросат», «Ўзингникини бир бор тежаманг, халқникини минг бор тежа», «Тежамлигу расомадлик-ака-ука, тўғрилигу ҳалоллик-опа-сингил», «Тежамкор-олқиш олар, исрофгар койишга қолар» ва ҳоказо. Ҳаттоки, ота-оналаримиз тежамкорлик руҳида тарбиялаш вазифасига фарзандларининг бахтли-саодатли бўлишининг бир шarti, ахлоқий тарбиянинг бир кўриниши сифатида қараганлар.

Бозор иқтисодиётининг мақсади жамиятнинг барча аъзоларини, жумладан, ота-оналарни, уларнинг фарзандларини амалий ҳисоб-китобга ва оқилона омилкорликка ўргатишдан иборат. Зотан, пул ҳам шахсни тарбиялайди. Уни менсимаслик икки томонлама хатоларни келтириб чиқариши мумкин. Унинг бир томони, болани оиланинг моддий қийинчиликларини билишни истамаслик одати пайдо бўлади ва у текинхўрликка ўрганади. Иккинчи томони, пулга хирс қўйиш, очкўзлик, худбинлик, хасислик каби иллатларни келтириб чиқаради.

Маълумки, азалдан ота-оналаримиз болаларни хўжалик ишлари билан таништириб, оиланинг кирим ва чиқим ишларини уларга ўргатиб келишган. Шу тарзда, болада оиланинг моддий аҳволи ҳасида тасаввур ҳосил бўлишига эътибор берилган. Ҳозирги замонда бутун дунёда кўзга ташлаётган озиқ-овқат, ичимлик суви, фойдали қазилмалар ва шу каби захираларнинг камайиб бораётганлиги, шунингдек, аҳволи сонининг ортиб кетаётганлиги қатор муаммоларни келтириб чиқараётганлиги тежамкорлик, ишбилармонлик, омилкорлик каби қадриятларнинг умуминсоний, умумбашарий аҳамиятини зарурлигини кўрсатиб бермоқда.

Демак, тежамкорлик ишбилармонликни бир кўриниши сифатида қадрият ҳисобланиб келинган ва у маънавий-ахлоқий мазмунга эгадир. Бу тушунчани бола

³ А. Авлоний Туркий Гулистон –ёхуд ахлоқ. - Т.: Ўқитувчи. 2012 й.

онгига сингдириб бориш ота-онанинг вазифасини бўлиб, уни бажариш фақат шахсий иш бўлмасдан, балки ижтимоий аҳамиятига молик ҳодисадир. Чунки, бола ўзида тежамкорлик туйғусини шакллантира бориб, фақат ўз меҳнатини ва ўзгалар меҳнатини қадрига етадиган инсон бўлади. Буни англаб етган болада ўзи, ота-онаси ва жамият яратган бойликларни қадрига етиш, уларни асраб-авайлаш кўникмаси ва малакаси пайдо бўла бошлайди. Ота-оналар болаларининг келажагини ўйлаб, уларни илк ёшларидан меҳнатга солиб чиқиштириб борадилар. Тўғри тарбиянинг энг таъсирни, энг самарали усули ҳам шу меҳнатдир. Ота-оналар болаларининг меҳнатига ҳамма вақт ҳам муҳтож бўлавермайдилар, лекин болани ёшлигидан ишга ўргатиш, меҳнатга кўниктириш зиммаларидаги бурч эканлигидан шундай йўл тутадилар.

Маълумки, ҳар бир оиланинг ўз хўжалиги бўлади ва у ўз хўжалигини соф, ҳалол меҳнати билан қуради: бу хўжалик даромади оила аъзоларининг қандайдир доимий фонда олиб туришлари орқасидан эмас, балки иш ҳақининг ошуви ва оила ҳаражатларидан орттириб, тежаб қолиш туфайли кўпаяди. Биздаги оила хўжалиги рўзгор учун керакли бўлган буюмлардан, ашё ва жиҳозлардан иборатдир. Оила давлатманд бўлса, бу ҳол оила аъзолари яхши ва бахтли кечираётганини, истеъмол буюмларини кўпроқ келаётганини, ўз эҳтиёжларини кўпроқ харид келаётганини, ўз эҳтиёжларини кўпроқ қаноатлантираётганини билдиради.

Ҳар бир оила ўз хўжалигини тузатиб олиш йўли билан турмушини яхшилашга уринади. Оиланинг давлатманд бўлиши кўпроқ бутун мамлакат эришган муваффақиятларга унинг иқтисодий ва маданият соҳасидаги ютуқларига боғлиқ бўлади. Оилада болаларни тежамкорлик руҳида тарбиялашга қанчалик кўп эътибор берилса, улар халққа ҳам, ота-оналарига ҳам ўзларига ҳам шунча кўп фойда етказадилар. Ҳар бир бола оиланинг тенг ҳуқуқли аъзосидир. Демак, у оила хўжалигининг иштирокчисидир. Шу билан бирга, болаларимизни фақат оила хўжалигини юритишга қобилиятли кишилар қилиб тарбиялабгина қолмай, шунингдек бутун жамият хўжалигини ҳам тежаб-терган юритадиган садоқатли фуқаролар қилиб тарбия қилмоғимиз лозим.

Бола фақат ўз хонадонидagi буюмларинигина эҳтиёт қилиб қолмай, балки бошқа кишиларнинг буюмларини айниқса, кўпчилик фойдаланадиган буюмларни ҳам эҳтиёт қиладиган бўлиши лозим.

Тежаб-тергаб иш кўриш одатларини болада мумкин қадар эртароқ тарбияламоқ керак. Одат машқ қилиш билан ҳосил бўлади. шу йўл билан болада буюмларни тежаб-тергаб туриш истагини доимо рағбатлантириб туриш керак.

Пулни тежаб-терган сарфлаш айниқса муҳимдир. бундай ҳаражатларнинг рўйхати боланинг ёшига ва оиланинг қурбига қараб турлича бўлиши мумкин. Дейлик, 10 яшар бола учун тахминан қуйидагича рўйхат тузса бўлади: дафтар, китоб сотиб олиш, йўл кира, бутун оила учун нон, сут, сарёғ, совун сотиб олиш, унинг ўзи ва укасига ручка олиш... бола катта бўлган сари, бундай ҳаражатлар рўйхати анча маъсулиятлроқ ва мураккаброқ бўлиб бориши лозим.

Оилада ота-оналар ўз фарзандларининг меҳнатсевар, тежамкор ва эҳтиёткор кишилар бўлиб етишишларида ўзлари намуна бўлишлари керак. Бу тарбия ишлари учун жуда муҳим омиллардан саналади.

Оилани бошқаришда бюджетни оқилона ва тўғри режалаштириш алоҳида аҳамият касб этади. Ҳар бир оилада даромад ва сарф-ҳаражатлар доимий ҳисобга олиб борилса режалаштириш ойдинлашади. Олиб бориладиган ҳисоб-китобларга кўра режалаш варинатлари ҳам ўзгариб туради.

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, иқтисодий қонунлар ва категориялар бир-бирлари билан боғлиқ бўлиб улар бир-бирини тўлдиради. Уларни биз ўзимиз тўлиқ англаб етганимиздан кейин, бошланғич синф ўқувчиларга иқтисодий, билим, иқтисодий маданият, иқтисодий дунёқарашлар амалга оширилади. Иқтисодий қонунларни ўргатиш орқали биз ёшларни жамиятда ўз ўрнини топишга, қилаётган саъйи – ҳаракатилари самарали бўлишга, тежамкорликка, авайлаб асрашга, ўргатиб исрофгарчиликка йўл қўйишининг олдини оламиз. Иқтисодий билимлар ҳар доим кишилик жамиятининг ривожига ҳисса қўшиб келганлиги боис иқтисодий тарбияга эҳтиёж бор. Бунда ота-оналарнинг таълим-тарбия жараёнида узлуксиз ҳамкорлик қилиши боланинг етук шахс бўлиши учун асосий туртки бўлади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини 2017-21 йилларда янада ривожлантириш бўйича бешта уствор йўналишлар юзасидан “Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисида фармони, 1-илова. - Т.: Ўзбекистон, 2017 й.
2. Мирзиёев Ш.М.. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017 й. 592-б.
3. Каримов И.А.Юксак маънавият энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 й.
4. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий, 1993. – 223 б.
5. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон–ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўзбекистон, 2012.
6. Жониматова Х. Абу Али ибн Сино таълим–тарбия тўғрисида. – Т.: Ўзбекистон, 1990. – 97 б.
7. Кайковус. Қобуснома. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 85 б.
8. Умарова Х.А. Бошланғич синф ўқитувчиларини тайёрлашда уларнинг иқтисодий саводхонлигига қўйиладиган талаблар - Т.: ЎзПФИТИ. 2014 й.
9. Худойқулов Х.Ж. Шарқ мутафаккирлари иқтисод одоби тўғрисида. – Т.: 2005. -110 б.
10. Худойқулов Х.Ж.Ўзбекнинг ғурури-унинг одобида. - Т.: 2007.150 б.
11. Худойқулов Х.Ж Бозор одоби –миллий қадриятларимиз кўзгуси. – Т.: Навруз. 2011 й.
12. Ҳасанбаев Ж. ва бошқалар. Иқтисодий тарбия назарияси. – Т.: ТДИУ: -2006 йил, - 175 б.

Иминова Мухайё Асланбековна
старший преподаватель, кафедры Методика дошкольного, начального и
специального образования, Центр переподготовки и повышения квалификации
педагогических кадров народного образования Андижанской области
(Андижан, Узбекистан)

ПРОЕКТНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ - КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ УЧЕНИКА

Аннотация: В статье отражен тот факт, что использование проектных методов в начальных классах ориентировано на развитие интеллектуальных, эстетических, физических способностей и волевых, творческих качеств личности ученика. Она дает представление о развитии у учащихся навыков критического, рефлексивного, дивергентного мышления на основе использования проектных методов в учебном процессе.

Ключевые слова: проектный метод, интеллектуальные способности, творческие качества, непрерывное образование, педагогические условия, совершенствование, обучение, критическое мышление, рефлексивное мышление, развитие личности.

В школьном возрасте дети проводят большую часть своего времени с учителями. Значит, от нас во многом зависит, вырастут ли они пессимистами и нытиками или уверенными в себе и своем завтра людьми, способными дерзнуть, созидать, делать успешной свою жизнь и жизнь общества. Наряду с совершенствованием учебного процесса школа должна обеспечивать нравственное, эмоциональное и физическое развитие личности с учетом творческих и возрастных особенностей каждого ребенка. Главным фактором развития для каждого ребенка не должна стать деятельность, совершающаяся по принуждению или необходимости, так как результат может быть отрицательным. Деятельность, которая приносит успех и удовлетворение - вот двигатель развития. Мало того, чтобы деятельность была отмечена другими, надо помочь ребенку преодолеть свой страх и застенчивость, свою робость и неуверенность, помочь поверить в свои силы и добиться хорошего результата своей деятельности. Вот это и будет настоящим успехом, потому что ребенок шагнет вперед **в своем личностном развитии**. В современной начальной школе происходит активное обновление целей, содержания и методов образования. Одной из приоритетных задач современной школы является создание необходимых и полноценных условий для личностного развития каждого ребенка, формирования активной позиции учащегося в учебном процессе. Ее решение особенно актуально для начального звена школьного обучения, поскольку учебная деятельность в данный период является ведущей в психическом развитии детей 7 – 10 лет. Дети по своей природе исследователи, с радостью и удивлением открывающие для себя окружающий мир. Им интересно все. Поддерживать стремление ребенка к самостоятельной деятельности, способствовать развитию интереса к экспериментированию, создавать условия для исследовательской деятельности – задачи, которые стоят перед начальной школой. По моему мнению, их в

Преподаватель является главным организатором, он единолично распределяет работу и необходимую информацию, лично контролирует все действия студентов.

Студентам определяется роль пассивных объектов обучения. Воздействие преподавателя на студентов не имеет дифференцированного характера, они воспринимаются как общая масса и не подразумевается учет их ответной реакции и индивидуальных особенностей каждого.

Методы активного обучения - такие способы и приемы педагогического воздействия, которые побуждают студентов к мыслительной активности, к проявлению творческого, исследовательского подхода и поиску новых идей для решения разнообразных задач по специальности. Они призваны вызывать у студентов стремление самостоятельно разобраться в сложных профессиональных вопросах и на основе глубокого системного анализа имеющихся факторов и событий выработать оптимальное решение по исследуемой проблеме для реализации его в практической деятельности.

Методы активного обучения формируют у студентов не просто знания-репродукции (воспроизведение запечатленного и сохраненного в памяти), а умения и потребности применять эти знания для анализа, оценки и правильного принятия решений.

Характер взаимодействия преподавателя и студентов меняется, хотя роль преподавателя остается ключевой. Он остается главным и единственным источником информации и экспертом, но студенты уже не являются пассивными слушателями. Они могут задавать вопросы, прояснять необходимые положения, предлагать собственные решения.




Рис. 2. Характер взаимодействия преподавателя и студентов при реализации методов активного обучения

На рисунке 2 показан двусторонний характер общения преподавателя и студентов. К методам активного обучения относятся: практический метод, беседа, дискуссия, мозговой штурм, обучающая игра, метод проблемных задач и ситуаций, техники пинборд и Инсерт, метод учебных проектов, метод кейс-стади, исследовательский метод.

Методы интерактивного обучения. Интерактивность (от англ. «Inter» - взаимный, «act» - действовать) – означает способность взаимодействовать или находиться в режиме диалога.

Диалог возможен и при методах информационного и активного обучения, но лишь на линиях «преподаватель – студент» или «преподаватель – группа студентов (аудитория)». При интерактивном обучении диалог строится также на линиях «студент – студент» (работа в парах), «студент – группа студентов» (работа в группах), «студент - аудитория» или «группа студентов – аудитория» (презентация работы в группах), «студент – компьютер».

Интерактивное взаимодействие подразумевает нахождение студента в режиме коллективной беседы, диалога с окружением. В отличие от активных взаимодействий, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие студентов друг с другом. Создается среда образовательного общения, которая характеризуется открытостью, взаимодействием участников, равенством их аргументов, накоплением совместного знания, возможностью взаимной оценки и контроля. При этом у студентов появляются дополнительные источники информации - книги, словари, энциклопедии, поисковые компьютерные программы и др.

Таким образом, в отличие от методов активного обучения, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие студентов не только с преподавателем, но и друг с другом и на доминирование активности студентов в процессе обучения (рис.3).

Роль преподавателя резко меняется - перестает быть центральной, он лишь регулирует учебно-воспитательный процесс и занимается его общей организацией, определяет общее направление (готовит заранее необходимые задания и формулирует вопросы или темы для обсуждения в группах), контролирует время и порядок выполнения намеченного плана работы, дает консультации, разъясняет сложные термины и помогает в случае серьезных затруднений, отказывается от роли своеобразного «фильтра», пропускающего через себя учебную информацию, и играет роль помощника, активизирующего потоки информации. На схеме показано, что воздействие преподавателя не прямое, а опосредованное.




Рис. 3. Характер взаимодействия преподавателя и студентов при реализации методов интерактивного обучения

К методам интерактивного обучения относятся: дискуссия, мозговой штурм, обучающая игра, метод проблемных задач и ситуаций, Кейс-стади, метод учебных проектов, техника пинборд. Положительные и отрицательные стороны методов интерактивного обучения приведены в таблице 1.

Таблица 1

Положительные стороны	Отрицательные стороны
Расширение ресурсной базы	Учебная тема может оказаться рассмотренной поверхностно при недостаточном уровне подготовленности студентов
Высокая степень активности и мотивации	Большая напряженность для преподавателя при проведении занятия, сосредоточенность на непрерывном творческом поиске. Трудности обеспечения дисциплины и ее поддержания
Максимальная индивидуализация обучения	Строгий лимит студентов
Акцент на деятельность, практику	Объем изучаемого материала небольшой
Широкие возможности для творчества	Требуется большое количество времени для подготовки и реализации
Прочность усвоения материала	Сложность индивидуального оценивания
Эффективность достижения цели обучения	Результат существенно зависит от профессионализма преподавателя. Преподавателю необходим опыт проектирования и организации коммуникативных отношений

Таким образом, система высшего образования на современном этапе ставит своей задачей подготовку выпускников, свободно владеющих профессией. Осуществление этой задачи требует наряду с внедрением инновационных педагогических технологий совершенствования методики преподаваемых дисциплин. Методы инновации – это не только создание и распространение новшеств, но и результат разработки и внедрения новых организационных форм и подходов, направленных на повышение качества подготовки студентов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. А.И. Щербаков. Основы инновационного образования. Новосибирск. 2004.

2. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. М. 2000.
3. <http://www.uzbekistan.org.ua/ru/uzbekistan/publikatsii/5287>
4. <http://uza.uz/posts/37057>

Рахмонова Замирахон Якубжановна
АДУ, Умумий педагогика кафедраси ўқитувчиси,
Рахмонова Шоҳруза Собиржон қизи
АДУ, 2-босқич магистранти
(Андижан, Ўзбекистан)

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация. Мазкур мақолада бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг касбий компетентлигини шакллантиришда шахсга йўналтирилган ва ривожлантирувчи таълим имкониятлари ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, бўлажак ўқитувчиларни касбий шакллантиришнинг миллий ҳамда умуминсоний қадриятларга асосланган самарали механизмларини ишлаб чиқиш зарурати асосланган. Бундан ташқари шахсга йўналтирилган ёндашув, шахсий йўналтирилган вазиятлар, англаш, қайта англаш ва хулқнинг янги модели доирасида лойиҳалар методи ва ҳамкорликдаги таълимдан фойдаланиш касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнини ҳар бир талаба учун шахсий аҳамиятга эга эканлиги таърифланган.

Калит сўзлар: бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси, касбий компетентлик, мотив, мотивация, шахсга йўналтирилган таълим, ривожлантирувчи таълим, аксиологик (қадриятли) ёндашув, когнитив ёндашув, фаолиятли-ижодий ва шахсий ёндашув.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности развивающего и лично-ориентированного обучения при формировании профессиональных компетенций будущего учителя начальной школы. В нем также подчеркивается необходимость разработки эффективных механизмов профессиональной подготовки будущих учителей на основе национальных и общечеловеческих ценностей. Также описывается процесс развития профессиональной компетентности с использованием совместного обучения, методологии проектов и использования совместного обучения в рамках новой модели индивидуально-ориентированных подходов, индивидуально-ориентированных ситуаций, понимания, повторного понимания и поведения.

Ключевые слова: будущий учитель начальной школы, профессиональная компетентность, мотив, мотивация, лично-ориентированное обучение, развивающее образование, аксиологический подход, когнитивный подход, творческо-деятельностный и личностный подход.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETITION OF EDUCATIONAL EDUCATION
STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

Annotation. *This article discusses the possibilities of developmental and personality-centered learning in the formation of professional competencies of a future teacher of primary school. It also emphasizes the need to develop effective mechanisms for training future teachers based on national and universal values. It also describes how the process of developing professional competence in the use of collaborative learning, the methodology of projects and the use of collaborative learning within the new model of individual-focused approaches, individual-focused situations, understanding, re-understanding and behavior.*

Key words: *future primary school teacher, professional competence, motive, motivation, student-centered learning, developmental education, axiological approach, cognitive approach, creative activity and personal approach.*

КИРИШ. Замонавий глобаллашув таъсирида ахборот маконининг юқори суръатлар билан ўсиши, педагог кадрларни тайёрлашда ўзгача ёндашувни, яъни инновацион, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва ахборот-методик таъминот тизими ёрдамида уларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришни давр талабига айлантирмоқда.

Таълим тизими ривожланишининг ҳозирги босқичи замонавий таълимни янги, янада юқори даражага олиб чиқиши мумкин бўлган янги назариялар ва технологияларни излаш жараёнидаги муаммо сифатида тавсифланади. Таълим соҳасидаги муаммоли вазият молиялаштиришнинг қолдиқли тамойиллари, педагогик кадрлар билан боғлиқ муаммолар билан чуқурлашади: педагогларнинг умумий сонидан 84 фоизини аёллар ташкил этади, педагогик кадрларнинг кексايши – 150 мингдан зиёд педагоглар-пенсионерлар, катта ўқув-методик юкламанинг мавжудлиги (ҳафтада 40 соатгача). Бу педагогнинг ижтимоий мавқеи, педагогик касб обрўсининг, касбий ўсиш мотивацияси даражасининг кескин пасайишига олиб келди [1].

АСОСИЙ ҚИСМ. Олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш муаммосига мазкур ёндашувдан ўз ишларида А.И. Ахулкова, О.Ю. Перцева, В.И. Турчанинова ва бошқалар фойдаланганлар.

О.Ю. Перцеванинг фикрича, олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантиришга контекстли ёндашув ўзига икки имкониятни мужассамлаштирган:

– талабага шундай таълим муҳити таъминланадики, унда у фаол шахсий вазиятни эгаллайди ва ўқитувчи ҳамда талабалар билан ҳамкорликда ўқув-билиш фаолиятининг субъекти сифатида кўпроқ ўзини намоён этиши мумкин;

– талабанинг ўқув фаоллигини унинг бўлажак касбий фаолиятига кўчириш учун ва бу билан ўқув-билиш фаолиятдан мустақил касбий фаолиятга табиий ўтиш учун шароитлар яратилади [2].

Шу билан бирга олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантиришга контекстли ёндашув олий таълим

муассасасидаги таълимнинг барча шаклларида: маъруза, семинар, амалиёт ва бошқаларда амалга оширилади.

Демак, биз ҳам контекстли ёндашувдан фойдаланган ҳолда, олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларини таълимнинг барча шаклларида ўқув-билиш жараёнида мустақил касбий фаолиятни қандай олиб боришларини аниқлаб бера оламиз.

Олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш муаммосининг ечимига компетентли ёндашув турли муаллифлар томонидан турлича талқин этилади. Психологик-педагогик тадқиқотларда ҳозирги вақтда ягона фикр мавжуд эмас.

Таълим сифатини бошқариш мақсади талабалар тайёргарлиги сифатини нафақат мавжуд билимлари, балки уларнинг компетентлик даражаларидан келиб чиқиб баҳолаш методикаларини яратишни кўзда тутди. Инсоннинг бутун ҳаёти давомига таълим тизимини қуриш мақсади қайси компетенциялар ва компетентликлар олий таълим муассасасида талабани ифодалаш ва қайсилари иш юритувчи мутахассисларни ифодалашини детерминациялайди [3].

Бизнинг фикримизча, компетенцияларни ўқув дастурларига киритилишининг ўзи етарли эмас. Мазкур компетенцияларни эгаллаш, талабаларнинг бўлажак фаолият предметига шахсий муносабатларини киритиш, яъни мос компетентликни шакллантиришга имкон берувчи механизм зарур. Бундай механизм бўлиб ўқув фанларининг дастурларини модулли қуриш ҳисобланади.

Модуль – бу бўлажак мутахассиснинг муайян касбий билимлари ёки кўникмаларини шакллантириш учун етарли бўлган ахборот ёки ҳаракатнинг муайян “дозаси” ҳисобланади.

Дастурнинг ҳар бир модули – бу ўқув фани мазмунининг мантикий тугалланган қисми бўлиб, ўз ичига таълим оловчи томондан мазкур модулни ўзлаштириш натижасида шакланган билим, кўникма ва малакаларнинг тегишли назорат шакллари билан яқунланиши керак бўлган билиш ва касбий жиҳатларни қамраб олади [4].

О.Ю. Перцева исботлашчи, олий таълим муассасаларига компетентли ёндашувни жорий этиш вазифасини ҳал этишнинг муҳим йўлларида бири ўқув жараёнини фаол ўқитиш методлари асосида излаш ва қуриш ҳисобланади (кейс-стади, лойиҳалар методи, ўйинли технологиялар, ўқитишнинг модулли технологияси, «портфолио» методи ва бошқалар). Унинг таъкидлашчи, мазкур ўқитиш технологиялари, методлари ва шаклларининг бирлиги компетентли йўналтирилган таълимнинг технологик ресурсини ифодалайди [5]. Аммо муаллиф уларни ўқув жараёнида амалга ошириш механизмларини ажратмайди: қачон, қандай шароитларда, бўлажак ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнининг қайси босқичида уларни қўллаш ва нима учун.

Ушбу фикрлардан шуни айта оламизки, тадқиқот ишида компетентли ёндашувдан фойдаланиш жараёнида фаол ўқитиш методларини амалга оширишнинг мукамал механизми яратилмас экан, биз кўзланган самарали натижага ериша олмаимиз.

Шахсга йўналтирилган ёндашув, шахсий йўналтирилган вазиятлар, англаш, қайта англаш ва хулқнинг янги модели доирасида лойиҳалар методи ва ҳамкорликдаги таълимдан фойдаланиш касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнини ҳар бир талаба учун шахсий аҳамиятли қилади.

Иккинчи йўналиш бўйича касбий компетентлигини ривожлантириш муаммосини ҳал этиш учун мавжуд педагогик технологиялар элементларидан фойдаланадилар (ўйинли, ахборот, модулли, ривожлантирувчи, лойиҳали, бадиий-ижодий).

Демак, биз ҳам олий таълимда олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш технологиясининг хусусий методик даражаси сифатида моҳиятан юқоридаги технологиядан фойдалана оламиз. Бу орқали талабаларда касбий компетентлик даражаси ривожлантирилади.

Бўлажак ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш бўйича икки йўналишдаги тадқиқотлар таҳлили, тадқиқотчилар томонидан фойдаланилган технологиялар олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантиришнинг воситаларидан бири сифатида хизмат қилиши тўғрисида хулоса чиқариш имконини беради. Одатда, улар олий таълим муассасасининг ўқув жараёнига уйғун киритилган ва талабаларнинг мазкур сифатнинг фақат алоҳида компонентларини ривожлантиришга имкон беради.

Олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш муаммоси бўйича учинчи йўналишни таҳлил қиламиз.

Т.Б. Игоница ва Т.Г. Чешуинанинг фикрига кўра, олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантиришда педагогик амалиёт имкониятини амалга оширишда педагогик амалиёт қуйидагиларга имконият яратиши ҳисобланади:

- касб тўғрисида дастлабки тасаввурлардан зарур касбий билимларни эгаллашга, кўникмаларнинг, бўлажак ўқитувчининг касбий аҳамиятли сифатларининг қўлланилишига ўтиш;

- касбий ўз-ўзини аниқлаш;

- талабаларнинг касбий компетентликларини унинг ҳар бир босқичида ривожлантириш, мавжуд билим ва кўникмаларни такомиллаштириш [6]. Кўрсатилган дастлабки шарт-шароитлар муаллифларга бўлажак ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш муаммосини самарали ҳал этишга имконият яратди.

Демак, педагогик амалиёт олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабалари учун олинган назарий билим ва кўникмалар, қарор ва хулосалар ҳамда амалий тажрибалар ўртасида кўприк вазифасини ўтайди ва шу орқали ҳам талабаларда касбий компетентлик ривожлантирилади.

Е.В. Мальцева томонидан узлуксиз таълим тизимида бошланғич таълим ўқитувчисининг касбий компетентлиги ривожланишининг ташкилий-педагогик шарт-шароитлари ишлаб чиқилган, улар қуйидагилар:

– ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш учун махсус дастур ишлаб чиқиш;

– касбий компетентлик ривожланишининг мониторинг тизимини қўллаш, узлуксиз педагогик таълимни ташкил этиш;

– педагогларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш учун аттестация жараёнидан фойдаланиш;

– янги таълим технологияларидан фойдаланиш [7].

Шу тариқа, олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш муаммосининг психологик-педагогик тадқиқотлардаги ҳолати таҳлили мазкур муаммони ҳал этишнинг камчиликларини аниқлашга имкон берди.

Олий таълим муассасасида бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнига таъсир этувчи омиллар аниқланмаган.

Бошланғич синф ўқитувчиси фаолиятининг ўзига хослигини акс эттирувчи касбий компетентликнинг ривожланганлик кўрсаткичлари етарли ишлаб чиқилмаган.

Олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий фаолияти мотивларини ривожлантиришда шахсга йўналтирилган таълим имкониятлари аниқланмаган ва амалга оширилмаган (анъанавий таълимда касбий мотивларни шакллантириш махсус ташкил этилган жараён ҳисобланмайди).

Олий таълим муассасасида бўлажак бошланғич таълим ўқитувчисининг касбий компетентлигини ривожлантиришда ривожлантирувчи шахсга йўналган таълим муҳити имкониятларидан деярли фойдаланилмайди.

Бўлажак ўқитувчининг касбий компетентлигини ривожлантиришда мустақил таълим фаолиятига кам эътибор қаратилади.

Аниқланган камчиликлар қатор зиддиятларни аниқлаш имконини берди:

– олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнини такомиллаштириш эҳтиёжи ва унинг етарли назарий-методологик таъминланмаганлиги ўртасида;

– олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини ривожлантириш зарурати ва мазкур жараён самарадорлигининг педагогик шарт-шароитларининг етарли ишлаб чиқилмаганлиги ўртасида.

ХУЛОСА. Мазкур зиддиятларни ҳал этиш учун олий таълимда бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини муваффақиятли ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитларини аниқлаш зарур. Аммо, аввало касбий компетентликни ривожлантириш жараёнига таъсир этувчи омилларни аниқлаш лозим ва кейинги параграф айнан мазкур масалага бағишланган. Умумий хулоса шуки бошланғич синфдаги бола шахси учун унинг ўқитувчиси энг идеал ва профессионал шахсдир. Шунинг учун ҳам у келажакдаги касбий фаолиятига ҳар жиҳатдан тайёр бўлмоғи лозим. Бундан ташқари бугуннинг бошланғич синф ўқитувчиси юксак педагогик маҳорат эгаси ва илғор педагогик ва ахборот технологияларининг устаси бўлмоғи ҳам лозим.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Алексеев, Н.А. Личностно-ориентированное обучение: вопросы теории и практики [Текст]: Монография. / Н.А. Алексеев. - Тюмень: Изд-во ТГУ, 1996. - 216 с.
2. Turg'unov S.T. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentliligini rivojlantirish// Sano-standart. – Тошкент, 2012. – 172 bet.
3. ПЕДАГОГИКА: энциклопедия. II жилд. Жамоа. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015. – 376 бет.
4. Ясвин, В.А. Образовательная среда. От моделирования к проектированию [Текст] / В.А. Ясвин. – М.: Смысл, 2001
5. Равен, Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация [Текст] / Пер. с англ. – М.: Когито-Центр, 2002. - 396с.
6. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. докт.... дисс. – Т.: 2007. – 357 б.
7. Абрамова, В.В. Формирование профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры: Дисс... канд.пед.наук. / Абрамова В.В. – Тирасполь, 2006. – 229 с.

Сейфуллаев Алланазар Скендербекович
ассистент
Тошкент давлат аграр университети
Нукус филиали
(Нукус, Узбекистан)

КИТОБХОНЛИК – БУЮК КЕЛАЖАК КАФОЛАТИ

Аннотация. В этой статье освещаются мнения мудрецов о книге, утверждающих, что книга и чтение - залог будущего для каждого. Важное значение имеют принятые в последние годы указы и постановления Президента о развитии культуры чтения.

Ключевые слова: книга, культура чтения, указы и решения Президента, великие мыслители, развитое поколение, духовный рост.

Мустақиллик йилларида миллий истиқлол ғояси ҳақиқий маънода халқимизнинг миллий тикланишига хизмат қилди. Халқимизни жипслаштириб, бузғунчи ғояларнинг мазмун-моҳиятини тушунтирди. 2017-йилдан Ўзбекистон ўз тараққиётининг янги – Миллий юксалиш босқичига кўтарилди. Президент Шавкат Мирзиёев томонидан 2017-2021 йилларни ўз ичига қамраб олган Ўзбекистонни янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишидан иборат «Ҳаракатлар стратегияси» қабул қилиниб, ҳаётга тадбиқ қилинди.

Сўнги йилларда юртимизда Президентимиз томонидан ёшларнинг маънавий ва интеллектуал даражасини оширишда жуда катта ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, ёшларнинг бўш вақтларини мазмунли, мароқли ўтказишда, уларнинг ақл-заковатини, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтиришда, фикрлаш қобилиятини орттиришда, она Ватани ва халқига муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол шахсни тарбиялашда, шунингдек китоб ўқишни анъанага айлантириш мақсадида «китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги қарори қабул қилинди.

Ҳақиқатдан ҳам бугунги глобаллашув жараёнлари авж олган даврда кўпчилик ёшлар барча информацион маълумотларни интернет, ижтимоий тармоқлар, телевидение, радио ва ҳ. технологиялардан олмоқда. Лекин бу технологиялар китобнинг ўрнини боса олмайди.

Чунки китоб – инсоннинг энг яқин дўсти ва маслаҳатчиси, унга йўл кўрсатувчи ҳамроҳи ва билим манбаи. Китоб фикрлаш қуроли, ҳазиналар қазини, тафаккур манбаи бўлгани учун ҳам халқимиз уни нондай азиз ва муқаддас деб ҳисоблаган. Шунинг учун китобга муҳаббат, уни қадрлаш, эъзозлаш ўқишга ҳушторлик халқимизнинг қон-қонига сингиб кетган.

Китоб ўқиган, уни мутола қилган одамларнинг дунёқараши бой, одоб-ахлоқи намунали, ҳамиша эзулик сари қадам ташлаши бежизга эмас албатта. Китоб – маънавиятимиз озиғи, у билан дўстлашиш инсонни нафақат ривожлантириб қўймай,

балки унга дунёни танитади, биргаликда эзгу ишларга етаклайди. «Маънавий ва жисмоний баркомол авлодни тарбиялаш масаласи биз учун умумиллий, умумдавлат миқёсидаги вазифа бўлиб, бу эзгу мақсад йўлида амалга оширилаётган ишларимизни босқичма-босқич ва жиддий давом эттириш бугунги сиёсатимизнинг диққат марказида турганини яна бир марта ўқтириб ўтмоқчиман» - деган эди биринчи Президентимиз Ислом Каримов.

Китоб ҳақида доноларнинг панду насиҳатлари, ёзма манбалар, халқ оғизаки ижод намуналари, халқнинг маҳаллий тарбия услубларида акс этган китоб билан боғлиқ ҳар хил ҳаётий анъаналар, дастурларидан ҳам билиш мумкин. Халқимиз китоб ҳақида нақл-мақоллар, ривоятлар билан бирга кўпгина афоризмлар, ҳикматлар ҳам яратган. Жумладан, донишманд халқимизда мана бундай мақоллар халқимиз томонидан бежиз айтилмаган; «Ўқиган ўзар, ўқимаган тўзар». «Билаги кучли бирни йиқади, билими кучли мингни йиқади».

Китоб ва китобхонлик ҳақидаги халқ дастурий панду-насиҳатлари билан буюкларнинг дунёқараши, фикрлари бир-бирига жуда яқин, бири иккинчисини тўлдиради. Бу ҳолат китобнинг катта маънавий кучга эгалиги, китобхонлик инсон учун олий мезон экани билан ҳам таърифланади.

Китобхонлик тор маънода китоб ўқишни англатса, кенг маънода танлаб ўқиш, ҳис этиш, тушуниш ва фикр билдириш тушунчаларини ўз ичига қамраб олади. У бадий адабиёт, адабий танқид ва педагогика кўмагида ривожланиб боради.

Китобхонлик кеча ёки бугун туғилган эмас. Асосан, Маҳмуд Қошқарийнинг «Девону луғат ат-турк», Абу Абдулла ал-Хоразмийнинг «Мафатих ал-улум», Юсуф Ҳос Хажибнинг «Қутадғу билиг», Носируддин Бурҳонуддин Рабғузийнинг «Қиссаи Рабғузий», Ҳондамирнинг «Макорим ул-ахлоқ» ва Алишер Навоий, Заҳриддин Муҳаммад Бобурларнинг бир қатор асарларида китобхонликга оид қимматли фикрлар баён қилинган.

Жумладан, буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий ҳазратлари ёзганидек, “Китоб – беминнат устоз, билим ва маънавий юксалишга эришишнинг энг асосий манбаи”. Халқимиз тилида ҳам китоб ўқиб билим ва муносиб таълим-тарбия олиш, илм-фан билан шуғулланиш, касб-ҳунар ўрганишнинг аҳамиятига доир мақоллар жуда кўп. Жумладан, “Китобсиз ақл – қанотсиз куш”, “Бахт белгиси – билим”, “Билим – ақл чироғи”, “Гўзаллик – илму маърифатда”, “Илм бахт келтирар, билим тахт келтирар”, “Ҳунар – оқар булоқ, илм – ёнар чироқ”, “Олтин олма, билим ол, билим олсанг, билиб ол”. Бундай пурҳикмат нақлларни яна узоқ давом эттириш мумкин.

Одамзотнинг маданияти унинг китобида акс этади. Шу маънода бугунги кунда китоб ўқиш ва унга муносабат бир қанча сусайгандай. Чунки ёшлар кўпроқ кино, видео, телевидение, қўл телефони, компьютерга берилиб кетди. Компютер ҳозирги кунда кўпгина оилаларга ҳам кириб борди. Ҳоҳлаган янгилик, ахборотларни бу воситалардан бемалол олишга эга бўлди. Аялчиси шундаки, бугун китоб ўқиш учун вақт сарфлашга ҳожат йўқдай. Аслида, ҳеч бир оммавий ахборот воситалари, кино ёки видеофильм бадий асар ўрнини боса олмайди. Масалан, «Ўткан кунлар» романи асосида ишланган фильм қанчалик маҳорат билан ишланмасин, китобнинг тасирини, қиёфасини бера олмайди.

Китобхонлик оиладаги муҳитга ҳам боғлиқ. Маърифатли, зиёли оилаларда китобга эътибор фарзандлар тарбиясида қўл келади.

Китобни инсон тафаккурининг қанотларига ҳам ўхшатишган. Айниқса, тафаккури, фикр доираси кенг, зиёли одамлар жамиятнинг ҳақиқий маънодаги бойлиги. Айни бугунги кундалик ҳаётимизда содир бўлиб турадиган баъзи нохушликлар илдизи эса илмсизлик, китоб ўқимасликнинг аччиқ меваси. Темирни занг кемирганидек, одамни ҳам маънавиятсизлик мўрт қилади. Маънавият эса инсонга китоб ўқиш орқали йўқади.

Ҳар қандай янгилик ҳам бир кун келиб эскиради. Лекин одамзотнинг минг-минг йиллар давомида қўлга киритган ақлий ва фикрий дурдоналарини ўзида мужассам этган китоблар ҳеч қачон эскирмайди.

Билсангизлар китоб ҳамиша илм-маърифат, одаб-ахлоқ манбаи бўлиб келган. Бугунги кунда ёш авлодни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашда китобдан муҳимроқ, қудратлироқ қурол йўқ.

Хулоса қилиб айтганда, ёш авлодни маънавий ва интеллектуал жиҳатдан баркамол шахс этиб тарбиялашда, юрт равнақи, ватан келажаги учун фидойи бўлишида, дунёқарашини юксалтиришда, сўз ҳазиналарини бойитишда китобнинг ўрни алоҳида бўлиб қола беради. Шунинг учун ҳам ҳар биримиз ўсиб келаётган ёш авлодга китобнинг бебаҳолигини, унинг қимматини, бугунги кундаги ўрни ва аҳамиятини, уни қадрлашга, меҳр кўйишга, севиб мутола қилишга чақириш ҳар биримизнинг олдимизда турган муҳим вазифа бўлиб ҳисобланади. Чунки китобхонлик – буюқ келажак кафолати, барча кулфларнинг калитидир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги «Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси ҳақида»ги 4947-сонли Фармони.
2. «Китоб маҳсулотларини босиб чиқариш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб ўқиш ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2017-йил 13-сентябрь.
3. Ж. Базарбаев., Қ. Даўлетова. «Одобнома». Нукус, 1994.

Саломова Гулрух Шерали кизи
магистрант
Каршинский ГУ
(Карши, Узбекистан)

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ К ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

Аннотация. В статье приводятся сведения об особенностях обучения младших школьников творческому мышлению, элементах творческого мышления и требованиях, которые необходимо соблюдать при обучении учащихся творческому мышлению на уроках родного языка начальной школы.

Ключевые слова: личность, учащиеся, творческое мышление, элементы творческого мышления, условия обучения творческому мышлению.

Annotation. The article provides information about the features of teaching creative thinking to primary schoolchildren, the elements of creative thinking and the requirements that must be met when teaching students creative thinking in the lessons of the native language of primary school.

Key words: personality, students, creative thinking, elements of creative thinking, conditions for teaching creative thinking.

После обретения Узбекистаном независимости были проведены различные реформы в системе образования, а также во всех сферах жизни. Особое внимание было уделено повышению эффективности учебного процесса, в частности, эффективному использованию современных методов и средств обучения родному языку, решению задач формирования у учащихся навыков самостоятельного и творческого мышления.

Творческое мышление побуждает учеников к независимости, мотивирует их к умственной работе и учит их творить. Он охватывает самые разные вопросы: от улучшения системы образования до организации, управления и контроля индивидуальных уроков, от эффективной организации изучения предметов до организации индивидуальных уроков учащихся. Творческое мышление учеников положительно влияет на общественно-политический климат, и в результате существующая среда в нашей стране полностью изменится. Это также ускоряет процесс обретения своего места в обществе, приводя к формированию независимого, грамотного человека. Если будут созданы все необходимые условия для полной реализации интеллектуального потенциала, который существует в каждом человеке, мышление избавится от всех жестких старых концепций и убеждений.

Развивать творческое мышление - дело непростое. Это также не означает, что обучение будет завершено и забыто в определенном возрасте. Нет четких путей, ведущих к творческому мышлению. Однако есть определенный набор условий обучения, которые можно использовать для характеристики творческих мыслителей. В частности, необходимы следующие условия:

- ✓ Дайте время и возможность получить опыт творческого мышления.
- ✓ Дайте ученикам возможность подумать и принять различных идей и мнений.
- ✓ Разрешите учащимся активно участвовать в учебном процессе.
- ✓ Убедите учеников, что над ними никто не будет смеяться.
- ✓ Убедите каждого ученика в том, что каждый человек способен мыслить творчески.

✓ Оцените появление творческого мышления.

А также ученики должны:

развить уверенность в себе и понять ценность своих идей и мыслей;

активно участвовать в процессе обучения;

с уважением выслушивать чужие мнения;

иметь желание или возможность воздерживаться от формирования собственного мнения.

Элементы творческого мышления заключаются в следующем:

- творческое мышление - самостоятельное мышление;
- информация - начало творческого мышления;
- творческое мышление начинается с определения проблемы, которую нужно будет задать и решить;
- творческое мышление основывается к убедительным аргументам;
- творческое мышление - это социальное мышление.

Творческий потенциал человека зависит, прежде всего, от его образа мышления, его способности мыслить. Благодаря той же способности человек определяет суть событий, происшествий, процессов, которые он видит, знает, слышит, происходит вокруг него, правильные они или неправильные, истинные или ложные. Если быть более точным, человек находит решения проблем, которые возникают в нашей повседневной жизни благодаря той же способности.

По наблюдениям, творческое мышление проявляется сначала в умении увидеть и задать новый вопрос, новую проблему, а затем решить ее самостоятельно. Или творческое мышление - это деятельность, в которой учащиеся демонстрируют высочайший уровень активности, творческих способностей, творческих суждений и инициативы. В результате ученики могут: творчески применять знания в новой ситуации, видеть новую проблему при изучении тем, понимать, что может быть несколько (альтернативных) решений проблемы, комбинировать ранее известные методы решения проблем, находить оригинальные способы решения проблем.

Положительные результаты могут быть достигнуты в процессе обучения учащихся творческому мышлению, если на уроках родного языка начальной школы соблюдать следующие правила:

- если созданы необходимое условие для творческого мышления учащихся на уроках;
- если используется дидактические игры и задания, которые учит учеников творчески мыслить на уроках;
- если применяется в учебном процессе творческие методы последовательно и регулярно;

- если создаются во время урока проблемные ситуации и обеспечивается участие учеников;

- если налажено взаимодействие учителя и ученика.

Обучение - это организационный процесс, сформированный на основе взаимодействия преподавателя и ученика. В его основе лежит взаимодействие между преподаванием и учебной деятельностью. Понять суть учебного процесса можно через всесторонний анализ учебно-познавательной деятельности.

В результате обучения учеников творческому мышлению на родном языке:

- формируется потребность к знаниям;

- активизируется познавательная деятельность;

- повышается интерес к изучению науки;

- повышается желание научиться работать с информацией;

- повышается уровень индивидуальности ученика в обучении;

- развивается творческие способности;

- обеспечивается разнообразие материального содержания;

- расширяется спектр дидактических материалов, используемых в образовании;

- расширяется самоконтроль, т.е. факторы процесса оценивания учеников.

В обучение учащихся творческому мышлению важен фактор правильной организации деятельности и использование возможностей участников процесса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Адизов Б.Р. Системный подход к творческому процессу обучения. //Журнал «Народное образование». - 2001. №4. Ст. 102-104.
2. Мухиддинов А.Г. Речевая деятельность в процессе обучения. – Т.: Укитувчи, 1995. – Ст. 78.
3. Розиков О. Развитие творческих способностей у младших школьников // Развитие творческой активности учащихся в учебном процессе. – Т.: Укитувчи, 1966. Ст. 23-41.
4. Гуломов А.К., Кобилова Б. Занятия по развитию речи. – Т.: Укитувчи, 1995. Ст. 158.

Тоштемирова Насиба Позиловна
АДУ Умумий педагогика кафедраси ўқитувчиси
(Андижан, Ўзбекистан)

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ МУЛОҚОТ ЮРИТИШ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация. Ушбу мақола компетент таълим ғояси таълимнинг натижаси қандай бўлиши керак деган саволга жавоб бериш учун илгари сурилган. Компетент ёндашув эса таълим сифатини таъминлаш ва бунинг анъанавий усуллар воситасига, яъни ўзлаштирилган маълумот ҳажмини ошириш йўли билан ҳал қилинмаслиги орасидаги зиддият туфайли юзага келган муаммоли ҳолатдан чиқишни ўргатади. Бундан ташқари, касбий компетенцияларни ривожлантиришда тил таълимнинг ўрни ва коммуникатив компетенция чет тили воситасига маиший, ўқув, ишлаб чиқариш ва маданий ҳаётда долзарб бўлган мулоқот масалаларини ҳал қила олиш, тил ва нутқ воситалари ёрдамида мулоқот мақсадларига эришиш масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: касбий мулоқот, компетенциявий ёндашув, коммуникатив компетенция, нутқ ўстириш, тил таълими.

КИРИШ. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни [1] ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” [2] асосида мамлакатимиз таълим тизимида амалга оширилган туб ислохотлар шахсга йўналтирилган таълимни жорий этишга, яъни ҳар томонлама билимли, дунёқараши кенг, рақобатбардош, комил инсонни тайёрлашга қаратилган. Бунга эришиш учун ўқувчи-талабаларни узлуксиз таълим босқичларида турли соҳалар бўйича эгаллаган билимларни кундалик ҳаётда амалий қўллашга ўргатиш орқали уларда касбий кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш керак бўлади. Бугунги глобаллашув даврида таълимнинг асосий вазифаларидан бири ўқувчигиталабаларга нафақат билим бериш ҳамда эгаллаган билимлари асосида кўникма ва малакалар ҳосил қилиш, балки уларни амалиётда қўллай олиш лаёқатини шакллантиришдан иборат. Бу барча фанларни ўқитишда компетент ёндашувни жорий этиш вазифасини ўртага қўйди.

Маълумки, ҳар бир фан асосларини муайян таълим босқичларида ўқитиш тамойилларини белгилаб берувчи асосий норматив ҳужжат Давлат таълим стандарти саналиб, унда муайян фанни ўқитишнинг мақсад ва вазифалари, таълим оловчилар ўзлаштириши зарур бўлган билимлар мазмуни, улар асосида эгаллашлари керак бўлган кўникма ва амалий малакаларнинг компетенциявий талаблари ҳам белгилаб берилган [3].

АСОСИЙ ҚИСМ. Латинча *competere* (“лаёқатли, муносиб бўлмоқ”) сўзидан келиб чиққан “компетенция” сўзи шахснинг бирор-бир соҳадан хабардорлик, шу соҳани билиш даражасини англатади [4]. Олий таълим терминларининг луғатида эса “компетенция” сўзи “масалалар доираси, бунда муайян амалдор шахс билимлар, тажрибаларга эга бўлади” деб изоҳланади [5]. Шу билан бирга, “компетенцияга эга бўлиш” тушунчаси “КОМПЕТЕНТЛИК, ваколатлилик – муайян ижтимоий касбий мавқега эга шахсларнинг

билим, лаёқат ва тажрибаси улар бажараётган вазифа ҳамда ҳал этаётган муаммоларнинг мураккаблик даражасига мос келганлиги” деб таърифланади [5]. Кўринадики, “компетентлик” билим, тажриба ва лаёқат тушунчаларини қамраб олади.

“Компетенция” тушунчаси илк бор XX асрнинг 50–60-йилларида америкалик олим N. Chomsky асарларида тилга олинган бўлиб, инсоннинг бирор фаолиятни амалга ошириш лаёқати сифатида талқин этилган. N. Chomsky “Синтактик структуралар”, “Синтаксис назариясининг аспектилари” асарларида “компетенция” (competence) ва “қўлланиш” (performance) тушунчаларини қиёсий таҳлил қилади ҳамда ушбу терминлар мазмунидаги фарқларни “сўзловчи-тингловчи”нинг билимлари билан тилнинг мулоқот ва фаолиятида қўлланиши орасидаги тафовутлар орқали очиб беради [6].

Компетент ёндашувга асосланган таълим ўқувчи-талабалар томонидан эгалланган билим, кўникма ва малакаларни шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятда амалда қўллаш олиш компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълимдир. Шу жиҳатдан қараганда Б. Ходжаевнинг тадқиқот ишида компетент ёндашув доирасига таълимнинг учта анъанавий элементи бўлган билим, кўникма ва малакага яна учта унсурлар: амалий фаолият тажрибаси, компетенция, компетентликнинг илгари сурилиши муайян асосга эга [7].

Шуни айтиб ўтиш керакки, компетенциялар уларни қўллагандагина намоён бўлади. Акс ҳолда улар яширин имкониятлар, эҳтиёжсиз лаёқат сифатида талқин қилинади. Шу боис компетенция муайян вазиятда маълум бир лаёқатни намоён қилиш, кўрсатишни англатади. Касбий компетентлик ушбу фаолиятни бевосита юритаётган мутахассисдагина намоён бўлади, бироқ унинг дастлабки шарт-шароитлари, асоси, замини ҳамда алоҳида жиҳатлари касбий таълим жараёнида шаклланади ва ривожланади. Муаммоларни ҳал қилишга ўргатиш шахсни таълим жараёнидаёқ келгуси ҳаётга ва касбий фаолиятга амалий жиҳатдан тайёрлайди.

Мутахассиснинг малакасини белгиловчи ушбу унсурлар иш жараёнида касбий мулоқот орқали юзага чиқади ва баҳоланади. Шу боис, бизнинг назаримизда касбий компетенция ва касбий мулоқот юритиш узвий боғлиқ бўлиб, улар таянч компетенциялар сирасига киради. Хусусий компетенцияларни ривожлантириш учун эса муайян фан тармоғи бўйича бериладиган билим, кўникма ҳамда малакалар орқали соҳа терминологияси, назарий билимлар, уларни муайян вазиятларда қўллаш ўргатиб борилади. Жумладан, тил таълимида шаклландиган нутқий компетенция касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантиришда ниҳоятда муҳим ўрин тутди. Хорижий тадқиқотларда касбий компетенцияларнинг ҳам турли жиҳатлари таҳлил қилинган.

Жумладан, M. Danielsнинг “Касбий компетенцияларнинг ривожланиши ва уларни баҳолаш” мавзусидаги докторлик диссертациясида касбий компетенцияларни ижодий муҳитда ривожлантириш, уларнинг ривожланиши учун ўқув муҳитини ташкил қилиш, шунингдек, техник таълимда касбий кўникмаларни баҳолаш масалалари кўриб чиқилган [8]. Тадқиқотчи касбий компетенцияларнинг ривожланишини таъминлайдиган бир қатор омилларни кўрсатиб берган.

G. Cheathamнинг “Касбий компетенцияларни эгаллаш” мавзусидаги докторлик диссертациясида компетенцияга нисбатан функционал ёндашувлар ҳамда эмпирик

методология ёритиб берилган бўлиб, унда касбий компетенциянинг янги модели ва уни баҳолаш усуллари таклиф қилинади [9]. Хусусан, тадқиқотчи томонидан ишлаб чиқилган интервью орқали тестлаш усули педагогик инновациялардан ҳисобланади.

Бу жиҳатлар бугунги кунда ўқувчи-талабаларни асосан эртанги кунга мос қилиб тарбиялашни, яъни жаҳон бозорида рақобатбардош бўлиш, ҳар қандай қутилмаган ҳолатга доимо тайёр туриш, кечаги билим ва тажриба бугунги ва эртанги фаолиятни юритишда самара бермаслиги, ўқитувчи ўқувчи-талабанинг келажак ҳаётида ютуқлари имкон қадар кўп ва муваффақиятсизлиги имкон қадар кам бўлишини таъминлаши кераклиги билан асосланади. Агар ўқитувчи ўзини ягона ва асосий билим манбаи деб ҳисобласа, ҳаёт ҳамда тарбия борасидаги тажрибасини энг тўғри тажриба деб талқин қилса, ҳаётнинг ҳамда касбий муаммоларни ҳал қилишнинг “тўғри” ва “нотўғри” йўллари ўқувчи-талабаларга қатъий равишда белгилаб берса, “шарт”, “мажбурий”, “шунга одатланиш керак” каби асослаш қийин бўлган мулоҳазаларга берилса, таълимнинг самараси бўлмайди. Аксинча, бугунги ёшларни мустақил фикрлаш, ахборот-маълумотларни излаб топишга ўргатиш, ўрганганларини нотаниш вазиятларда ҳам қўллай олиш, қийин вазиятлардан чиқиб кета олиш, муаммоларни ўзи еча олишига ўргатиб борилса, уларнинг келажакда муваффақиятга эришишларига асос солинади.

Методик адабиётларда таърифланишича, коммуникатив компетенция чет тили воситасида маиший, ўқув, ишлаб чиқариш ва маданий ҳаётда долзарб бўлган мулоқот масалаларини ҳал қила олиш; тил ва нутқ воситалари ёрдамида мулоқот мақсадларига эришишдир. Ушбу фикрга қўшилган ҳолда шуни таъкидлашни истардикки, коммуникатив компетенция жамиятда инсонлар билан ўзаро мулоқотга киришиш учун она тили, ўзи яшаётган давлатнинг расмий тили ҳамда хорижий тилларда сўзлашиш, ўз фикрини оғзаки ва ёзма равишда аниқ ҳамда тушунарли баён қила олиш, саволларни мантиқан тўғри қўя олиш ҳамда берилган саволларга мантиқан тўғри жавоб бериш, мулоқот вазиятига мослаша олиш, мулоқот жараёнида муомала маданиятига амал қила билиш, суҳбатдошининг фикрини ҳурмат қилган ҳолда ўзининг нуқтаи назарини ҳимоя қила олиш, муаммо ҳамда келишмовчиликларни ҳал этишда мақбул қарорларни қабул қилиш каби жуда кўп жиҳатларни қамраб олади.

Коммуникатив компетентлик талабларидан келиб чиққан ҳолда, унда қуйидаги компонентларнинг бўлиши тавсия қилинади:

- соҳа лексикасини билиш; - оғзаки нутқнинг ривожланганлиги (аниқ ва тўғри сўзлаш);

- ёзма нутқнинг ривожланганлиги;

- этика ва мулоқот этикасига риоя қилиш;

- мулоқот тактикаларининг эгалланганлиги;

- мулоқот стратегиясининг эгалланганлиги;

- мулоқот иштирокчиларининг ўзига хос хусусиятлари ва муаммоларини билиш;

- ташқи сигналлар (тана ҳаракатлари, юз ҳаракатлари, нутқ оҳанги)ни таҳлил

қила олиш;

- низоларнинг олдини олиш;

- ўзига ишониш; - бошқаларни тинглай олиш;

- нотиклик маҳоратини эгаллаш; - актёрлик маҳоратини эгаллаш;
- музокараларни ташкил қилиш ва олиб бориш малакаларини эгаллаш;
- ўзгаларга ҳамдард бўла олиш (эмпатия);
- ўзгалар манфаатини англаш.

Ушбу компонентлар коммуникатив компетенцияни асосан психологик жиҳатлар билан тавсифланган, шу билан бирга, қайд этилган компонентлар ҳамда коммуникатив компетенциянинг кўплаб бошқа таҳлиллари ушбу компетенциянинг барча соҳаларда бир хил бўлмаслигини тасдиқлайди.

Коммуникатив компетентлик тилини ўрганаётган шахсда ўз-ўзидан шаклланиб қолмай, бир қатор билим, кўникма ва малакалар ҳамда уларни қўллай олиш лаёқати, яъни компетенциялардан ҳосил бўлади. Турли адабиётларда коммуникатив компетенциянинг таркиби турлича кўрсатилади.

Коммуникатив компетенциянинг ривожланишида лингвистик компетенциянинг ўрнини инкор этиб бўлмайди. Лингвистик компетенция аксарият адабиётларда тил компетенцияси деб аталади [10]. Ўзбек тили таълимида лингвистик компетенция нутқда кундалик ҳаётда кўп қўлланадиган ижтимоий мавзуларга оид сўз ва ибораларни, ўзбек тилининг миллий маданий лексикасини, маънодош, шаклдош сўзларни, касб-хунарга оид атамаларни, ўқув дастуридаги нутқий мавзуларга оид фаол лексикани билиш ҳамда оғзаки ва ёзма нутқда уларни тўғри қўллаш малакаларидан иборат бўлади.

Мулоқот нутқсиз амалга ошмайди, шу боис коммуникатив компетенция бевосита нутқий фаолиятнинг қуйидаги тўрт амали воситасида шакллантирилади.

1. *Тинглаб тушуниш*: ўқитувчи ва суҳбатдошининг нутқини, эшитилган ва эшиттирилган нутқни, тингланган матндаги асосий ахборотни, долзарб мавзулардаги радио ва теледастурларни тушуниш.

Маълумки, умумий ҳамда ўрта махсус таълим босқичлари битирувчиларида ижтимоий-сиёсий, оммабоп мазмундаги нутқ ҳамда матнлар, сўзлашув услубидаги нутқни тинглаб тушунишга оид кўникма ва малакалар асосан шаклланган бўлади. Касбий таълимнинг мақсадларидан бири ушбу кўникма ва малакаларни соҳавий вазиятларда юзага келадиган нутқ борасида ривожлантиришдан иборат.

2. *Сўзлаш*: ўзини таништириш, илтимос билан мурожаат қилиш, таклиф этиш ва таклифни қабул ёки рад қилиш, маълумот олиш ва бериш, ўзгалар фикрини қисқача шарҳлаш, муҳокамада иштирок этиш, мавзуни муҳокама қилишда шахсий қарашлари ва фикрларини билдириш; ўрганилган мавзу доирасида ўз фикрини боғланишли тарзда сўзлаб бериш, берилган мавзу доирасида тақдимот қилиш.

Ушбу кўникма ва малакаларнинг аксарияти содда кўринишда олий таълимдан аввалги таълим босқичларида шаклланади. Бироқ, амалда шахсий қарашлари ва фикрларини билдириш, мавзу доирасида мустақил фикр билдириш малакалари ривожланмаган бўлади. Бу уларни олий таълим босқичида соҳага оид материаллар воситасида шакллантириш зарурлигини кўрсатади.

3. *Ўқиш*: мавзуга оид адабий-бадиий матнларни, оммабоп материаллар (газета материаллари, қисқа ҳикоя, шахсий ва электрон хатлар)ни ўқиш.

Маълумки, умумтаълим босқичида ўқувчиларга лексик ва синтактик жиҳатдан бирмунча содда матнлар ҳамда материаллар берилиши боис уларда ўқишга оид

кўникма ва малакалар асосан шаклланган бўлади. Олий таълим босқичида ўқиш учун бериладиган материаллар эса асосан соҳавий хусусиятга эга бўлиши мақсадга мувофиқ бўлади.

4. Ёзиш: мавзу бўйича матнлар тузиш ва расмий ҳужжатлар (хатлар ва электрон хатлар, тилхат, ариза, тушунтириш хати, таржимаи ҳол ва ҳк.) ёзиш. Ўрганилган мавзулар бўйича диктант, баён ёзиш ҳамда ижодий матн тузиш.

ХУЛОСА қилиб айтганда, ушбу малакаларни шакллантирадиган методик воситалар умумтаълим тизимида жуда кам қўлланишини таъкидлаш лозим. Жумладан, дарсликларда айрим расмий ҳужжатларнинг намуналари берилди, холос. Шу боис бу турдаги малака ва кўникмаларни ривожлантириш бўйича асосий масъулият олий таълимга юклатилади, чунки мазкур компетенциялар касбий тайёргарлик жараёнида ҳосил бўлмаса, мутахассис иш фаолиятининг биринчи куниданоқ муаммолар билан тўқнашади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили (5-9-синфлар). – Т., 2010. – Б.92-194.
2. Таълим тўғрисида / Ўзбекистон Республикасининг қонуни / ЎзР Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1997.–9-сон, 225-модда; 2013.–41-сон, 543-модда. 3
3. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури / ЎзР Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997. – 11-12-сон, 295-модда; ЎзР ҚҚТ, 2007. – 15-сон, 150-модда; 2013. – 41-сон, 543-модда
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / 5 жилдли. – Т.: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 1-жилд, 2006. – 680 б., 2-жилд, 2006. – 672 б., 3-жилд, 2006. – 688 б., 4-жилд, 2008. – 608 б., 5-жилд, 2008. – 592 б.
5. Олий таълим (луғат-маълумотнома). – Т.: Молия, 2003. – 456 б.
6. Chomsky, N. Syntactic Structures. Mouton, 1957, 117 p.
7. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: Пед. фан. доктори... дис. автореферати. – Т., 2016. – 82 б.
8. Daniels, M. Developing and Assessing Professional Competencies: a Pipe Dream? (2011), Uppsala University, Sweden, 108 p.
9. Cheetham, G. The Acquisition of Professional Competence (1999): Thesis submitted for the Degree of Doctor of Philosophy, University of Sheffield, Division of Adult Continuing Education, England, 380 p.
10. Азимов, Э.Г., Щукин, А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. – 448 с.

Тўрабоева Мадинахон Рахмонжон қизи
Андижон давлат университети таянч докторанти
(Андижан, Узбекистан)

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАЛАБАЛАРИДА ШАХСИЙ-КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПОТЕНЦИАЛ ИМКОНИАТЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақола талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни шакллантиришда компетентли ёндашувни амалга ошириш масаласига қаратилган бўлиб, шахсий-креатив компетенцияларни аниқлаш ва танлаш таълим натижаларининг асосий истеъмолчилари билан белгиланишини ва ҳозирги вақтда мазкур жамиятда қайси қобилиятлар ва сифатлар қадрли ҳисобланишини талқин қилади. Аммо компетентли ёндашув мантиқида жамият ривожининг ҳар бир янги босқичида у ёки бу компетенцияларни актуаллаштириш тўғрисида гап боради. Таълим муассасаси шароитларида тақлиф этилган шахсий-креатив компетенциялар бутун ҳаёт тарзи, унинг таълим муҳити руҳи, ўқув дастурларининг мазмуни ва ўқитувчилар таркибининг шахсий таъсири билан шаклланади. Шахсий-креатив компетенциялар методологик функцияни бажаради.

Калит сўзлар: шахсий-креатив компетенциялар, потенциал, инновация, компетентли ёндашув, қобилиятлар, инвестиция, ахлоқий талабалар

КИРИШ. Бугунги кунда жаҳонда таълимни ривожлантириш йўлида олиб борилаётган барча ишлар келажакка қўйилган инвестиция деб баҳоланмоқда. Жамиятда талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни ривожлантиришнинг самарадорлигини ошириш механизмларини жорий этиш барча инсонлар учун билим олиш, касб ўрганиш, мамлакат ривожига муносиб ҳисса қўшиш орқали қулай шароитда яшаш имкониятларини яратади.

Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигини қўлга киритгач, ўрта таълим муассасалари, хусусан, талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни ривожлантириш тузилмаси ва мазмунини тубдан яхшилаш устувор аҳамият касб этмоқда. Талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни шакллантириш масаласи ҳозирги услубий адабиётларда тил, луғат бойлиги ва нутқ маданияти ҳақида билимларга турлича ёндашувлар асосида ҳал қилинади.

Расмий ҳужжатларда янги атамадан фойдаланиш мисоллари мавжуд, масалан «Умумий таълим мазмунини модернизациялаш стратегияси» куйидагилар ифодаланган: «талабаларнинг интеллектуал, ҳуқуқий, ахборот ва бошқа соҳалардаги шахсий-креатив компетенциялари мажмуи тўғрисида гап бормоқда». [1]. Компетенцияларга йўналганлик шунингдек асосий мезонлари билим, кўникма, малакалар (БКМ) бўлган эски таълим парадигмасидан ажратишни, бунда БКМларни таълим жараёнининг зарур элементларидан бири сифатида сақлаш билан таъминлайди.

АСОСИЙ ҚИСМ. Билдирилган фикрларни таққослаш ва уларни принципиал ҳолатлар бўйича умумлаштириш асосида компетенциялар ва компетентликни

аниқлашга ва улар ўртасидаги мазмунли алоқаларни ўрнатишга уч нуқтаи назарларни ажратиш мумкин.

Биринчи нуқтаи назар учун қуйидагича фикр хос:компетенция шахссиз, бу меъёр, талаблар, сифатлар тўплами, мутахасссининг ўзига хос малакавий тавсифи. Унинг вазифаси инсон, мутахассис, талаба маълум шароитларда ва маълум жойда нима қилишни билиши кераклигини аниқлаштиришдан иборат. Унга ечиладиган муаммоларнинг ёки бажариладиган иш турларининг мураккаблигини ифодаловчи мос даражалар, тоифалар тайинланиши мумкин. Компетентлик мазкур ҳолатда ўрганилаётган компетенцияга эга бўлган инсоннинг мавжуд сифати тариқасида у хусусий маҳаллий характерга эга бўлади.

Агар масалан, бирор-бир касбий фаолият учун бир неча компетенцияларни эгаллаш тўғрисида гап борса, унда компетентлик интегратив сифат каби хизмат қилади ва касбий компетентлик деб аталади.

Иккинчи нуқтаи назар «компетенция» тушунчасини кенгайтиради ва унинг доирасига инсоннинг ўзлаштирган функцияларига якуний талабларни, балки унда шаклландиган психик, физиологик, аксиологик, ижтимоий, фаолиятли тузилмаларни ҳам қамраб олади. Фақат шундан кейингина компетенциялар компетентлик мавқеига эга бўлади, чунки уларнинг объектив мазмуни шахсий сифатларнинг субъектив образига айланади. Иккинчи нуқтаи назарнинг биринчисидан фарқи «компетентлик» тушунчасини кенгроқ талқин этишдангина иборат.

Учинчи нуқтаи назарга кўра компетенциялар тўғрисида фақатгина уларни хусусий масалалар ва вазифаларни ечишга тайёрлик ва қобилиятлик билан боғлиқлиги тўғрисида айтиш мумкин, компетентлик эса инсоннинг муайян соҳадаги қатор компетенцияларни эгаллаганлиги тўғрисида гувоҳлик берувчи комплекс тавсиф сифатида қаралади. Хусусий ва маҳаллий компетентликлар тушунчаси мазкур ҳолатда маъносини йўқотади.

Кейинги ўрганишларда иккинчи нуқтаи назарга таянамиз. Унга кўра «шахсий-креатив компетенциялар» сўз бирикмаси нафақат ўринли, балки таълимий фаолиятининг мазмунини ҳам ташкил этади.

Танланган нуқтаи назар таниқли педагог А.В. Хуторскийнинг фикри билан алоқадор бўлиб, у компетентликни инсоннинг мос компетенцияга эгаллиги, олий таълимнинг мақсади эса иерархик тузилишга эга бўлган компетенцияларнинг шаклланиши ва ривожланиши ҳисоблайди [2].

«Компетенция» атамасига аниқ маъноли мазмун беришга кўпгина уринишлар мавжуд. Бу борадаги муваффақиятли ва камроқ муваффақиятли фикрлар таҳлили бизни баҳсларнинг давом этиши заруратига ишонч ҳосил қилишимизга ва ўз вариантимишни таклиф этишимизга ундади.

Компетенцияни муайян синф муҳити объектлари ва жараёнларида маълум маҳсулотни олиш билан субъектнинг хабардорлиги, кўникмалари, мазмунли йўналганлик, мослашув имкониятлари, фаолият тажрибаси ва усулларининг тизимли мажмуи сифатида таърифлаймиз. Компетенция умумий ҳолатда жараён сифати ва унинг натижаларига муайян фаолиятли бошқичининг мазмунли қисми доирасидаги маълум меъёр, талаблар мажмуи сифатида тушунилади. У шахссиз ва кўп омилли. Бир

томондан, у бажарилган ишнинг сифати белгиланадиган омилларнинг муайян мажмуини ифодалайди, бошқа томондан эса – ҳар бир омил учун миқдорий шкалани белгилаши мумкин.

Компетентлик маълум инсоннинг маълум компетенцияни эгаллаши даражасини ифодалайди. Компетентлик остида мос компетенцияларнинг мавжудлиги ва фаол ҳолатини тушунамиз, уларга кўра инсон маълум муаммоларни амалий ҳал этади ва буни келажакда амалга ошира олади.

Компетенциялар ва компетентлик таълимий ифодаларини таърифлаш бир қанча мураккаброкдир. Айрим муаллифлардан фарқли равишда биз мазкур тавсифларни фақатгина инсоннинг таълим муассасасидаги даврига боғламаган бўлар эдик. Узлуксиз таълим ғояси маданий меъёр шаклига эга бўлган ва янги таълим парадигмасининг асосини ташкил этган шароитларда, ўқув жараёни муайян муассасалар, қатъий муддатли чегаралар ва аниқ ажратилган ўқув даврларидоирасидан ташқарига чиқади. Очиқ таълим модели олий таълим ўқув муассасаларига кириб келмоқда, унинг биринчи белгиси мазкур таълим босқичидаги қонуний экстернат ҳисобланади. Келтирилган фикрларнинг оқибати сифатида таълимий компетенция юқорида умумилмий «компетенция» тушунчасига айрим умумий тушунчаларни очиб беришда берилган ифодаси билан белгиланади.

Натижада қуйидаги таърифга эга бўламиз: таълимий компетенция – талабанинг таълим соҳалари ва ўқув фанлари таркибига киритилган намунавий объектлар ва жараёнлар муҳитида маълум маҳсулотни олиш билан В.П. Беспалько шахсий асосий хусусиятларига қуйидагиларни киритган: ижтимоий, экзистенциал (тажриба), психик (интеллектуал), биологик (ирсий) [3]. Минималлик талаби ихтиёрий таълим муассасаси ва ихтиёрий талаба учун таълим жараёнини амалга ошира олишни таъминлайди. Шу билан бирга, мазкур талаб шароитлар мавжуд бўлган жойда (қобилиятли талабалар ва маҳоратли ўқитувчилар) ихтиёрий юқори ютуқларга йўлни тўсиб қўймайди. В.П. Беспалько шахснинг асосий хусусиятларига қисқа (аннотацияли) таърифни ва уларни шахс сифатлари тушунчаси орқали талқинини келтиради. Шахснинг ижтимоий хусусиятлари структурасига инсоннинг дунёқарши, ахлоқи, эстетик ва меҳнат сифатлари каби сифатлар киради. Айнан шахснинг ижтимоий хусусиятлари билан инсоннинг инсонлар орасидаги, табиатдаги энг умумий хулқи, унинг у ердаги содир бўлаётган жараёнларга муносабати ва улардаги иштироки даражаси белгиланади. Шахснинг экзистенциал хусусиятлари билан инсоннинг ҳаётга тайёриги даражаси, унинг инсонлар жамиятига фойдаси, ривожланаётган ижтимоий-ишлаб чиқариш жараёнларидаги унинг ўрни ва кадр-қиммати даражаси белгиланади. Бу сифатлар билан кўп жиҳатдан инсоннинг фаровонлиги ва унинг ҳаётдаги муваффақияти билан белгиланади. Шахснинг экзистенциал хусусиятлари тузилишига унинг эгалланган фаол тажрибаси, маҳорати, онглилик, шахс маданияти, унинг кундалик одатлари – ижтимоий тан олишда инсондаги кадрланадиган ва оммавий тақдирланадиган каби сифатлари киради. Ижтимоий ҳамда экзистенциал хусусиятлар шахс томонидан фақатгина ташкил этилган ўқиш ва инсонлар билан барча мумкин бўлган алоқалар натижасида эгалланади. Улар шароитлар ва таълимга кўра ҳаёт давомида ўзгариши мумкин.

Бизнинг таклифимизда, аввало аниқ ва тушунарли методологик асосни (Олам ва инсон: алоҳида ва биргаликда) ажратдик ва ўзи ҳамда атрофдаги воқелик билан уйғунликка қобилиятлилик инсон ва жамиятга ўзаро қониқишни келтирувчи самарали ижтимоий мавжудликнинг гарови ҳисобланади. Шунинг учун бундан буён биз томонимиздан ишлаб чиқилган асосий таълимий компетенцияларга таянамиз.

Талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни компетенцияларни аниқлаш ва танлаш таълим натижаларининг асосий истеъмолчилари билан белгиланади ва ҳозирги вақтда мазкур жамиятда қайси қобилиятлар ва сифатлар қадрли ҳисобланишига боғлиқ. Аммо компетентли ёндашув мантиқида жамият ривожининг ҳар бир янги босқичида у ёки бу компетенцияларни актуаллаштириш тўғрисида гап боради. Таълим муассасаси шароитларида таклиф этилган шахсий-креатив компетенциялар бутун ҳаёт тарзи, унинг таълим муҳити руҳи, ўқув дастурларининг мазмуни ва талабалар таркибининг шахсий таъсири билан шаклланади. Шахсий-креатив компетенциялар методологик функцияни бажаради. Мазкур фанга оид талабларнинг кейинги батафсил тушунтиришлари умумфан ва фанга оид компетенцияларда амалга оширилади ва улар алоҳида фанлар ёки фанлараро циклларнинг ўқув дастурларини қуришнинг маълум методик базаси бўлиб хизмат қилади.

Бизнинг таклифимизда биз, аввало аниқ ва тушунарли методологик асосни (Олам ва инсон: алоҳида ва биргаликда) ажратдик ва ўзи ҳамда атрофдаги воқелик билан уйғунликка қобилиятлилик инсон ва жамиятга ўзаро қониқишни келтирувчи самарали ижтимоий мавжудликнинг гарови ҳисобланади. Шунинг учун бундан буён биз томонимиздан ишлаб чиқилган шахсий-креатив таълимий компетенцияларга таянамиз.

Шахсий-креатив компетенцияларни аниқлаш ва танлаш таълим натижаларининг асосий истеъмолчилари билан белгиланади ва ҳозирги вақтда мазкур жамиятда қайси қобилиятлар ва сифатлар қадрли ҳисобланишига боғлиқ. Аммо компетентли ёндашув мантиқида жамият ривожининг ҳар бир янги босқичида у ёки бу компетенцияларни актуаллаштириш тўғрисида гап боради. Таълим муассасаси шароитларида таклиф этилган шахсий-креатив компетенциялар бутун ҳаёт тарзи, унинг таълим муҳити руҳи, ўқув дастурларининг мазмуни ва ўқитувчилар таркибининг шахсий таъсири билан шаклланади. Шахсий-креатив компетенцияларни компетенциялар методологик функцияни бажаради. Мазкур фанга оид талабларнинг кейинги батафсил тушунтиришлари умумфан ва фанга оид компетенцияларда амалга оширилади ва улар алоҳида фанлар ёки фанлараро циклларнинг ўқув дастурларини қуришнинг маълум методик базаси бўлиб хизмат қилади.

Биз, кўпчилик тадқиқотчилар каби таълим муҳитини кенгроқ маънода таълим тизимлари, уларнинг элементлари, таълим материали ва таълим жараёнлари субъектларининг ўзаро алоқаси соҳаси сифатида тушуниш мумкин деб ҳисоблаймиз.

Таълим муҳити хусусиятлари таҳлилининг зарурати ҳозирги вақтда миллий таълимий муҳитда аҳамиятли ўзгаришлар содир бўлганлиги, барқарорликнинг устун хусусияти ноаниқлик хусусиятига алмашганлигига асосланади.

Таълим муҳитининг ноаниқлигига бошқа ўзаро боғлиқ муҳитлардаги ривожланиш омиллари таъсир кўрсатади: иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, илмий, маданий ва бошқалар. Ўзбекистон таълим муҳити ноаниқлигининг таъсир этувчи

омили таълим сифатида ва даражасига ўзгарувчан ижтимоий ва давлат эҳтиёжлари ҳамда таълим тизимини ислоҳ қилиш ва модернизациялашнинг узоқ муддатли жараёни ҳисобланади.

ХУЛОСА қилиб айтганда, талабаларда шахсий-креатив компетенцияларнинг кўриб чиқилган мажмуи бир жиҳати билан бир-бирини эслатади, бошқаси билан эса улар фарқланади. Педагогика соҳасидаги маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан таклиф этилган компетенциялар мажмуи таҳлили, олий таълим тизимига замонавий ижтимоий-иқтисодий талаблар мазмунида талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни муаллифлик тўпламини ишлаб чиқишга ундади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Степанов Е. Н. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания / Е. Н. Степанов, Л. М. Лузина. - М.: ТЦ Сфера, 2005. - 160 с.
2. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.ф.н.диссертация. – Т.: 2000. 128 б.
3. Беспалько, В. П. Образование и обучение с участием компьютеров / В. П. Беспалько. - М.: изд-во Москов. псих.-социал. института; - Воронеж: изд-во НПО «МОДЭК», 2002. - 352 с.
4. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 488 б.

Худойқулов Хол Жумаевич
“Педагогика” кафедраси профессори в/б, Педагогика фанлари доктори,
Хайитов Абдуқосим
“Педагогика” кафедраси
магистранти
Термиз давлат университети
(Термиз, Узбекистан)

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА АКМЕОЛОГИК ПОЗИЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Аннотация: Ушбу мақолада бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантиришнинг амалдаги мазмуни, педагог мутахассис шахсига қўйилаётган замонавий талабларни такомиллаштириш, бу соҳадаги илмий тадқиқот натижаларининг тўлақонли амалиётга татбиқ этилиши, педагогик олийгоҳларидagi мутахассислар тайёрлаш жараёнидаги имкониятлари ва мавжуд ҳолат диагностикасидан келиб чиқиб, мазкур таълим муассасалари ўқитиш тизимига инновацион технологияларнинг тўлақонли жорий этиш жараёнлари мавзунинг муаммоси сифатида очиб беришга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: акмеологик позиция, қобилиятларини ривожлантириш, билим, малака, кўникмаларнинг ўзлаштирилиши, инновацион шакл, методлари, замонавий ахборот технологиялари.

Янгиланиб бораётган Ўзбекистонимизда ислохотлар ва янгиланиш жараёни кечаётган ҳозирги даврда жамият ва халқ маънавиятини янада юксалтириш давлат сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан бири сифатида қаралмоқда. Зеро Президентимиз Ш.М. Мирзиёев айтганларидек бугунги кунда «Халқ давлат идоралари учун эмас, давлат идоралари халқ учун хизмат қилиши керак» деган гаплари ўз исботини топмоқда. Шундан келиб чиқиб, бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш технологияси бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан биридир.

Бугунги мавзумининг кириш қисмида барчамизга маълумки, ривожланаётган Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда янги «Таълим тўғрисида»ги Қонуни қабул қилингандан кейин мамлакатимиз таълим тизимида кенг қамровли ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида таълим тизимининг барча бўғинлари фаолияти мазмуни янгиланди, янги давлат таълим стандартлари ва янги ўқув дастурлари ишлаб чиқилиб, босқичма-босқич таълим жараёнига тадбиқ этилмоқда.

Ўқитувчилик касби ёш авлодни чинаккам ватанпарвар бўлиб вояга етишишида, бундан ташқари юрт келажагини барпо этишда асосий омил бўлиб хизмат қилади. Замонавий педагогиканинг ривожланиши инсоннинг ички салоҳиятига эътиборни кучайтириш, шахснинг ижодий ўз-ўзини ривожлантиришига ёрдам берадиган таълим муҳитини яратиш билан тавсифланади. Олий таълим тизимида ижодий тафаккури

ривожланган ақлли, ташаббускор мутахассисларни тайёрлашга бўлган эҳтиёж, ўқув жараёнидан норозиликнинг кучайиши, талабаларнинг касбий жиҳатдан муҳим фазилатлари ва қобилиятларини ривожлантиришга фаолиятига керакли эhtiбор бермаганлиги, ижодий ўз-ўзини ривожлантириш қобилиятини шакллантириш даражасига ҳам кўп нарсага боғлиқдир. Шунинг учун бўлажак ўқитувчиларнинг акмеологик позицияни шакллантириш, педагогик компетентлиги ва педагогик кўникмалари орқали намоён бўлиши мумкин.

Таҳлилни назария даражасигача етказа олиш кўникмаси – бўлажак ўқитувчиларига таълим беришнинг муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Педагогик вазифанинг умумийлик даражасига қарамай илмий асосланган тизимини яратиш асосий муаммолардан бири ҳисобланади. Мавзунинг долзарблиги ҳам айнан шундадир.

Давлатимиз раҳбари Ш.М. Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида «Биз таълим-тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз»⁴, деб такидлади.

Бугунги кунда бизнинг қилаётган барча ишларимиз, таълимга берилаётган эhtiбор фарзандларимизнинг бахту-саодати, уларнинг ёруғ келажаги учун амалга оширилмоқда.

Дарҳақиқат, мамлакатимизда амалга оширилаётган таълим-тарбия соҳасидаги стратегик вазифаларнинг асосий йўналиши мустақил фикр юрита оладиган, жамият ва шахс манфаатлари учун зарур бўладиган, ривожланиш истиқболларини аниқ белгилайдиган мутахассислар тайёрлаш масалаларига қаратилганлиги билан тавсифланади. Бу эса педагог кадрларни тайёрлаш, модернизациялаш ва унинг инновацион педагогик асосларини ишлаб чиқиш заруратини юзага келтиради.

Олий таълим муассасаларининг энг муҳим вазифаларидан бири – бў бўлажак ўқитувчиларнинг, ҳамда мутахассисларнинг касбий тайёргарлигини шакллантиришдир.

Касбий тайёргарлик ўз-ўзидан юзага келмайди балки аниқ мақсадлар асосида режалаштирилган бўлиши лозим.

Шахсда касбий тайёргарликнинг шаклланишида касбга хос тассаввур, тушунчаларни таркиб топганлиги билан белгиланса, кейинчалик мутахассисликка оид билим, малака ва кўникмаларнинг ўзлаштирилиши, касбий сифатларнинг қарор топиш даражаси билан изоҳланади.

Тадқиқот муаммосини назарий ўрганиш олий таълим муассасалари, хусусан, педагогика олийгоҳларидаги ташкилий-педагогик, ўқув-методик ва моддий-техник шарт шароитлар бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш технологиясини қўллаш лозимлиги етакчи омиллардан эканлигини кўрсатди.

Жамиятдаги ўзгаришлар, мутахассисларнинг касбий билим ва шахсий сифатларига қўйилаётган замонавий талаблар педагогика олийгоҳларидаги таълим

⁴ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. –Т.: “Халқ сўзи” газетаси. 10 декабрь 2017 й.

мазмунини янгилаш, ўқитишнинг инновацион шакл ва методлари, замонавий ахборот технологияларини амалиётга кенг жорий этиш заруратини шакллантирди.

Шу асосда, бугунги кунда педагогика олийгоҳларидаги моддий-техник таъминотини такомиллаштириш, ўқув-услубий имкониятлари доирасини кенгайтириш бўйича қатор чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Бироқ бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантиришнинг амалдаги мазмуни педагог мутахассис шахсига қўйилаётган замонавий талаблар доирасида такомиллаштирилмаганлиги, бу соҳадаги илмий тадқиқот натижаларининг тўлақонли амалиётга татбиқ этилмаётганлиги, педагогик олийгоҳларидаги мутахассислар тайёрлаш жараёнидаги имкониятлари ва мавжуд ҳолат диагностикасидан келиб чиқиб, мазкур таълим муассасалари ўқитиш тизимига инновацион технологияларнинг тўлақонли жорий этилмаётганлиги мавзунинг муаммосига нисбатан чуқурроқ ёндашувни талаб этади.

Бугунги кунда педагогик олийгоҳлардаги талабаларни ўқитувчилик касбига йўналтириш мавзуси долзарб аҳамиятга эга.

Бу мавзу бўйича кўпгина олимлар ўз ишларида етарли маълумотлар бериб ўтганлар. Педагогик таълимни ташкил этишнинг психологик хусусиятлари, таълим самарадорлигини ошириш, ўқитувчи кадрларни тайёрлаш, уларда касбий сифатларни такомиллаштириш масалалари М. Очилов, Н.Н. Азизходжаева, Ф.Р. Юзликаев, М.Г. Давлетшин, Б.Р. Джуроев, Ш.Н. Мажитова, Ш.Қ. Мардонов, Н.М. Эгамбердиева, С.И. Жалилова ва бошқалар томонидан ўрганилган. Ўқитувчиларни тайёрлаш жараёнида инновациялардан фойдаланиш масаласининг айрим жиҳатлари Р.Ш. Аҳлиддинов, Х.Ж. Худойқулов, С. Турғунов, Т.И. Кравченко, А.А. Тихомиров, Л.М. Денякина, О.Л. Назарова, А.П. Волчкова, Н. Мамадов, Ш. Зуфаровларнинг бошқарув назариясига доир тадқиқотларида ўз аксини топган. Юқорида келтирилган тадқиқотларда акмеологик позицияни шакллантириш масаласи турли аспектлар мисолида ёритилган бўлсада, лекин бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари масаласи педагогика таълим йўналиши магистратура битирувчилари мисолида етарлича ўрганилмаган.

Мавзунинг мақсади: Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантиришнинг зарурий педагогик шарт-шароитларини назарий жиҳатдан асослаш.

Мавзунинг объекти: Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш жараёни ҳисобланади.

Мавзунинг предмети: Бўлажак ўқитувчиларда касбий компитентликни ривожлантириш технологияси.

Мавзунинг вазифаси: Акмеологик позицияни шакллантириш муаммосининг ўрганилганлик даражасини таҳлил этиш.

- Бўлажак ўқитувчиларда касбий компитентликнинг педагогик-психологик жиҳатларини асослаш;

- Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позиция шакллантиришнинг самарадорлигини таъминловчи омиллар ва педагогик шарт-шароитларни аниқлаш;

- Тизимли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш модели ва технологиясини ишлаб чиқиш;

- Педагогик тажриба-синов ишларини ташкил этиш ва илмий-услубий тавсиялар ишлаб чиқиш.

Мавзу бўйича қуйидаги илмий янгиликларни асослаш мумкин:

- Бўлажак ўқитувчиларни касбий мослаштириш мазмуни ва педагогик шарт-шароитларини илмий-услубий жиҳатдан асосланганлиги;

- педагогика олийгоҳларининг талабаларида касбий ўқитувчиликка мослашганлигининг мавжуд ҳолати диагностикаси;

- тизимли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш технологиясининг моделини ишлаб чиқиш, амалиётда тажрибадан ўтказилганлиги билан тавсифланади.

Мавзу бўйича қуйидаги методларидан фойдаланилди: Мавзуга оид фалсафий, психологик, педагогик, методик ҳамда касбий таълимга оид адабиётлар, шунингдек, педагогика коллежлари фаолиятини ёритувчи меъёрий ҳужжатларни ўрганиш; ижтимоий методлар (сўровнома, суҳбат, интервью); моделлаштириш; педагогик кузатиш; педагогик тажриба; математик-статистика.

Унинг назарий аҳамияти: Мавзуга оид ишида “акмеологик шакллантириш” “Тизимли ёндашув” тушунчаларининг мазмуни, моҳиятига нисбатан илмий –назарий мушоҳадалар аниқлаштирилди; бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантиришнинг мавжуд ҳолати диагностика қилиниб, зарурий мазмунли, технологик ўзгартиришлар киритилди;

Мавзунинг амалий аҳамияти: Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш жараёнида тизимли ёндашувдан фойдаланиш йўллари ва самарадорлиги амалиётдан ўтказилди.

Педагогика ўқув юртларида бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш жараёни албатта педагогдан катта маҳорат, қобилият ва тажрибани талаб этади. Профессор-ўқитувчиларнинг энг муҳим вазифаси-ёш авлодга пухта билим бериш, уларни жисмоний ва маънавий етук инсонлар этиб тарбиялашдан иборатдир.

Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш технологиясини тадқиқ этар эканмиз аввало акмеология ҳақида етарлича тушунчага эга бўлишимиз лозимдир.

Акмеология - (грекча *акте-чўққи, такомил, ниманингдир юқори босқичи, гуллаган давр* маъноларини англатади) илму- фаннинг шундай янги тармоғики, у инсонни ўз тараққиёти динамикасида, такомилли ҳамда ҳаёт-фаолиятининг турли босқичларида ўзидаги энг кучли қобилиятларнинг намоён қилишнинг комплекс масалаларини ўрганади.

Акмеология тушунчасини биринчи марта фанга рус олими Н.А. Рыбников томонидан 1928 йилда киритилган бўлиб, унинг ўзи бу фан предметини етук инсонларнинг шаклланиш жараёнидир, деб таърифлаган эди. Лекин том маънодаги жиддий фан сифатида унинг шаклланишига рус психологи Б.Г. Ананьев ва унинг издошлари бўлган Петербурглик олимлар алоҳида улуш қўшишган. Уларнинг таъкидлашича, акмеологиянинг предмети- одамнинг ижодий салоҳияти бўлиб, у инсон томонидан ўзига иноят этилган барча имкониятлари ва иқтидорини қандай қилиб, қандай шарт-шароитларда, қайси қонуниятлар таъсирида рўёбга чиқаришни комплекс

тарзда ўрганади. Акмеология фанининг асосий вазифаси онгли фаолият субъекти бўлиши шахсни турли фаолият жараёнларида, хусусан, танлаган касб-кори, ихтисослиги доирасида ўз ижодий салоҳиятини тўла очиш ва амалда намоиш этишга боғлиқ бўлган билимлар, амалий кўникмалар, малакалар, технологиялар билан таъминлаш, таништиришидир⁵.

Позиция - (лотинча *positio* ҳолат, вазият)-бирор бир масала юзасидан билдирилган фикр, нуқтаи назар; далил, воқеа, ҳодисанинг муайян баҳоси; шу баҳога мувофиқ амалга оширилган ҳатти-ҳаракат.

Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позиция бир қанча тамойиллар асосида. Шаклланади:

- ўзини-ўзи тарбиялаши: бу тамойил асосида кишида ташқи тарбиявий таъсирларга онгли муносабат ҳосил бўлади;

- ўқув матреалини ўзлаштириш сифати: бўлажак ўқитувчиларни мутахассислик фанларини ўзлаштириши билан бирга илмий-тадқиқот ишларида иштирок этиб бориши;

- фаол мулоқотга кириша олиши: таълим жараёнида талабаларнинг таълим берувчи билан самарали мулоқоти;

- замонавий педагогик технологияларини мукамал ўзлаштириб бориши: ҳар бир талаба бугунги кунда таълим тизимининг асосий воситаларидан бири ҳисобланган кампютер технологияларидан самарали фойдаланишни билиши лозим;

- педагогик ва психологик билимга эга бўлиши; ҳар-бир бўлажак ўқитувчи келажакда ўқувчилар жамоаси билан ишлаш жараёнида ўрганилаётган фанлар юзасидан чуқур билим, кўникма ва малакага эга бўлиши билан бир қаторда психологик таъсир этиш қобилиятини ҳам эгаллаб бориши муҳим ҳисобланади. Педагог ҳар бир ўқувчига индивидуал ёндашиши, боланинг ёши ва характер хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда таълим-тарбия бериши мақсадга мувофиқ саналади.

Ўзбекистон Республикаси Вазиранг Маҳкамасининг 2019-йил 31декабрдаги №1059- сон қарори: Узлуксиз маънавий тарбия концепциясида ҳам ёшларни касбий-маънавий кўникмаларини мустаҳкамлаш, ўзини ўзи тарбиялашга ўргатиш, фаол фуқоралик позициясини кучайтириш, келажакка ишонч ва мамлакатда амалга оширилаётган ислохотларга дахлдорлик туйғусини кучайтириш масалалари белгилаб қўйилган. Олий ўқув юртлирида бўлажак ўқитувчиларнинг акмеологик позитивсининг шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараённинг муайян технология асосида ташкил этилганлиги, замонавий ўқитувчи моделининг яратилганлиги, мазкур ўқув юрти талабаларининг ёш, психологик хусусиятлари, шунингдек, уларда касбий маданиятнинг шакллантиришда бошланғич асос бўлиб хизмат қилувчи шахсий хислатлар, уларнинг мавжуд даражасини ўрганиш, ўқув-тарбия машғулотларининг лойиҳаларини яратиш, машғулотлар жараёнида ўқувчиларнинг мустақил фаолият юритишлари ва эркин фикр юритишлари учун зарур шарт-шароитларни яратиш сўз юритилаётган муаммонинг ижобий ечимга эга бўлишини таъминлайди.

⁵ Васи́ла Каримова. Психология. Тошкент 2002 йил 156-бет.

Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакиллантирилиб борилиши уларда янгича фикрлаш билан бирга таълимни қулай оптимал шакллари ишлаб чиқишларига асос бўлади.

Ривожланган хорижий мамлакатлар таълими тажрибасидан маълумки, таълим тизими мазмунининг илм-фан, техника ва технология ютуқлари билан узлуксиз равишда бойитиб бориш, таълим муассасаларида олиб борилаётган ўқув-тарбия жараёни ижтимоий ўзгаришлар ҳамда унга мувофиқ равишда қарор топувчи ижтимоий эҳтиёжлар моҳиятини акс эттирувчи ғоялар асосида ташкил этиш, бир сўз билан айтганда, жамият ҳаёти ва таълим-тарбия тизими ўртасида ўзаро боғлиқлик ва алоқадорликнинг қарор топишига эришишни кўйидаги икки омил юзга келтиради:

биринчидан - давр талаби ва ижтимоий эҳтиёж моҳиятини чуқур англай оладиган ва унга мувофиқ равишда касбий фаолиятни йўлга қўйиш лаёқатига эга мутахассислар тайёрлаш ривожланади;

иккинчидан - чуқур назарий билим ва мутахассислик фаолиятини йўлга қўй олиш малакасига эга мутахассисларнинг жисмоний ва интеллектуал салоҳияти асосида ишлаб чиқариш жараёнининг самарадорлиги ортади ва юксак сифат кўрсаткичларига эришилади.

Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакллантириш технологиясини ўрганиш баркамол шахс ва малакали мутахассисларни тайёрлаш муаммоси асосий ижтимоий муаммолардан бири сифатида эътироф этилган мавжуд шароитда олий таълим назарияси ва амалиёти олдида турган муҳим вазифалардан биридир.

Олий ўқув юртлари фаолиятини назарий ва амалий жиҳатдан ўрганиш ушбу тизимда амалга оширилиши лозим бўлган бир қатор муҳим вазифалар мавжудлигини кўрсатмоқда. Чунинчи, олий ўқув юртлари талабаларида касбий маданиятни шакллантириш ва мустақил равишда педагогик фаолиятни ташкил этишда ўзига хос аҳамият касб этувчи кўникма ва малакалар, шу жумладан, акмеологик позицияни шакллантириб борилиши ана шундай вазифалар сирасига киради.

Мазкур вазифаларни ижобий ҳал этишда сўз юритилаётган муаммо бўйича илмий изланишларни олиб бориш муҳим аҳамиятга эга.

Педагогнинг касбий лаёқатлигини тарбиялаш феноменини тадқиқ қилишга Р.А. Мавлонова, Н.Н. Азизходжаева, Ф. Юзликаев, Р.Х. Джураев, В.А. Кан-Калик, Н.В. Кузьмина, В.А. Сластенин ва бошқа қатор олимларнинг ишлари педагогик компетентликка бағишланган.

Масалан: М.Г.Давлетшин томонидан тайёрланган «Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси» номли қўлланмада ўқитувчи шахсида намоён бўлувчи қобилиятларни таснифлашда ўзига хос ёндошилади ва улар кўйидагича таснифланади:

1. Дидактик қобилиятлар – бу болаларга ўқув материалларини аниқ ва равшан тушунтириб, осон қилиб етказиб бериш, болаларда фанга қизиқиш уйғотиб, уларда мустақил фаол фикрлашни уйғота оладиган қобилиятдир.

2. Академик қобилиятлар – математика, физика, биология, она тили, адабиёт, тарих ва бошқа шу каби фанлар соҳасига хос қобилиятлардир.

3. Перцептив қобилиятлар – бу ўқувчининг, тарбияланувчининг ички дунёсига кира билиш, психологик ҳолатлари билан боғлиқ нозик томонларини тушуна билишдан иборат қобилиятдир.

4. Нутқ қобилияти – кишининг ўз ҳис-туйғуларини нутқ ёрдамида, шу билан бирга мимика ва пантомимика ёрдамида аниқ ва равшан қилиб ифодалаб бериш қобилиятидир.

5. Ташкилотчилик қобилияти – бу биринчидан, ўқувчилар жамоасини уюштири билиш, бундай жамоани жиплаштири олиш, иккинчидан, ўзининг шахсий ишини тўғри ташкил қила олиш қобилиятидир.

6. Авторитар қобилият – бу ўқувчиларга бевосита эмоционалиродавий таъсир этиб, уларда обрў орттири билишдан иборат қобилиятдир.

7. Коммуникатив қобилияти – бу болалар билан мулоқотда бўлишга, ўқувчиларга ёндашиш учун тўғри йўл топа билишга, улар билан педагогик нуқта-назардан мақсадга мувофиқ ўзаро алоқа боғлашга, педагогик тактнинг мавжудлигига қаратилган қобилиятдир.

8. Педагогик хаёл – бу кишининг ўқувчилар шахсини тарбиявий томондан лойиҳалаштиришда ўз иш-ҳаракатларининг натижасини олдиндан кўра билишда намоён бўладиган қобилиятдир.

9. Диққатни тақсимлай олиш қобилияти – бу қобилият бир вақтнинг ўзиде диққатни бир қанча фаолиятга қарата олишда намоён бўлиб, ўқитувчи ишида ғоят муҳим аҳамиятга эгадир.

Узлуксиз педагогик таълим жараёнида ўқитувчи шахсининг касбий тарбиялаш муаммосини тадқиқ этишга уринган Х. Абдукаримов ўз тадқиқотида касбий-педагогик сифатлар ва уларнинг тараққиётини башоратлашнинг муваффақияти педагогик йўналишда махсус таълим олгунга қадар шахснинг касбий-педагогик тайёргарлигига бевосита боғлиқ эканлигини қайд этиб ўтар экан, ушбу тайёргарлик унинг негизиде куйидаги ҳолатлар инъикоси асосиде самарали бўлишини кўрсатади:

а) касб танлаш майил (мотив)лари;

б) ёш ва танланган касбнинг асосланганлиги;

в) касбий интилиш, қизиқиш ва ҳаётий режаларнинг қатъийлиги;

г) бўлажак ўқитувчининг ўз меҳнати натижаларини олдиндан кўра олиш қобилияти;

д) шахсий-касбий такомиллашувни таҳлил эта олиш қобилияти;

е) янги ва касбий ишчанлик лаёқатига эгалик;

ж) ўқитувчилик касбининг ижтимоий аҳамияти ва ўзининг педагогик фаолиятни муносибликни англаш.

Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакиллантирилиб борилиши талабанинг қизиқишлари, қобилияти ҳамда имкониятларини инobatта олувчи, унинг шахс сифатидаги тараққиёти, илғор педагогик ва ахборот технологияларидан самарали фойдаланишга қаратилган жараёндир.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бўлажак ўқитувчиларда акмеологик позицияни шакиллантириб ўқитишда дифференциаллаш ва индивидуаллаштириш шахсга йўналтирилган таълимни жорий этишнинг асосий тамойиллари сифатида

хизмат қилади. Замонавий жамиятда таълим тизимини ривожлантиришнинг йўналиши – бу инсоннинг турли соҳаларда мақсадли мустақил фаолияти асосида унинг интеллектуал ва ахлоқий ривожланишидир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаснинг 2017-2021 йилларда ривожланишнинг бешта устивор вазифалари “Ҳаракатлар стратегияси”. – Т.: Ўзбекистон. 2017 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Т.: Ўзбекистон,- 2019. 116-бет.
3. Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конститутцяси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимда қилинган маърузадан. – Т.:”Халқ сўзи” 2018 йил. 10-декабр.
4. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон келажагининг пойдевори. – Т., Ўзбекистон. 1997 й.
5. Абдуллаев Ш. Педагогика. – Т.: Ўқутувчи,20018 й.
6. Мавлонова Р.А.Касбий лаёқатлигини тарбиялаш феномени. – Т.: Ўқитувчи. 2016 й.
7. Мардонов Қ.Ш. Бўлажак ўқитувчиларнинг акмеологик позициясини шакллантириш технологияси. – Т.: Фан.2019 й.
8. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М., 2008.
9. Нишонова З. Ўқувчиларни креатив фикрлашга ўргатиш.-Т.: ТДПУ.2015 й.
10. Климов Е.А. Психология профессионала. – М., 2017.
11. Комилов Н.Ўқитувчиларнинг акмеологик позициясини шакллантириш. – Т., Чўлпон,2016.
12. Майерс Д. Социальная психология. – М., 2017.
13. Худойқулов Х.Ж.Тарбиявий ишлар методикаси.-Т.:Иновация –Зиё.2020 й.

Мўминова Нодира Баходировна
Андижон Давлат Университети
Факультетлараро Чет тили (ижтимоий-гуманитар фанлар)
кафедраси инглиз тили фани уқитувчиси
(Андижан, Узбекистан)

БИЛИМ ДАРАЖАСИ ТУРЛИЧА БЎЛГАН АУДИТОРИЯЛАРДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ГУРУХЛАШ СТРАТЕГИЯЛАРИ

Аннотация: ушбу мақолада билим даражаси турли бўлган талабалар билан ишлаш стратегиялари таҳлил қилинган ва гурухларга ажратиб уларга мос қандай турдаги машқлар типологиясини тақдим қилиш кераклиги баён этилган.

Калит сўзлар: турли билим даражаси, стандартлари, мезон даражасига, мезон даражасидан паст ва мезон даражасидан юқори.

Abstract: In this article analyzed problems how to work with multilevel students and emphasized what relevance typology of exercises should be provided by using grouping strategies.

Key words: multi-level, standards, at level, below level, high level.

Аннотация: В данной статье проанализированы проблемы организации работы со студентами с разным уровнем знаний языка, а также подчеркнута, типология релевантности упражнений, которая должна обеспечиваться с помощью групповых стратегий.

Ключевые слова: многоуровневый, стандарты, на уровне, ниже уровня, высокого уровня.

Ушбу мақолада билим даражаси турлича булган талабаларга таълим беришда осон ва самарали усуллар ҳақида фикр юритилган ва уни қандай амалга ошириш керак деган саволга жавоб топишга эътибор қаратилган. Нофилологик таълим муассасарида кўп учрайдиган ҳолатлардан бири, талабалар инглиз тили дарсларида билим даражаси турлича эканлигини намоеъ қиладилар. Уларнинг билим даражаси паст, ўрта ва юқори академик салоҳиятга эга бўлиб дарс жараёнини ташкил этишда бир қанча мураккабликларни келтириб чиқаради. Талабаларнинг тил билиш даражалари турлича бўлиши, ўқитувчига янада кўпроқ маъсулиятни юклар, материалларни танлашда ўрганувчиларнинг имкониятини ҳисобга олган ҳолда кўрсатмаларни шунга мувофиқ режалаштириши керак. Яни, таълим стандартида белгиланган тил билиш даражаси турлича булган талабаларни бир аудиторияда таълим олиши куйидаги таҳлилларни келтириб чиқаради.

Белгиланган мезон даражасидан чет тилини билиш даражаси паст бўлган талабалар – ўзлаштириши учун қўшимча вақт талаб қилинади, қўшимча машғулотларга эҳтиёж ва шерикларининг ёрдами зарур бўлади. Психологик томондан қараганда

бундай талабаларда одатда уларга нисбатан бошқа ўрганувчилар яхшироқ ўзлаштираётганидан ўзига паст баҳо бериш ва ноқулайлик хисси пайдо бўлиши мумкин.

Тил билиши белгиланган мезон даражасида бўлган талабалар – таълим олиш жараёнида берилган машқ ва вазифаларни яхши бажаради ва олган билимини ривожлантира олади. Психологик жиҳатдан бундай даражадаги талабаларда ўзига бўлган ишонч ва тил ўрганишга мотивацияси етарлича бўлади.

Тил билиш даражаси мезон даражасидан юқори бўлган талабалар – бошқа талабаларга қараганда тилни кўпроқ билиши ва яхшироқ ўзлаштира олиши мумкин. Одатда бундай ўрганувчилар янада қийинроқ топшириқларни тақдим қилинишини кутишлари табиий. Психологик томонлама улар бошқа талабаларни машғулот жараёнида кузатадилар, ўзлаштириб олгунга қадар кутадилар ва зеркиш, дарс жараёнидан қониқмаслик руҳи пайдо бўлади.

Таниқли америкалик олимлар Шанк ва Терилл фикрига кўра дарсни режалаштиришда барча билим даражасига хос бўлган талабалар учун параллел тайёрланиш, гурухлаш стратегияларини амалга ошириш фаолиятини таминлаш зарурдир [2. 2]. Бунга кўра АҚШнинг талабалар билим салоҳиятини ошириш бўйича тайёрлаган лойиҳалари асосида дарсни режалаштириш ва гурухлаш стратегияларини инглиз тили фанини ўргатишдаги М. Робертс ва Т. Кернс каби мутахассислар томонидан берилган тавсияларидан фойдаланиб машғулотларни ташкил этишни таклиф этамиз.

Машғулотлар жараёнида гурухлаш стратегияларидан фойдаланиб ўқитиш дарс жараёнини самарали ўтишини таминлайди. Талабаларни бир бирга ёрдам бера олиши ўқитувчини талабалар билан индивидуал ишлашдаги қийинчиликларини енгиллаштиради. Гурухлашнинг 4 хил усуллари бўлиб: жуфт, кичик гурух ва бутун гурух бирга ишлаши ҳисобланади. Талабаларни гурухлашда уларни 2 хил томонларини ҳисобга олган мақсадга мувофиқдир: – биринчиси (like-ability) билим даражаси ўхшашлигига қараб;

– иккинчиси (cross-ability) билим даражаси хилма хил бўлишига қарамасдан қизиқишларига кўра.

Мелинда Робертс таъкидлашicha, ушбу усулда гурухлаш талабаларни машғулотлар жараёнида бир бирларига ёрдам бериши ва ҳамжихатлик хусусиятларини ривожлантиришга ёрдам беради [1. 3]. Тилни тўрт аспекти (ўқиш, тинглаб тушуниш, ёзиш, гапириш) ўрганувчида бир хил шакланмаслиги ҳам мумкин. Бунда ўқитувчидан уларнинг кучли ва кучсиз томонларини аниқлаш ва барча маҳоратларини параллел ривожлантирилиши талаб этилади. Alexander, D. нинг тадқиқотларига кўра камчиликларни аниқлаб олиш - алтернатив яккама якка интервьюлар, стандартлаштирилган тестлар, гурух дискуссиялари ва ўрганувчиларни кузатишлар билан амалга оширилади. [3. 34].

Бу моделларда гурулаш турларига кўра ўқитилиб бутун жамоа учун умумий бўлган мавзуну талабаларга турли йўллар билан етказиб бериш усуллари қўлланилган.

1) Лойиҳага кўра биринчи моделда дарсни анъанавий ўқитиш туридан фойдаланилади ва режалаштирилади. Ўқитувчи тайёрлаган тарқатма материал ёки дарсликдан фойдаланилиб гурухлар билим салоҳиятига қараб ажратилади. Қуйида дарс режаси жадвал асосида мисол тариқасида келтирилган:

1- жадвал

Theme: Social networking		
Lesson objectives	For low level students' group	Students will be able to name of networking items and match the words with pictures.
	For high level students' group	Students will be able to discuss about networking services.

2) Таклиф этилган лойиханинг 2- моделида дарснинг ноанъанавий усулидан фойдаланган ҳолда PBL(project based-learning) методига таяниб ўрганилади. Талабаларни гуруҳлашда уларни қизиқтирган соҳа ва мақсадларини умумийлигига қараб ажратилади. Машғулот якунида ўрганувилар билим ва фикрларини алмашиш имкониятига эга бўладилар

2-жадвал

Theme: Social networking		
Lesson objectives	For the first mixed level group	Social networking ethics and making golden rules
	For the second mixed level group	Comparing the advantages and disadvantages of social networking

Бу турдаги гуруҳлаб ишлаш жараени талабалар ва ўқитувчилар учун қулай ҳисобланади, чунки жамоада ишлаётган ўрганувчилар бир бирига ёрдам бериши ва қўллаб қувватлаши мумкин.

Trish Kerns ва Marilyn Knight- Mendelson ларнинг инглиз тилини иккинчи тил сифатида ўқитишдаги машғулотлар учун мўлжалланган Калифорния модел программаси стандартлари қуйидагича:

1) тил ўрганиш жараёнида тўрта тил кўникасини (тинглаб тушиниш, гапириш, ўқиш ва ёзув) интеграциялашуви тилни яхлит ҳолатида ўрганишни белгилайди.

2) Гуруҳдаги тил машғулотлари ва топшириқлари талабаларнинг коммуникатив компетенцияларини ўстиради ва ривожлантиради.

3) Талабалар ҳаётий вазиятларда ишлатиши учун зарур бўладиган машқлар тизими коммуникатив компетенциясини шакллантиришга қаратилади.

4) Продуктив (гапириш ва ёзиш) кўникмаларини шакллантиришдан аввал рецептив (тинглаб тушуниш ва ўқиш) кўникмаларини ривожлантиришга қаратилади.

5) Гуруҳлаш стратегияси турлича бўлиб (бутун гуруҳ кичик гуруҳ жуфт ва индивидуал ишлаш) унда талабаларни мустақил ишлашига қаратилади.

6) Таълим машғулотлари турли типдаги талабаларга қаратилади (тинглаб тушунувчи талабалар, визуал ва амалий бажариб тушунувчи талабалар).

7) Тил ўрганишда тили ўрганилаётган давлатлар маданиятини ўрганиш муҳим ҳисобланади, ўз маданияти билан солиштиради ва таққослайди

8) Тил машғулотлари тилнинг зарурий аспектларини ривожлантириб, талабаларнинг таҳлил, синтез, баҳолаш ва танқидий фикрлашларини, шакллантиради.

9) Бундай турдаги машқлар талабаларни тил ўрганиш жараёнида фаол бўлишларини таъминлайди ва ҳаётий муаммоларга тўғри ёндашишни ўргатади. [4. 6-7]

Балиро Л нинг фикрига кўра юқоридаги стандартлар барча даражалар учун мўлжалланган машқлар ва материаллар банкини бойитади [5. 6].

Ҳаётий материаллардан фойдаланиш дарс жараёнини ташқи дунё билан бирлаштириб бўшлиқни тўлдиришга хизмат қилади. Агар ўқитувчи ўрганиш мотивацияларини билса, муҳим манзилга қаратилган кўрсатмаларни уйғунлаштиради ҳамда унга йўналтирилган материаллар, кўзланган мақсадга эришишга ёрдам беради.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Roberts, M. Teaching in the Multi-Level Classroom retrieved on 1/26/2015 - P. 3.
http://www.pearsonlongman.com/ae/download/adulted/multilevel_monograph.
2. Shank, C. C., & Terrill, L. R. Teaching multilevel adult ESL classes. Washington, 1995, May
Web site: www.cal.org/caela.
3. Alexander, D. How self-assessment can work. Learner-Centered Approaches to Assessment and Evaluation in Adult Literacy, 1993. - P. 34–37.
4. Trish Kerns and Marilyn Knight- Mendelson. Esl new teacher resours guide December 2006 - P. 6-7
5. Balliro, L. Multiple levels, multiple responsibilities. Retrieved March 2, 2006, 1(C), 6–8.
from www.ncsall.net/index.php?id=444

Хидирова Малоҳат Қазақовна
ГулДУ Педагогика факультети ўқитувчиси,
Жўраев Адхам
ГулДУ
География ўқитиш методикаси йўналишининг талабаси
(Гулистан, Ўзбекистан)

ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

Аннотация: Мамлакатимизда шу кунгача масофавий таълим тўлиқ йўлга қўйилмаганлиги, талабаларнинг турли катламлари: уй жойи узоқда бўлган талабалар, меҳрибонлик уйи тарбияланувчилари, ногиронлиги бўлган талабалар дарсга кечикиши ёки бошқа сабаб билан келмай қолиши мумкин. Бу таълим сифатига таъсир қилмай қолмайди ва давоматнинг пастлиги.

Калит сузлар: Олий таълимда талабаларга дарс бериш. Марказий Осиё. масофавий таълим. География ўқитиш методикаси

Мамлакатимизда Олий таълимда талабаларга дарс беришнинг шу кунгача ўзига хос мактаби ярилди. Шу боисдан юртимиздаги олий ўқув юртлари нафақат юртимизнинг фуқаролари учун балки қўшни давлатлар фуқаролари ҳам Ўзбекистондаги нуфузли олий таълим муассасаларида ўқиш истагини билдиришмоқда. Мисол учунб ЎЗМУ да Марказий Осиё ва бошқа давлат фуқаролари ҳам тахсил олиши йилдан йилга кўпаймоқда. Ўзбекистон Консерваториясида хаттоки Хитойлик талабалар ҳам ўқиётганлиги бизни қувотирмай қўмайди. Бошқа олий таълим муассасаларимизда ҳам хорижлик фуқаролар етарлича топилади, лекин ютуқлар билан бирга камчиликлар ҳам етарлича бор.

Биринчидан, талабаларга қонуний асосида ишлаш ҳуқуқининг чекланганлиги. 1, 2 босқич талабаси қонуний асосида ўқишдан бўш вақти Давлат ва хусусий ташкилотларда ишлолмайди. Бу эса ўз навбатида бошқа муаммони келтириб чиқармоқда. Хусусан, талаба ноқонуний равишда халқ тили билан айтганда мардикор бозорга бориб миждоз кутиш, талаба қизларнинг эса ошхона, ресторан, кафе, барларда ишлаши талабаларнинг соғлиғи хаттоки ҳаётига ҳам хавф солмоқда. Меҳнат шартномасини имзоламасдан ишга олинган талаба иш вақтида жароҳат олса, ким жавоб беради, ҳеч ким. Ҳар ҳолда ишга жалб қилган ташкилот ёки ишга жалб қилган шахс эмаслиги аниқ.

Иккинчидан, мамлакатимизда шу кунгача масофавий таълим тўлиқ йўлга қўйилмаганлиги, талабаларнинг турли қатламлари бор, уй-жойи узоқда бўлган талабалар, меҳрибонлик уйи тарбияланувчилари, ногиронлиги бўлган талабалар дарсга кечикиши ёки бошқа сабаб билан келмай қолиши мумкин. Бу таълим сифатига таъсир қилмай қолмайди ва давоматнинг пастлигига ҳам олиб келади.

Учинчидан, олий таълимдаги дарсларнинг бир хиллиги ва дарс беришда инновацион усуллардан фойдаланилмаётганлиги фақатгина қандай дарс бўлишидан қатъий назар, аудиторияларда ўтилиши тажриба ва кўриб ўрганиш учун бирор бир жойга

борилмаслиги. Шу каби омиллар талабаларнинг уқувсизлигига олиб келади ва магистратура босқичига киришда, иш жараёнида бир қатор муаммоларни келтириб чиқаради.

Биринчи муаммонинг ечимига тўхталсак, талабаларга аксарият хориж мамлакатларнинг илғор тажрибасидан фойдаланиб қонунийлик асосида рухсат берилса. Асосийси, талабанинг соғлиги ва ҳаётига хавф туғилганда уни ишга олган ташкилот ва шахс жавоб беради. Бундан ташқари талабаларнинг олий таълимни тугатгандан кейин бандлиги таъминланишига қисман бўлсада ёрдам беради. Ахир бирор бир ташкилотда талабалик вақтида ишда ўзини яхши томонлама кўрсатган битирувчини ишга олиши ҳеч гап эмас. Чунки, бошқа одамни олиб унга иш ўргатиб ишга мослашишни кутгунча ўзининг кўз олдида пишиб етилган кадрни ишга олгани ташкилотга ҳам, битирувчига ҳам қони фойда. 1, 2 босқич талабасини ишга олган ташкилот ёки шахс меҳнат шартномасни тузган тақдирда талабанинг маошидан даромад солиғи тўлашдан озод этилса, ходимни суғурта бадалидан 50% тўлаш тартиб жорий этилса, ташкилот ёки шахс ҳам меҳнат шартномасни тузмай ишлатиш каби ноқонуний ҳаракатларнинг олди олинган бўлади ёки олий таълим муассасалари қошида ҳудуд имкониятларидан келиб чиқиб, ўғил бола талабалар учун йирик ишлаб чиқариш савдо кўнгилочар ва хизмат кўрсатиш, талаба қизлар учун тикув фабрикалари, турли хил цехлар,пазандачилик, репититорлик марказларни очиш талабаларнинг ўқишдан ажралмаган ҳолда қонунийлик асосида ишлаш имкониятини беради ва молиявий фаровонлигига хизмат қилади.

Иккинчи муаммонинг ечими бизнинг назаримизда қуйидагича талабаларнинг оширилган шартнома пулларида унумли фойдаланган ҳолда олий таълим муассасаларини замонавий таъминлаш ва профессор ўқитувчиларни ахборот технологиялар бўйича қайта ўқитиш орқали имконияти бор талабаларни масофавий тўлиқ йўлга қўйиш орқали таълим сифатининг давомати тушиб кетишининг олди олинади. Ногиронлиги бўлган ва узоқ жойда истиқомат қилувчи талабаларни дарсга кечикиш, ўзлаштиришидаги муаммоларни ҳам бартараф этган бўлардик. Талабаларнинг турли хил қатламларини қўллаб-қувватлаш инсонпарварлик ҳисобланади.

Учинчи муаммо эса, қуйидаги усул орқали ҳал этилади. Масалан, География ўқитиш методикаси талабалари учун биронта тоғ тўғрисида ёки табиат зонаси ҳақида дарс бўлсин. Айнан ана шу ҳудудга бориб дарс ўқиш орқали талабаларни фанга бўлган қизиқиши ортади, билим савияси ошади, қолаверса минг бора эшитгандан бир бора кўрган маъқул деб бежизга айтишмаган доно халқимиз.

Хулоса қилиб айтиладиган бўлсак, юқоридаги таклифлар тўлиқ амалиётга тадбиқ этилса, хорижликларнинг юртимизда тахсил олишга қизиқиши бундан ортади. Бу эса мамлакатимизга тўғридан-тўғри инвестицияни жалб этилишини кўпайишига олиб келади ва туристик салоҳиятимизга ҳам ижобий таъсир қилади. Олий таълимда Европанинг илғор мамлакатларида бўлган ўқитиш тизимига ўтишимизни тезлаштиради.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J. Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.
2. J. Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.
3. Ptiyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologi", M., 1999.
4. www.tests-tests.com
5. www.psiholog1.ru
6. www.uzedu.uz
7. www.ziynet.uz

POLISH SCIENCE JOURNAL

Executive Editor-in-Chief: PhD Oleh M. Vodiany

ISSUE 3(36)
Part 2

Founder: "iScience" Sp. z o. o.,
NIP 5272815428

Subscribe to print 28/03/2021. Format 60×90/16.
Edition of 100 copies.
Printed by "iScience" Sp. z o. o.
Warsaw, Poland
08-444, str. Grzybowska, 87
info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>



ISBN 978-83-949403-3-1



9 788394 940331